

# TAMADDUN SILSILASI

ILMIY JURNALI

*ilmiy, ilmiy-metodik,  
ko'p tarmoqli  
ilmiy maqolalar  
to'plami*



3-SON  
MART  
2021



***O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI***

***MADANIYAT VAZIRLIGI***

***NAMANGAN VILOYAT TARIXI VA MADANIYATI  
DAVLAT MUZEYI***

***NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI***

***TARIX KAFEDRASI***

# **TAMADDUN SILSILASI**

***DAVRIY JURNAL  
№ 3***

«Iste`dod ziyo press» nashriyoti

Namangan  
2021

**UO`K: 821-512-100-1**

**KBK: 89(Ўзб)7**

**M-01**

Tamaddun silsilasi. (*Maqolalar to`plami*)/ «Iste`dod ziyo press» nashriyoti . – Namangan, 2021.

Ilmiy jurnal materiallaridan ilmiy jamoatchilik, oliv va o`rta maxsus o`quv yurtlari professor-o`qituvchilari, talaba, magistr va ilmiy tadqiqotchilar foydalanishi mumkin.

Mazkur to`plam Namangan viloyat tarixi va madaniyati davlat muzeyi ilmiy kengashlarining 2021-yil 10-martdagi 3-sonli qo`shma yig`ilishi bayonnomasi asosida nashrga tavsiya etildi.

**Mas`ul muharrir:**

I.Y. Yusupov, t.f.d., prof.

**Taqrizchilar:**

A. N. Rasulov, t.f.d., prof.

A. A. Erqo`ziyev, t.f.n., dots.

Z. Sh. Madrahimov, t.f.n., dots.

T. Q. Qozoqov, t.f.n., dots.

N.B. Dexqanov, t.f.n., dots.

A. Azizov, s.f.n., dots.

**Maqolalarni nashrga**

**tayyorlovchilar:**

D. Z. Olimjonov

I. I. Karimov

Ushbu to`plamdagи maqolalar xolisona yoritilganligi, keltirilgan dalillar va ilmiy muomalaga kiritilgan manbalar asosli ekanligi bo`yicha mas`uliyat mualliflar zimmasidadir.

## I BO'LIM. TARIX VA ARXEOLOGIYA

### ҚАДИМГИ ВАРАХША ШАҲРИ ХУСУСИДА

*Очилов Алишер Тўлис ўғли*

*Бухоро давлат университети таянч докторанти,*

*Бахтиёрев Бехруз Бобирович*

*Бухоро давлат университети Бухоро тарихи*

*тавлим йўналиши талабаси*

#### **Аннотация:**

Ушбу мақолада Бухоро воҳасининг антик ва илк ўрта асрлар давридаги машҳур ёдгорликларидан бири Варахша ҳақида илмий маълумотлар таҳлил қилинган.

**Калит сўзлар:** Рафандун, Варахша, Арк, Қизил зал, Шарқий зал, археологик тадқиқотлар.

#### **Annotation:**

This article analyzes the scientific data on Varakhsha, one of the most famous monuments of the ancient and medieval period of the Bukhara oasis.

**Keywords:** Rashfandun, Varakhsha, Ark, Red Hall, East Hall, Archaeological Research.

Қадимги Бухоронинг антик ва илк ўрта асрлар даврига оид ёдгорликларнинг энг машҳурларидан бири Варахша ёдгорлигидар.

Варахша Бухоро шаҳридан 40 км шимолий-ғарбда Даҳти Урганчи қўлининг қадимги Рафандун воҳасида жойлашган. У жойлашган худуд ҳозирда Бухоро вилояти Жондор тумани Ромиш МФЙда жойлашган. Шунинг учун ҳам уни баъзи манбаларда Ражфандум деб ҳам аташган. Ўрта аср ёзма манбаларида эса уни Фарахша, Афраҳша, Баҳаҳша каби номлар билан учрайди.

Варахша 15-20 метр баладликда жойлашган бўлиб, ривожлан даврида майдони 9 гектарни ташкил қилган. Шаҳар худуди ва ён-атрофи 12 та руд, яъни канал орқали суғорилганлиги учун худудда дехқончилик ривожланган. Бу ерда суғориш тизимлари, ҳунармандчилик, савдо-сотик ривожланган. Бу ривожланишлар натижасида шаҳар антик ва илк ўрта асрларда йирик қалъалардан бирига айлантирган<sup>1</sup>. Шаҳар қурилишида асосан хом ғиштган қурилган, лекин ёдгорликтининг айрим жойларида пишиқ ғиштларнинг ишлатилгани худудда шаҳарсозлик маданиятининг ўзига хос хусусияти юзага келганлиги аломатидир. Археологик топилмаларнинг гувоҳлик беришича Варахша милоддан аввалги II асрда бир бирига туташган бир неча истеҳкомли қишлоқлар шаклида қад кўтара бошлаган.

---

<sup>1</sup>Наршахий. Бухоро тарихи. Тошкент.: Шарқ баёзи. 1993. –Б.23.

Наршахийнинг “Варахша Бухорданда қадимий” деган фикрига таяниб археологларнинг бу ҳудудга қизиқиши жуда юқори бўлган. Варахша ҳақидаги археологик маълумотларни 1896 йилда Ситняковский, 1913—1914 йилларда Зимин сингари тадқиқотчиларнинг Бухоро ҳудудида олиб борилган тадқиқотларида учратамиз<sup>2</sup>.

Варахшада дастлаб арк қад кўтариб, у шаҳарнинг гарбий қисмида жойлашган. Бу ерда жами 9 иншоот мавжуд бўлган. Ҳар бир иншоот бетакрор тарихий аҳамият касб этган. Иншоотлардан археологлар томонидан мис тангалар, сўғд ёзуви тушурилган турли хил сопол идишлар топилди. Бу топилмалар Варахшанинг арки милоддан аввалги II—I, милодий III асрда курилганлигини қўрсатади<sup>3</sup>. Варахшада милодий I-II асрларда кушонлар даврида маданий ҳаёт гуллаб яшнаган.

Варахша шаҳри бир неча марта қайта тикланган. Реставратор — архитектор Нелсон томонидан Варахша қасри тасвири реконструкстия қилинган. Варахша қасри Бухорхудот Тугшода томонидан барпо қилинган, унинг ўзи ҳам араблар томонидан шу эрда ўлдирилган. Қаср девор билан ўралганган бўлиб, Қизил зал ва Шарқий залга бўлинган. Девор гишталари 38x25x9 см ҳажмга эга. Саройда Қасрнинг энг катта хонаси “шарқий зал”нинг кенглиги 11м, узунлиги 15 м ни ташкил этган. Бу залнинг фақат жанубий девори сақланган. Деворда 1м кенгликда кириш учун эшик жойи қолдирилган. Жанубий девордан 43 см ли диаметрга эга ўсимликсимон нақшлар топилди. Қасрнинг иккинчи катта зали “Қизил зал” дейилиб, у 7,85x12 м катталика эга. Бу залнинг барча деворлари сақлаб қолинган. Тадқиқотлар натижасида шу нарса аниқланганки, Варахшадаги бу қаср VI - XI асрларда бунёд этилган. Лекин XI асрдаги курилишлар охирига этказилмаган.

Варахша саройидан топилган машхур топилмалар орасида деворий расмлар алоҳида ўрин тутади. Деворий суратларда кўпгина тасвиirlар акс этган. Жумладан рельеф шаклида ганчдан ок фил минган кишилар, филга хужум килаётган хайвон, юлбарс, қанотли түя расмлари машҳурдир. Қизил залдаги расмларда Қора кучлар билан кураш, ов манзаралари тасвиirlанган. Чавандоз филда ўтириб, йиртқич шер, гепард ҳамласини қайтараётган суратлари магхур дир.

Шарқий зал кўп сюжетли расмлардан иборат бўлиб, асосий саҳнада ок кийимда, қилич осган ҳолда таҳтга ўтирган подшо тасвиirlанган. Бу расмлар VI —VII асрларда Бухордаги мукаммал ва катта рассомчилик мактабнинг намуналари бўлган қанотли түя расми Бухоро усталари томонидан кумуш қадаҳда битилган. Бу тасвир ўтмишда Бухороликларнинг туяга эътиқод қилганидан далолат беради. 1979 йилда Бухоро шаҳридаги археологик текширишлар жараённида саполдан ясалган түя ҳайкалчасининг тотгилиши

<sup>2</sup>Зимин Л.А.Отчет о двух поездках по Бухаре с археологической целью. ПТКЛА, год XX , вып. 2, 1917. стр.131

<sup>3</sup>Шишкин В.А. Некоторые итога археологических работ на городище Варахша (1947-1953 гг.) Труды Института истории и археологии Ташкент, Изд-во АН УзССР. 1956, стр.3.

ҳам юқоридаги фикримиз далилидир. Шунга асосланиб, тuya — бухороликларнинг тотеми бўлган деган хulosага келинди. Хитой йилномаларининг гувоҳлик беришича, Бухоро ҳукмдорлигининг тахтида олдиндан ясалган 2 та тuya ҳайкалчасини ёпиштириб қўйган ҳолда тайёрланган экан.

Варахша худудидан хум, кувшин, кўзача, пиёла, тарелка қўринишидаги кўплаб буюумлар ва бир қанча танга топилган. Тангалардан орасида хитой императори Кай –Юан (713-741) даврида зарб қилинган хитой тангаси, сўғд тангаси ва сомоний даври тангалари мавжуд бўлган. Худди шунингдек бир қатор мис буюумлар, терракота ҳайкалчалар ҳам аниқланди.

Шаҳарда олиб борилган учта қатламдаги изланишлар шуни кўрсатадики, шаҳар марказида милодий IV асрдан қурилиш ишлари бошланган. V-VI асрда шаҳарда бир оз ҳаёт тўхтагач, VII-VIII асрда бу ерда янгидан қурилиш давом этганлиги ва аҳоли манзилгоҳлари қурилганлиги аниқланган<sup>4</sup>.

Шаҳарнинг ғарбий қисмида X - XI асрда уйлар қурила бошлайди. Бу уйлар хунарманд, дехқон ва майда савдогарларга тегишли бўлган. Уйнинг деворлари пахсадан, куп хонали бўлиб, марказий девор билан ажратилган. Ҳар бир уйда ташнау (обриз), ошхона, ўчоқ ва тандир излари сақланган. Чиқинди сувлар кетиши учун уйлар тагида қувурлар ётқизилган. Илк ўрта асрларда уйларнинг бу хилда қурилиши шаҳар архитектурасининг ривожидан далолат беради.

Тадқиқотлар жараёнида Варахшадан оловхона ҳам очилиб, қадимги аждодларимизни оташпараслик эътиқодларига оид кўплаб ашёвий далиллар топилди. Бу ердан топилган Бухорхудотлар тангаларида олов расмининг борлиги, мапгхур деворий расмларида муқаддас олов атрофига ўтирган аслзодалар тасвирининг мавжудлиги оташпарастликнинг кенг ёйилганлигини, Варахша бундай эътиқод марказларидан бири эканини кўрсатади.

XII асрдан бошлаб Варахша ва унинг атрофлари яна харобаликка юз тутган. Шаҳар Чингизхон юришигacha яшамаган. Шунинг учун ҳам унинг заволга юз тутиши харбий харакатлар билан боғлиқ эмас. Бунинг сабаби сиёсий воқеалар бўлмай, балки Бухоро воҳасининг шимолий ғарбида Шопурком, Султонобод, Зандана каналлари буйлаб хўжалик жонланиши содир бўлиши оқибатида унинг қуи қисмида, Варахша ва унинг атрофларида дастлаб сув танқислиги кейин қурғокчилик юзага келиб, экин эрлари, дараҳтзор-у боғлар камайиб бориб, хароб бўла бошлаган, бунинг оқибатида чўл бостириб кела бошлаган.

Антик даврда Бухоро воҳаси аҳолиси қадимги диний эътиқодларни давом эттиришган. Яъни аҳоли атрофдаги турли жонсиз ва жонли нарсаларга сифинишни давом эттиради. Аҳолини руҳларга сифиниши давом этганини

---

<sup>4</sup> Нильсен В.А. Варахшская цитадель. Археологические исследования в городе Варахша. Тошкент. 1956. Стр. 96-100.

Бухородаги сағаналарда руларнинг кириб чиқиши учун кичик тешик қолдирилганидан кўришимиз мумкин. Бундан ташқари ахоли ўртасида эзгулик ва ёвузлик хақидаги тушунчани очиб бериш учун бир қанча урунишлар мавжуд бўлган. Масалан, Варахша саройи залларидаги ранг ва тасвиirlар орқали ҳам буни учратишимиз мумкин. Бу ерда дуалистик эътиқод акс этган<sup>5</sup>.

Хулоса ўрнида айтишимиз мумкинки, Варахшада антик даврдан, то XII асргача бўлган даврда тарихий-маданий тараққиётнинг мавжудлиги, бу ердаги тараққиёт ва маданиятнинг ўзига бошқа худудлардан фарқ қилишини унинг қийматини қай даражада эканлигини кўрсатади.

Варахшада олиб борилган археологик тадқиқотлар эса, антик даврда Бухоро воҳасидаги иқтисодий, ижтимоий ва маданий ҳаётни ўрганишда, Бухоро тарихини ёритишда ва Қўйи Зарафшон худудидаги дехқончилик воҳаларини тарихини аниқ равshan ёритишда муҳум аҳамият касб этади.

## XIX-XX АСРЛАРГА ОИД ХИВА ЁФОЧ ЎЙМАКОРЛИГИ САНЬАТИ

*Ислам Юсупов  
Ўзбекистон амалий санъат ва ҳунармандчилик тарихи  
давлат музейи директори,  
Сайёра Исраилова  
Бош муҳофиз,  
Гулчехра Абрарова  
Катта илмий ходим*

### **Аннотация:**

“XIX-XX асрларга оид Хива ёғоч ўймакорлиги санъати” номли мақолада қадимий Хоразм ёғоч ўймакорлиги мактабининг ривожига ўзининг муносиб ҳиссасини қўшган А.Болтаев, О.Польонов, С.Боғбеков ва бошқа усталарнинг маҳорати, ҳаёти ва ижоди ҳақида сўз юритилади. Мазкур мақоланинг мақсади- ёғоч ўймакорлиги санъатининг ажralmas қисмига айланган эшик, дарвоза, устунларга унут бўлиб кетган геометрик ва ислимий нақшлар билан сайқал бериш тарихини ёдга олишдан иборатdir.

**Калит сўзлар:** шарафа, забаррав, улги, каллал (устуннинг тепа безатилган қисми), ўрачи, мадоҳил, олмагул, битав, тирноқ.

### **Annotation:**

This article entitled "Special features woodcarving art of Khorezm of the XIX-XX centuries". The article is devoted about the life and work of the craftsmen A.Boltayev, O.Polvonov, S.Bogbekov who made their personal contribution to the development of the school of woodcarving in ancient Khorezm. The purpose of this article is to recall the history and traditions of carving doors, gates, columns

---

<sup>5</sup> Кароматов X. Ўзбекистонда мозий эътиқодлар тарихи.-Тошкент,2008. Б.32,44,47.

with forgotten geometric and «islimi» patterns that have become an integral part of wood carving.

**Key words:** sharafa, zabarrav, ulgi, kallak, orachi, madohil, olmagul, bitav, nail.

Ўзбекистон меъморчилиги тарихида маҳобатли биноларга асрлар давомида сайқал бериб келаётган муҳташам устунлар, дарвоза ва эшиклар диққат-эътиборни ҳамиша тортиб келган.

Янги-янги саройлар, уй-жойлар, мадраса, масжидлар қурилган, албатта уларни қургандан бинони мустаҳкамлиги, гўзалликни ошириш мақсадида устунлар, дарвозалар, эшиклар ёғочдан ишланган. Уларнинг аксарияти нақшинкор бўлиб, бугунги кунгача кишиларни ҳайратга солиб келмоқда.

Ёғоч ўймакорлиги амалий санъатнинг энг қадимий ва кенг тарқалган турларидан бири бўлиб, унинг ривожланиши узоқ тарихга бориб тақалади. Тарихий манбаларга кўра, Ўзбекистон жанубидаги Оқтом ва Қуйимозордан топилган ҳайвон шохи ва суяқ бўлагига чизиб ишланган тасвиirlар милоддан аввалги II-I минг йилликларга мансуб. Юмaloқтепа қаърида сақланиб қолинган милоднинг V-VI асрларга оид ёғоч ўймакорлиги намуналари ушбу санъатнинг қадимда тараққий этганидан далолат беради. Мовароуннаҳрда ислом дини тарқалгунига қадар ёғоч санамлар ясаш ривож топган. Арабларнинг VIII асрда юртимизга кириб келиши билан безак санъатида кўпроқ геометрик ва ислимий нақшлар кенг ўрин эгаллаб, улар ҳалқнинг маънавий эстетик қарашларини акс эттирувчи воситага айланди. Наршаҳий “Бухоро тарихи” асарида VIII асрда эшиклар ўйма тасвиirlар билан безатилгани ҳақида ўзининг эсдаликларида ёзиб ўтган. Ёғоч ташки муҳит таъсирига анча чидамсизлигидан ёғоч ўймакорлигининг қадимий намуналари сақланмаган. Сақланганларнинг энг қадимиysi IX-XII асрларга мансуб Самарқанддаги Қусам ибн Аббос мақбарасининг бино шарафа-девор билан шифт оралиғига нақшлар билан безатилган, забаррав яъни синчли девор тепасидаги ёғоч тўсин устига қушлар, афсонавий маҳлуқларнинг тасвиirlари безак сифатида ишланган. XIV асрга оид Бухорода Сайфиддин Боҳарзий мақбарасининг тўсинлари, Самарқандда Руҳобод мақбараси, Амир Темур мақбараси эшикларига ишланган улкан маҳорат самарасидир. Ўймакорликнинг янги тараққиёт босқичи XVI-XVII асрларга тўғри келади. Ўша даврда устун, эшик, дарвозага безак бериш билан бир қаторда уй жиҳозларини безаш ҳам кенг тус олди. XVIII-XIX асрларда ёғоч ўймакорлигининг ўзига хос мактаблари ривожланиб, ўзига хос хусусиятлари билан ажralиб турувчи Тошкент, Хива, Кўкон, Фарғона, Бухорода ёғоч ўймакорлиги шаклланиб, бир-биридан жозибадор санъат намуналари юзага келди. Ўзбекистон ҳудудида ёғоч ўймакорлигининг энг кўхна марказларидан бири навқирон Хоразмнинг Хива шаҳри ҳисобланиб, бу ердаги маҳаллий усталарнинг ёғочнинг табиий рангини сақлаб қолган ҳолда чекилган нақшининг майдалиги, бир-бирига зичлиги, заминининг чуқурлиги ҳамда нағислиги билан кишини ҳайратга солади. XIX асрларда Хоразм ёғоч

ўймакорлик санъати юксак чўққига кўтарилигани Хивадаги Тошҳовли айвонлари, хоналардаги устунларнинг каллаги, эшикларнинг безакларидан кўриш мумкин.

Тарихий манбаларга кўра, XIX аср бошларида Кўнғирот сулоласи вакиллари Хива хонлиги тахтига келганидан кейин шаҳарни қайта қуриш ишлари бошланиб, қатор янги иншоотлар барпо қилинди. Хива хонлари ва амалдорлари томонидан қурилган биноларни Хоразмнинг ёғоч ўймакор усталари ўзларининг чиройли, улуғвор устунлари ва бежирим дарвоза ҳамда эшиклари, панжаралари билан безаганлар. Маълумки, Хоразм хонлиги даврида нақошлар – яъни гул чизувчилар эъзозланишган. Улар ёғочга, мармарга, металлга ҳамда ўймакор усталарга нақшлар тайёрлаб беришган. XX аср бошларида ижод этган усталар ўша нақшларнинг ўзини безак санъатининг барча турларида қўллайдилар. Айнан у ёки бу материалнинг хусусиятидан келиб чиқиб, накш элементларига ўзгартириш киритиб, сайқал берганлар. Бу санъат асарларини яратган усталар ўз даврида номлари достон бўлган инсонлар бўлиб, уларнинг ишларини ҳозирда фарзандлари ва шогирдлари давом этмоқдалар. Қадим Хоразмда ҳар бир уста ёғоч ўймакорлигининг маълум бир соҳаси бўйича ижод қилган бўлиб, ўймакор усталар маҳаллий аҳоли шевасида “ўрачи” номи билан машхур бўлганлар. XIX асрда яратилган меъморий иншоотлардаги санъат асарларида машхур ҳалқ устаси кошинпаз нақош Абдулла, Машариф нақош, Момит ўрачи ва ўғиллари Болта ўрачи, Хўжа ўрачи, Абдурахмон уста, Маткарим уста, Ота Полвонов, Боғбек Абдурахмонов каби ҳунармандлар хон ва унинг амалдорлари томонидан қурилган иншоотлардаги дарвоза, эшик ва устунларни моҳирона яратганлар. Улар орасида машхур усталар авлодидан бўлган Боғбек Абдурахмонов, унинг ўғли Сафо Боғбеков, бобоси Абдурахмон Маткаримовлар қўштабақали ўйма дарвоза ва эшиклар ишлаш билан шуғулланганлар, усталардан Мўмин ўрачи ва унинг ўғиллари Болта, Хўжа ўрачилар нақшинкор устунларни ясад ишлаганлар. Хиванинг машхур ҳалқ устаси Ота Полвонов кўпинча ўймакор устун ишлаб, айrim вақтлардагина қўштабақали эшиклар ясаган. Хиванинг Шайхлар қишлоғида яшаган машхур ҳалқ устаси Абдулла жин бир вақтни ўзида тут ва гужум дараҳтидан ўймакор устунлар ва устун тагликлари ясад, кошинпазлик, нақошлик санъати билан шуғулланган. Айнан XIX аср охирига келиб, ўймакор усталар ва нақошлар ўртасидаги ижодий ҳамкорлик натижасида Хоразм ёғоч ўймакорлик санъатининг бетакрор намуналари юзага келган. XIX аср охири – XX аср бошларида ижод қилган нақош, Ўзбекистон ҳалқ рассоми, Хоразм нақошлигининг йирик вакилларидан бири Абдулла Болтаевнинг бизгача етиб келган санъат намуналари диққатга сазовордир. Абдулла Болтаев 1896 йилда Хива шаҳрида бўёқчи, матога гул босувчи оиласида туғилган. Санъатнинг бу турини Хивалик машхур нақош ва кошинкор уста Эшмуҳаммад Худойбердиевдан ўрганган. 1912 йилда Хивада Исломхўжа мадрасаси ва минорасининг қурилишда ва безак бериш ишларида иштирок этган. 1920 йилдан мустақил ишлай бошлаган. Шу билан бирга

Хоразм воҳасидаги атоқли ганч, тош, ёғоч ўймакорлари, наққошларининг энг яхши нақшларини тўплаган ҳолда уларни ижодий ўрганиб, ўзи ҳам нақш намуналарини яратган. А.Болтаев ижодида Хива наққошлигига хос шоҳ поядан иборат таноб, рафтор, барг, гул ва ғунчаларга ўхшаш айланма ислимий нақшлар асосий ўрин эглайди. Кўпгина хоразмлик усталар унинг чизмалари асосида ишлаган.

Хусусан, Хиванинг Иchanқалъя қисмида истиқомат қилган наққош уста Абдулла Болтаев бир вақтнинг ўзида қўштабақали дарвоза, эшик, устунларга “улги” – яъни нусха, намуна, ахталардаги хомаки безак асосида ёғоч буюмга ўйма нақш чекиш билан бирга ислимий ва гириҳ услубида ишлаган. Хоразм ёғоч ўймакорлик мактаби усталари наққошларнинг ахталар ёрдамида тайёрланган мураккаб эшик, устунларни зарбнинг чуқурлиги, нақшлар юзаси ва заминини безашда қўлланиладиган усулларга кўра маҳобатли хандасавий ва ислимий нақшлар билан тўлдириб безаганлар.

А.Болтаевнинг нақш мужассамотлари асосида машҳур ҳалқ устаси Ота Полвонов ва унинг шогирди Сафо Боғбеков билан биргаликда нақшланган устун ва икки табақали эшик 1937 йилда Франциянинг Париж шаҳрида ҳалқаро амалий санъат кўргазмасида намойиш қилиниб, қатор олий мукофотларга сазовор бўлган.

Айтиш жоизки, ушбу Хоразм ёғоч ўймакорлик мактаби бошқа хунармандчилик мактаблари билан ўзаро алоқада бўлиб, уста ўймакорлар ўз ижодларида бошқа вилоятлардаги ранг-баранг нақш чекиш услубларини ҳам қўллаганлар.

Ота Полвонов 1867 йилда Хиванинг Гандимён қишлоғида қурувчи уста Полвон оиласида туғилган. Унинг бобоси Абдусаттор ва унинг отаси Полвон ўзбек амалий санъатининг қурувчилик, ёғоч ўймакорлиги, дурадгорлик, ганчкорлик турларини ривожлантиришга муносиб ўз замонасининг қўли гул усталаридан бири бўлиб танилган. Ота Полвонов 15 ёшларга кирганда бобоси ва отаси билан бирга ишлаб ўймакорлик сирларини ўргана бошлаган. Кейинчалик катта-катта қурилишларда усталарни ёнларида юриб, машҳур уста бўлиб етишган. Хивадаги қўпгина биноларнинг дарвозаси, эшик ва устунларини безашда қатнашган. 1930-1940 йилларда Хивадаги “Умид” артелида ўймакорлик жамоасига бошчилик қилган.

У ёғоч ўймакорлигига жуда кўп нақш турларидан фойдаланиб, бетакрор нақш композицияларини яратган. Уста ўзининг ижодий фаолияти давомида “беш қиррали”, “турунж”, “қўштаноп” нақшларни ва айланма чексиз нақшлар устида иш олиб бориб, уларни ўз жойида қўллай билган. Ўша вақтда уларга Тошкентдан нодир бир устун ишлаш тўғрисида таклиф келган. Устун нақшини уста Абдулла Болтаев тайёрлаб, ўймакорлик ишларини Ота Полвонов моҳирона бажарган. 1943-йилда инженер-қурувчи С.Н.Полупанов Тошкентдаги Алишер Навоий номидаги опера ва балет театрига безак бериш таклифи билан 1947-йилда Абдулла Болтаев, Ота Полвонов ва унинг шогирдлари Дадажон Абдуллаев, Сафо Боғбеков, Хўжа Аҳмад Оллаевлар театрнинг биноси учун эшиклар тайёрлаб, Хива залини

ёғоч ўймакорлиги санъатининг энг яхши намуналари билан безаганлар. А.Болтаев Тошкентдаги Навоий театр биносининг Хива залини безаган усталарга раҳбарлик қилган, шу театр биноси эшиклари, тош деталларидағи нақшлар унинг чизмалари асосида ишланган. XX аср бошларида ёғоч ўймакорлигининг заминини ўйиб ишлаш 1,5 ммдан 30 ммгача бир неча қават бўртма тасвир ҳосил қилинадиган мураккаб ва жозибали услубида безашга эътибор берила бошланди.

Наққош уста томонидан яратилган нақш мужассамотлари ислимий усулда мураккаб ва жозибадор бўлиб, ўймаларнинг чуқурлиги 2 ммдан 30 ммгачадир. 1940 йилларга келиб, А.Болтаев юртимизнинг турли ҳудудлардаги ўймакорлик мактабларнинг етуқ ўймакорларнинг тажриба ва маҳоратларидан фойдаланиб, ўзбек ҳалқ амалий санъатида Хоразм ёғоч ўймакорлигига ўзига хос нақш чекиш услубини намоён қилишга ҳаракат қилди. Хусусан, XX аср боши даврига мансуб “кўзача” шаклидаги пастки қисмидан тепага қараб юксаладиган маҳобатли устунда безатилган тасвир ва нақш безакларга бойлиги билан ажралиб туради. Маълумки, устунлар бадиий талқинда одам гавдасига қиёс этилган. Устунларга иморатга таянч бўлиш вазифасидан ташқари безак сифатида ҳам муҳим аҳамиятга эга бўлган. Устунга ўймакорлик нақшни тушириш усули юртимизнинг бошқа ҳудудларидан кам фарқ қилган ҳамда “ислимий” безаклари асосида ўймакорликнинг нафис элементларини ўз ичига олган. Жимжимадор нақшлар туширилган устунлар азал-азалдан ўзига тўқ шаҳарликларнинг уйларига зеб бериб, хонадон соҳибининг давлатмандлигини намойиш қилиб турган. Ҳозирги кунда Ўзбекистон амалий санъати ва ҳунармандчилиги тарихи давлати музейидан жой олган маҳобатли устунда Хоразм наққошлигига кенг тарқалган “ислимий” услубдаги гажақдор таноблар, гулбарг ва япроқлар шаклидаги безаклар жой эгаллаган.

Ўша даврда дарвоза ва эшикларга ишлов бериш усуллари ҳам бошқа ҳудудлардан фарқли ўлароқ, нақш тушириш ўта майда иш бўлиб, хивалик наққош ва ўймакор ҳунарманд усталардан нихоятда нозик дид ва маҳорат талаб қилган. Хусусан, Ўзбекистон амалий санъат ва ҳунармандчилиги тарихи давлат музейи экспозицияси намойишига қўйилган Ота Палвонов, Абдулла Болтаев Сафо Бағбековларнинг ижодий ҳамкорлиги асосида 1945 йилда яратилган қўштабақали эшикда ўйилган нақшлар зичлиги, бежиримлиги ва бир-бирини такрорламаслиги билан эътиборни тортади.

Уста Сафо Бағбеков ўз даврида шогирдларига “уста нақшларни қандай бўлса шундай ҳолатда буюмга кўчиришдан чекиниб, “мадоҳил”, “олмагул”, “битав”, “арқон”, “тирноқ” ва юздан зиёд нақшларининг майда қисмларигача нозик дид билан ишлов берилади. Шунинг учун Хива наққош усталари ҳеч қачон бир нақшни иккинчи марта такрорламанганлар ва бошқа нусха олмаганлар.” дея йўл-йўриқ кўрсатганлар.

Ҳозирда усталарнинг авлодлари ва шогирдлари устозлар, отабоболарнинг устоз-шогирд анъаналарини давом эттириб, хивалик ёшларга ушбу ҳунарнинг сир-асрорларини ўргатиб келмоқдалар.

**Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:**

1. Булатов С. “Ўзбек халқ амалий безак санъати”. Тошкент, 1991 йил.
2. khivamuseums.uz/uz.yogoch-oymakorlik-sanati.
3. Ўзбекистон ҳунармандчилиги ва амалий санъати. 1 том. Тошкент 2016 йил.
4. Ўзбекистон ҳунармандчилиги ва амалий санъати. 2 том. Тошкент 2016 йил.

## **БУХОРОДА МАТО ТАЙЁРЛАШ ҲУНАРИ**

*Султонова Нигина  
Бухоро давлат музей-қўриқхонаси  
илмий ходими*

**Аннотация:**

Мақолада Бухоро воҳасида тайёрланган матолар ва уларнинг турлари хусусида сўз юритилади. Шу билан бирга мақолада матоларнинг этник тарихидаги маҳаллийлашган анъана, ижтимоий муносабат ва ундаги айrim элементлари таҳлил қилинади.

**Калит сўзлар:** мато, занданачи, француз веллюри, маҳаллий алабахмал, бекасам.

**Аннотация:**

В статье рассматриваются ткани Бухарского оазиса и их виды. В то же время в статье анализируются локальные традиции, социальные установки и некоторые элементы этнической истории тканей.

**Ключевые слова:** ткань, занданачи, французский велюр, местный алабахмал, bekasam.

**Annotation:**

The article discusses the fabrics of the Bukhara oasis and their types. At the same time, the article analyzes local traditions, social attitudes and some elements of the ethnic history of fabrics-materials.

**Keywords:** cloth, zandanachi, french velor, local alabakhmal, bekasam.

Кийимлар тарихига назар ташлар эканмиз, бевосита шу лиbosлар яралиши учун асос бўлган матоларга ҳам юзланамиз. Ҳар бир нарсанинг ўз ибтидоси бўлгани каби матоларнинг ҳам яратилиш тарихи мавжуд бўлиб, у ибтидоий тузум давриданоқ шаклланиш босқичларини бошлаган. Қадимшунослик (археологик) қазилмалари кийим инсоният тараққиётининг энг қадим даврларида (40-25 минг йил илгари) пайдо бўлганини кўрсатади. Инсон танасининг шакли ва яшаш тарзи дастлабки кийимларнинг кўринишини белгилаган. Дастлабки даврлар, яъни ибтидоий тузумда ҳайвон териси ёки ўсимлик новдаларини тўқиши асосида муайян бир шаклга

келтирилиши оқибатида тайёрланган мато инсон танасинининг маълум бир қисмларини беркитишга хизмат қилган.

Инсонлар томонидан яратилган қадимий хунарлардан бири тўқимачиликдир. Унинг тарихи янги тош давридан бошланган. Археологик қазишлар чоғида инсонлар яшаган айrim манзилгоҳлардан қадимий мато парчалари топилган. Дастлаб матолар қўлда тўқилган, кейинчалик тўқимачилик дастгоҳи кашф этилгач, кўпроқ мато тўқиладиган бўлган. Тўқимачилик ҳақида ўрта асрларга оид маълумотлар кенг тарқалган. Археологик манбалардан ташқари тарихчилар ва сайёҳлар ўз асарларида ёзib қолдирганлар, шунингдек ўрта асрларга оид турли хил хужжатларда кўплаб маълумотлар сакланган.

Матолар тарихига бағишлиланган илмий ишларни таҳлил этарканмиз, шуни айтиш жоизки, бир неча минг йиллик тарих билан юзлашган миллий матоларимиз тўғрисида қадимий ёзма меросимиз дурдоналари, деворий миниатюра безакларидан кўпгина маълумотларни ўрганишимиз мумкин. Жумладан, ўзбек халқининг энг қадимий ёзма мероси “Авесто” китобида[1], ўрта асрларда яшаб ижод қилган машҳур туркий тилшунос Махмуд Кошғарий[2], энциклопедист олим Абу Райҳон Беруний[3] ва буюк давлат арбоби Заҳириддин Муҳаммад Бобур[4] асарларида халқимизнинг қадимий кийимлари ва мато турлари ҳақида кимматли маълумотлар оламиз.

Бухоро қадим замонлардан буён ҳунармандчилик ишлаб чиқариш маркази бўлиб келган, у ерда ҳунармандчиликнинг юздан ортиқ тармоқлари бўлган. Манбаларнинг гувоҳлик беришича, X асрдаёқ Бухоро Ўрта Шарқнинг энг йирик тўқимачилик марказларидан бирига айланиб ултурган. Кейинги йилларда Ўзбекистон, Кавказ, Гарбий Европанинг айrim шаҳарларида ўтказилган археологик тадқиқотлар натижасида Бухоро яқинидаги Зандана қишлоғидаги тўқимачилик устахонасида тайёрланган мато намуналари топилди. Бу матолар фанда “занданачи” номи билан маълум. Бухоролик тарихчи Наршахийнинг маълумотига кўра: “Хуросоннинг бирорта шаҳрида бунчалик яхши газламалар тўқий олишмаган. Шуниси ҳайратланарлики, Бухоро тўқимачилари, Хуросонга боришганда ана шу газламаларни ўзлари билан олиб боришган. У ерда тўқимачилик устахоналари очиб, газлама тўқишиган, бироқ кўриниши ва сифати жиҳатдан улар Бухорода тўқилганларидан орқада эди...”. Эътиборли жиҳати бундай матолар Буюк ипак йўлининг йирик шаҳарлари – Бағдод, Хуросон, Миср, Сурия, Византия каби ҳудудларига савдо мақсадида кўп микдорда олиб борилган. Аммо кейинги ўтган бекарор сиёсий вазиятлар туфайли Бухорода бошқа соҳалар қатори ҳунармандчиликнинг бу соҳасига жиддий зиён етади.

Кейинги даврлар ҳақидаги маълумотларни европаликларнинг Марказий Осиёга уюштирган илк экспедицияларидан бошлаб йиғилган материаллардан олишимиз мумкин. Масалан, XII асрда Мўғулистонга сафар қилиш асносида мазкур миңтақада бўлган Марко Полонинг[5] ёзишмаларида Марказий Осиё ҳалқларининг кийим-кечаклари тўғрисида қимматли маълумотларни учратамиз.

Кейинчалик Темурийлар даврида ҳам элчи Руи Гонзалес де Клавихо Марказий Осиёнинг бир қатор шаҳарларида шойи матолар ишлаб чиқарилганлигини қайд этади. XV аср бошида Амир Темур саройига келган Клавихо Самарканда икки йил яшаган ва маҳаллий аҳолининг ўша даврдаги кийимлари билан яқиндан танишиш имконига эга бўлган. Бироқ, у ўз эсталикларида кўпроқ ўша даврнинг аслзода аёллари, яъни Темурий маликаларнинг турли элчилар ва чет эллик меҳмонларни кабул қилиш маросимларида кийган кийимлари тўғрисидагина маълумотлар бериб ўтган [6].

Хонликлар даврига келиб ҳам Бухорода ўзига хос ипакчилик мактаблари фаолият юритган. Шу даврларда Бухорога ташриф буюрган чет эллик савдогарлар, элчилар ва сайёхлар бежизга бухороликларни “Шарқ парижликлари” деб номлашмаган [7]. Аёллар либослари уч қаватдан етти қаватгача бўлиб, энг аввал пахталик ичкўйлак, устидан маҳаллий шойи ёки адрес (ҳисори) ёки фарангি матоларидан тайёрланган кўйлак “курта”, унинг устидан француз веллюри, маҳаллий олабахмал, бекасам матоларидан тайёрланган калтacha – мурсак кийилган.

XVI асрда савдо алоказлари сабабли Марказий Осиёга ташриф буюрган инглиз савдогари Антоний Женкинсон[8] маҳаллий мато турлари ҳақида қизиқарли маълумотларни ёзган. Мажористон (Венгрия)дан ташриф буюрган Армений Вамбери [9] ўзининг ёзишмаларида Бухорода тайёрланган матолар тўғрисида батафсил маълумотлар келтирган.

Ҳар бир худуд тўқимачилиги ўз хусусиятларига эга бўлган. Тўқимачилик сертармоқ соҳа хисобланиб, у нимадан тўқишига ёки нима тўқишига қараб ихтисослашган. Тўкув материали сифатида асосан пахта, ипак ва жундан фойдаланганлар. Булардан ташқари жуда кўп ўсимликлардан (зифир, каноп) ип олинган. Ипакдан тўқилган матолар юқори баҳоланган ва “Буюк Ипак” йўли орқали дунёга тарқалган. Г.А.Агзамова[10] ўзининг асарида XVIII асрнинг 70 йилларида Бухорога ташриф буюрган Ф.Ефремов шаҳарда турли хил газламалар, хусусан ипакка олтин ва кумушдан безак бериб тайёрланган йўл-йўл парча, шунингдек, атлас, баҳмал, олача ва бўз, матолари тўқилганлиги ҳақида маълумот берганини қайд этган. Бу матолар бир-биридан ранги, тўқилиш услуби ва бошқа сифатлари билан фарқ қилган. Биргина бўзнинг 8 хил рангли кўриниши мавжуд бўлган Бухорода “икки хил рангли йўл-йўл ва юпқа олача деб аталувчиип газламалар” кўп тўқилган. Оддий олачанинг нави эса “Зибак” номи билан аталган.

XIX асрнинг бошларида Бухорода фақат растаи читбуруши мавжуд бўлиб, жами 284 дўён[11] фаолият юритган. 1916 йилга келиб 46 йирик ипак тўкув саноат корхоналари ипак ва ярим ипак матоларни ишлаб чиқаришган. XIX асрда ўзбек миллий кийимларини тикишда ишлатиладиган асосий матолар қаторига ип газлама, ипак нимшойи ва жун газламалар кирган. Ип газламаларнинг турлари жуда кўп. Айниқса, оч жигарранг, сариқ тусли бўзлар [12] кенг таркалган бўлиб, улардан барча ёшдаги кишилар учун чопонлар, шунингдек, ички кийимлар, саллалар тикилган.

XIX асрнинг 70-йилларидан бошлаб Бухорода ипак тўқув (шойибофи, адресбофи, алачабофи) ривожланган. Асосан адрес ва ярим ипак матолар ишлаб чиқариларган. Хунармандчилик ипак матоларини ишлаб чиқариш тўқув фабрикалари пайдо бўлгунча давом этган. Бухоро музейида 440 дан ортиқ газламалар рўйхатга олинган бўлиб, улар ичида дастгоҳларда тўқилган намуналар, ўзбек ва тожик аёллари тикишган 600 дан зиёд кашталар [13] мавжуд. Музей фондида сақланиб қолган матоларнинг бой тўплами асосан 1924-1993 йилларда музей ходимларининг илмий-ийғув ишлари натижасида тўпланган. Метр шаклида, кийим-кечак, этнографик ва интеръер буюмлари кўринишидаги матоларнинг намуналаридан иборат. Музейлар матолари коллекциясининг намуналарини хронологик жиҳатдан учта катта даврга бўлиш мумкин:

1. XIX ва XX аср бошлари, дизайндаги ўзига хос характерли хусусиятларга эга бўлган энг қизиқарли намуналар ушбу даврга тегишли. Намуналар мато ва ундан тайёрланган кийимлар билан ифодаланади: болалар, эркаклар, аёллар; ички буюмлар: жойпўш чойшаб, сандал-сурмадастурхон, сўзани панели, кўрпа, матраслар, пардалар, ёстиқ учун такияпўш.

2. XX асрнинг 1920-1960 йиллари, бу даврда артелларда қўлда ишланган матоларнинг намуналари мавжуд. Ушбу даврда матоларни ишлаб чиқариш ва безаш бўйича алоҳида марказлар ўз аҳамиятини йўқотади.

3. 1969-1980 йилларда фабрикалар, тўқув фабрикалари ва фирмаларининг маҳсулотлари устун бўлган, безакларда Фарғона водийси услуги етакчи ўринни эгаллаган.

Ўзбекистон Республикаси Мустақиллигининг 15 йиллига бағишлиб, нашр этилган Н.Содиқованинг китобида Ўрта Осиё жумладан, Бухорода тайёрланган, фойдаланилган ва олиб келинган фабрика матолари ҳақида атрофлича маълумотлар берилган. Шундан келиб чиқиб, Бухорода тўқувчиликнинг асосан икки тури: ҳаммабоп ип газлама тўқувчилиги ва нисбатан қимматроқ ипак тўқувчилиги кўпроқ тараққий этган дейишимиз мумкин. Ип газлама матоларни тўқиши билан асосан, аёллар, ипак ва нимшойи газламаларни тўқиши билан эса эркаклар шуғулланишган.

Юртимизнинг ҳар бир шаҳарлари фақат маълум бир нав ва ранглардаги газламани тўқишига ихтисослашган. Бадиий тўқувчиликнинг маҳаллий мактаблари ҳам мавжуд бўлган. Кўхна шаҳарнинг абрли газламаларида асосан тўқ қизил, сариқ ва пушти ранглардан фойдаланилган.

Бухоро, Самарқанд, Қўқон, Марғилон, Наманган ва бошқа шаҳарларда анъанавий ўзбек ипак (кановуз, шойи, хонатлас), нимшойи (бекасам, банорас, адрес) газламалар тўқилиб, улардан тикилган турфа кийимлар ўзига тўкрок, бой-бадавлат кишилар орасида расм бўлган. Ҳалқнинг кийим-кечакларини тайёрлашда бекасам, банорас, парпаша, адрес, атлас, шойи ва нимшойи матолардан фойдаланилган. Биргина ипакнинг ўзидан эса юқорида санаб ўтилган матолардан ташқари тафта, зарбофт, кимхоб, бахмал, парча сингари матолар ҳам тайёрланган.

XIX асрнинг биринчи ярмида рус фабрика матоларининг Марказий Осиёга кириб келиши натижасида Фабрикада ишланган матолар косиблар кўлидан чиқсан матоларнинг бозорини касод қилди. Бу ҳол ўлка хўжалигининг бозор эҳтиёжлари учун мол ишлаб чиқариш соҳасининг умумий тараққиёти жараёни билан, натурал хўжаликнинг инқирозига сабаб бўлди. XIX аср охири ва XX аср бошида маҳаллий аҳоли орасида ҳам асосан фабрикада тайёрланган ип газламалар: чит, бўз, коленкор, хом сурпдан тикилган кийим-кечакларни кийиш расм бўлган. Бой-бадавлат кишилар эса кимхоб, ипак, атлас, духоба, ранго-ранг мовутларни сотиб ола бошлиганлар. Шунга қарамай, косиблар дастгоҳидан чиқсан маҳаллий газлама: мато, бўз, нимшойи каби газмоллар (адрас, бекасам, подшои, кимхоб, хонатлас, каташойи кабилар)нинг турли хилларига эҳтиёж катта бўлган.

Бухоро асрлар давомида улкан Шарқнинг илму маърифат ва дину эътиқод марказларидан бир сифатида жаҳонга донғи кетган қадимий шаҳардир. У ўтмишда савдо-сотик, маданий алокалар жихатидан Турону Туркистоннинг машҳур Балх, Ҳирот, Марв (Марий), Самарқанд, Термиз, Насаф (Қарши). Чоч, Шош (Тошкент) ва Хоразм (Хива) шахарлари каторидан жой олган. Ўрта асрларда Бухоро Мовароуннаҳрининг йирик савдо-сотик, хунармандчилик ва маъмурий марказларидан бири булган. Унинг миллий маданий урф-одатлари, асрлар давомида шаклланган асосий элементлари ҳақидаги қимматли маълумотларни ўрганиш ва таҳлил қилиш асосий вазифадир.

#### **Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:**

1. Асқар Маҳкам таржимаси “Авесто” Тарихий-адабий ёдгорлик Т.:Шарқ, 2001. –Б.18.
2. Маҳмуд Кошғарий “Девону луготит турк” Т.:Фан 1962 Б-53
3. Абу Райхон Беруний “Қадимги халқлардан қолган ёдгорликлар” Т.: Фан, 1968. –Б.18.
4. Заҳиридин Муҳаммад Бобур. Бобурнома Т.: Юлдузча, 1989
5. Книга Марко Поло - М. Географгиз, 1955. -С 75
6. Руи Гонсалис Де Клавихо. Дневник путешествия в Самарканд ко двору Тимура (1403-1406 гг.) Перевод, предисловие и комментарии И.С. Мирковой. М.: Наука. 1990. С-293
7. Султонова Н., Жўраев Ш. Бухоро миллий кийимлари ва матоларидағи ўзига хослик// XXI асрда илм-фан тараққиётининг ривожланиш истиқболлари ва уларда инновацияларнинг тутган ўрни” мавзусидаги 10-Республика илмий-online конференцияси. -Б-31
8. Джэнкинсон А. Путешествия в Среднюю Азию 1558-1560 гг./Английские путешественники в Московском государстве в XVI веке Л.:ОГИЗ 1932. С-193
9. Вамбери А. Путешествие по Средней Азии (Из Тегерана через Туркменскую пустыню по восточному берегу Каспийского моря в Хиву. Бухару и Самарканд - М., 1867.С-145

- 10.Агзамова Г.А.Сўнгти ўрта асрлар Ўрта Осиё шаҳарларида хунармандчилик ва савдо Т.:Ўзбекистон.2000 й
- 11.Нуруллаева А. Бухарскиешелковые ткани//Из истории культурного наследия Бухары. Бухара 2001г №7 Б-127
- 12.Рахматуллаева Д.,Ходжаева У.,Атаканова Ф. Либос тарихи. Тошкент, 2015.Б-246
- 13.Содикова Н. Ўзбек миллий кийимлари XIX-XX асрлар Т.:Шарқ 2003й Б-20

## **БУХОРО МУЗЕЙИДАГИ МИСР ФАЯНСИДАН ТАЙЁРЛАНГАН АЁЛЛАР ТАҚИНЧОҒИ**

*Шерали Жўраев, Зарина Шарипова  
Бухоро давлат музей-қўриқхонаси илмий ходимлари*

### **Аннотация:**

Мазкур мақолада Бухоро музейида сақланаётган Миср фаянсидан тайёрланган аёллар тақинчоги ҳақида маълумот берилади. Экспонатнинг қаердан топилганлиги, ўрганилиши баён қилинади. Шунингдек, буюмнинг тўлиқ тавсифи ҳам берилади.

**Калит сўзлар:** фаянс, Бухоро музейи, кулон, археология.

### **Annotation:**

In this article information about women's jewellery made of Egyptian faience, stored in the Bukhara Museum. It is written about where the exhibit was found and studied. A full description of the museum item is also given.

**Ключевые слова:** фаянс, Бухарский музей, Кулон, археология.

### **Annotation:**

This article presents information about women's jewellery made of Egyptian faience, stored in the Bukhara Museum. It is written about where the exhibit was found and studied. A full description of the museum item is also given.

**Key words:** porcelain, Bukhara Museum, pendant, archaeology.

Музейлар халқ тарихини ўрганиш, моддий ва маданий меросини асраш, намойиш қилиш, уни илмий ўрганиш ва келажак авлодга етказиш сингари муҳим вазифаларни бажаради. Бугунги кунда дунё бўйича 100 мингдан ортиқ музей борлиги маълум. Уларнинг таркибига ўзининг бой ва катта коллекцияси билан биргаликда Бухоро давлат музей-қўриқхонаси ҳам киради. Музей ўз бағрида 130 мингдан ортиқ осори-атиқани жамлаган маскан бўлиб, унинг коллекцияси археология, ҳужжатлар, нумизматика ва этнография сингари буюмларни ташкил этади.

Аслини олганда музейда сақланаётган буюмлар икки турга бўлинади: ноёб ва типик. Нодир ашёларнинг аксарияти Бухоро музейининг турли филиалларида намойиш этилади. Жумладан, Арк вилоят ўлкашуннослик

музейи, Бухоро тасвирий санъат музейи Нақшбандия тариқати музейи ва бошқалар. Албатта, ноёб буюмлар орасида аёлларнинг тақинчоқлари, безак буюмлари ҳам мавжуд. Бухорода олиб борилган дастлабки археологик қазишмалар натижасида топилган тақинчоқлар даврий чегараси мил. авв. II-I ҳамда милодий I асрлар билан белгиланади. Улар турли маъданлардан тайёрланган. Коллекциянинг қизиқарли буюмлари сирасига фаянсдан тайёрланган аёллар тақинчоқларини мисол тариқасида киритиш мумкин.

Фанга Миср фаянси номи билан кирган атама жаҳон тарихи атамалар луғатида кўпдан бери маълум бўлиб, фаянснинг ушбу тури айнан Мисрда сулолалар ҳукмронлиги бошланмасдан бурун ишлатила бошланган ва бу жараён милоддан аввалги XIV асргача ривожланиш босқичида бўлган. Фаянсдан дастлаб майда ҳайкалчалар ҳамда бошқа митти буюмлар тайёрлашда фойдаланилган. Аслида фаянсдан фойдаланиш Месопотамиядаги пайдо бўлган, аммо у ўзининг равнақи чўқисига Мисрда сазовор бўлганлиги учун ҳам фанга шу ном билан кирган. Фаянс сўзи миср луғатидаги “*tjehenet*” сўзидан таржима қилинганда “чарақлаш”, “ярқираш” маъноларини англатади ҳамда, фаянс мангулик ранги сифатида акс этган. Фаянс сирланган кварц фритталари ёки майдаланган бўлакларидан тайёрланадиган буюм бўлиб, шишасимон гидрооксидли сир (стекловидной щелочной глазурью) билан қопланган. Маълумотларга қараганда, кварц бўлаклари 800-1000°C да қиздирилган ва шу жараёнда бир бирига жипслашган, бу эса унга ишлов беришни осонлаштирган.

Бу маҳсулотдан тайёрланган буюмлар сирасига митти ҳайкалчалар, мунчоқ, тақинчоқлар, қадаҳчалар, деворий безак парчаларини киритиш мумкин. Уларнинг аксарияти мисршунос олимлар томонидан топилиб, ҳозирги вақтда Европа ва дунёning бошқа давлатлари машҳур музейларида сақланиб келмоқда, жумладан, Ўзбекистонда ҳам.

Бухоро давлат музей-қўриқхонаси томонидан янги экспозиция ва кўргазмалар ташкил этилиши анъанага айланиб улгурган. Кўргазма қайта ташкил қилинадиган вақтда унда мавжуд бўлган экспонталарнинг айримлари фондга қайталиб, заҳирахоналарда турган тарихий ва илмий жиҳатдан мос келадиган бошқа бир экспонат намойишга чиқарилади. 2015 йилда “Тарих” илмий бўлимининг “Бухоро воҳасининг қадимги ва ўрта асрлар тарихи” экспозицияси таъмирдан сўнг, музей-қўриқхонанинг “Археология” фондида сақланаётган экспонатлар жиддий ўрганиб чиқилди. [4:16] Шу жараёнда кичик ҳажмдаги антиқ экспонатлар мавжудлиги аён бўлди. Шер ва тошбақа тасвирили аёллар тақинчоғи илмий жиҳатдан ўрганилиши натижасида улар ҳақида қимматли маълумотлар олинди. Қуйида шу маълумотларни биринкетинлик билан бериб бориб, мазкур экспонатларни тавсифлашга ҳаракат қиласиз.

Бу майда ҳажмдаги ноёб топилмалар Бухоро музей-қўриқхонасига фонд илмий ходими Ибрагимов Бахтиёр томонидан тақдим этилган. [3:21] Россия Федерацияси Эрмитаж давлат музейи ходими Г.Л.Семёновнинг илмий ўрганишлари натижасида ушбу ноёб топилма музейнинг асосий

фондига қабул қилинган. Ҳозирги вақтда музей-қўриқхонанинг “Археология” фондидаги ушбу экспонатларга музейнинг инвентарь рақамлари берилиб, улар асосий фонд буюмлари [1:97] ҳисобланади. Маълумот ўрнида, улар 1990 йилда Бухоро воҳаси атрофидаги қўрғонлардан, Конимех туманида кабел ўтказиш ишлари вақтида топилган. [2:53]

Экспонатларни археологик жиҳатдан ўрганган Ўзбекистон Республикаси Фанлар Академияси етакчи илмий ходими Жамол ака Мирзаҳмедовнинг берган маълумотларга қараганда Миср фаянсидан тайёрланган ушбу тақинчоқлар савдо йўллари орқали Бухоро заминига келиб қолган. Ушбу ноёб осори-атиқа илмий-тарихий аҳамиятга эга бўлиб, милодий I-II асрлар билан чегараланади. Бундай буюмларнинг Бухоро заминидан топилиши Бухоронинг қўшни ва чет эл мамлакатлари билан савдо ва маданий алоқалари милодий аср бошларида ёқ ривожланганлигининг яна бир карра тасдиғидир. Археологик топилмалар унчалик катта ҳажмга эга бўлмаганлиги учун уни томошабинларга намойиш этишда лупадан фойдаланилмоқда. Хўш, сўз юритилаётган тақинчоқлар аслида қандай кўринишида?

Фаянсдан тайёрланган ва биз аёллар тақинчоғи дея таърифлаётган музей экспонатлари З та буюмдан иборат бўлиб, шер ва тошбақа кўринишида тайёрланган. Уларнинг ўлчами жуда кичик. Шер тасвириларниң ҳайкалчанинг умумий узунлиги 25 мм, эни 15 ммни ташкил қиласиди. Аммо мана шу кичик



ҳажмда ҳам ғоятда ажойиб санъат асарини ифодалашга ҳаракат қилинган. Шер тасвири Миср эҳромларини қўриқловчи сфинкс кўринишига эга бўлиб, тўғри тўртбурчак шаклдаги плакетка устида икки олд оёқларини олдинга чўзган ҳолатда тасвирланган. Плакетка ўртача қалинликда, бурчаклари қиррали шаклда эмас. Унинг марказидан орқа томонга қараб цилиндрическимон шаклдаги

кувурсимон махсус қисми (пронизка) мавжуд бўлиб, эҳтимол бўйинга тақиб юриладиган кулон вазифасини бажарган. Плакетканинг айрим жойларида кўчган қисмлари мавжуд. Шер танасининг плакеткага ёпишгани жойида бирорта ҳам очиқ жой қолдирилмаган. Шернинг бош қисми тананинг асосий қисмидан кўп ҳам ажратиб тасвирланмаган, олд оёқларини сал кенгроқ очган ҳолатда кўрсатилган. Жоноворнинг олд оёқларидаги панжалар ҳам кичкина деталларигача алоҳида моҳирлик билан тайёрланганлиги кишини ҳайратга солади. Шернинг бош қисми ва томоқ орасида унча ҳам катта бўлиқ жойи қолдирилмаган. Бундан ташқари унинг ёллари чизиқларигача бир-биридан ажратилган ҳолатда ишланган ва ёллари сийрак эмас, балки ён томонларига ҳам тушганлигини кўриш мумкин. Жоноворнинг юз ифодаси ҳам дикқатни

ўзига тортади. Унда асосан пешонасининг торлиги ва пастдан кўзга уланиб кетадиган жойи мавжуд. Кўз ифодаси ҳайкалча-тақинчоқ кичкина бўлганлиги учун аниқ шаклда ишланмаган, аммо ботик ва чукур изчалардан унинг мавжудлигини англаш қийин эмас.

Шернинг алоҳида белгилари жуда кўп, масалан унинг тумшук қисмига эътибор берадиган бўлсак, унда мушуксимонлар оиласига хос бўлган хусусиятни пайқаш мумкин. Тақинчоқни тайёрлаган уста уни алоҳида яққоллик билан тасвирлаган. Юз қисми ён томондан ўзининг ёлларига бориб уланган. Плакетка устидаги шернинг таърифига яна қўшимча равишда шуни айтиш мумкинки, унинг орқа оёклари бир текисда жойлашмаган, яъни ўнг оёғи ён томонига ташланган бўлиб, жониворнинг ўзи чап оёғи устига ётган ҳолатда ишланган. Плакетканинг орқа томонида эса шернинг ўнг томонга ўзининг танасига томон қайрилган думи ҳам тасвирланган.

Тошбақачалар шунчалик даражада моҳирлик билан ишланганки, уларни тайёрлаш жараёнида катта маҳорат талаб этилганлиги яққол сезилиб туради. Улар шернинг ҳажмига қараганда икки карра кичик. Ҳар бирининг ўлчами 10-11 мм атрофида. Жониворлар ўзининг танасидан унча ҳам фарқ қилмайдиган плакетка устига ётқизилган ва худди шернинг тасвирида бўлгани каби уларда ҳам маҳсус цилиндрический тешикчалар (пронизка)лар мавжуд. Юқоридан олинган тасвирларда уларнинг қобиғи Европа рицарларининг қалқонини эслатади. Тошбақанинг косаси юқорига томон кўтарилиган ва ингичкалашиб борган. Устида ҳеч қандай ғадир-будур ёки безаклари йўқ, силлиқланган. Олд томонидан қобиғидан алоҳида тасвирланган жониворнинг боши ва ҳатточи кўз элементлари сезиларли даражада ишланган. Тошбақанинг боши юқорига бироз кўтарилиган. Тумшук остида плакетка мавжуд бўлиб, сал пастроқда, ичкарироқдан қувурча бошланиб кетади. Тошбақаларнинг ён томонида унинг 4 та оёғи тасвирланган. Унинг оёқлари қобиқдан ҳақиқатда чиқиб тургандек таасурот қолдиради, яъни қобиқ тугаган жой ва оёқлар орасида қалпоқчага ўхшаш белги алоҳида қилиб ишланган. Унинг оёқлари даги бурмаликлар ҳам худди шер панжасига ўхшаб алоҳида белгилар билан тасвирлашга ҳаракат қилинган. Тақинчоқларнинг ўртасидаги қувурчалардан ип ёки маржон ўтказиб, уларни бўйинга осадиган тумор ёки қулоққа тақиладиган сирға вазифасини бажарган деган холосага келиш мумкин. шунингдек, ноёб санъат асарининг муаллифи уни тайёрлашда ғоят улкан сабр ва маҳоратли бўлганлигини пайқаш қийин эмас.

Музей экспозициясида намойиш этилаётган бундай экспонатларга қараб, милоднинг илк асрларида ёқ хунармандчиликнинг юқори даражада ривожлангалигини билиш мумкин. Ўз замонида бундай тақинчоқларнинг тайёрланиши ва унинг бошқа шаҳар ва давлатларга келиб қолиши давлатлараро ўзаро маданий ва савдо алоқалари алмашинуви яхши бўлганлигини англалади.

#### **Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:**

1. КП (Книга Приёма и Главная инвентарная книга) № 32936/22, №32937/22
2. Архив Бухарского музея-заповедника.
3. Отчет Бухарского музея-заповедника за 1990 г.
4. Отчет Бухарского музея-заповедника за 2015 г.

## **MAHALLIY MANBALARDA ROSSIYA IMPERIYASINING BUXORO AMIRLIGIGA BOSQINI MASALALARINING YORITILISHI**

*Tilanova Shahnoza Salohiddinovna  
Buxoro Davlat Universiteti magistranti*

### **Annotatsiya:**

Ushbu maqolada Rossiya imperiyasi tomonidan Buxoro amirligiga qarshi harbiy harakatlarning olib borilishi hamda amirlikning Rossiya protektoratiga aylantirilishi masalasi mahalliy manbalar asosida tahlil qilinadi.

**Kalit so'zlar:** imperiya, mustamlakachilik, elchilik, tarixiy manbalar, amir, qo'shin, jang, "Maydayulg'un" mavzesi, protektorat.

### **Аннотация:**

В статье на основе местных источников анализируется проблема военных действий Российской империи против Бухарского эмирата и превращения эмирата в российский протекторат.

**Ключевые слова:** империя, колониализм, посольство, исторические источники, эмир, армия, звон, район «Майдаулгун», протекторат.

### **Annotation:**

The article analyzes the issue of military action by the Russian Empire against the Emirate of Bukhara and the transformation of the emirate into a Russian protectorate on the basis of local sources.

**Key words:** empire, colonialism, embassy, historical sources, emir, army, fight, "Maydayulg'un" district, protectorate.

XIX asrning o'rtalarida jahondagi yirik davlatlar kabi Rossiya imperiyasi o'z mustamlakalariga ega bo'lish uchun O'rta Osiyo xonliklarini egallash uchun harbiy harakatlar olib borayotgan edi. Ma'lumki, Turkiston mintaqasi imperiya uchun Hindistonga chiqishi mumkin bo'lgan strategik jihatdan qulay yo'l, tayyor xomashyo bazasi, hamda o'z mahsulotlarini sotish uchun bozor vazifasini o'tashi mumkin edi. Shuning uchun ham, O'rta Osiyo xonliklarining Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinish xavfi kuchaydi va XIX asr oxirlariga kelib egallandi. Rossiya imperiyasining bosqinchilik yurishlari haqida buxorolik mahalliy tarixchilardan Mirza Abdulazim Somiy, Ahmad Donish, Mirza Olim Mahdum hoji, Mirzo Salimbek, Sayyid Mansur Olimiyalar o'z asarlarida ma'lumot bergenlar.

Ma'lumki, Buxoro amirligida mang'it hukmdorlari ichida o'zining qat'iyatliligi hamda kuchli boshqaruvi siyosati bilan tanilgan Amir Nasrullo (1826-1860) hukmronlik qilgan yillari Turkiston mintaqasida Rossiya-Buyuk Britaniya manfaatlari to'qnashdi. Bu haqida mashhur tarixchi olim Mirza Olim Mahdum hoji "Tarixi Turkiston" (1912) asarida quyidagilarni yozadi: "Amiri Nasrullohxon

*asrida bir tarafdin Rusiya va inglis Movarounnahrga ko'z tikib, bir- birlaridan maxfiycha Buxoro ila munosabat paydo qilmoqg'a qaror bermish edilar. Rusiyalarning ohista- ohista O'rungburg' va Sibiriya taraflaridin harakat qilib kelganini inglizlar bilib, O'rta Aziyadag'i xonlarning ko'zlarini ochmoq va muqobalaga iqtidorlik etmakga qaror bergen edi. Inglizlarning bu niyatları Movarounnahr xalqiga do'stlik va muhabbatdin bo'lmay, Rusyaning Eron va Afg'on hududlariga yaqin kelganligini xohlamaganligidin edi" [6.186].*

Shunday qilib, har ikki imperiyaning turli josluslari sayohatchilar, elchilar, harbiylar, olimlar niqobi ostida Buxoroda tez-tez bo'lib, amirlik hududi, aholisi, harbiy kuchlari, davlat boshqaruvi va mansabdor shaxslar haqidagi ma'lumotlarni to'plashgan. Birgina Rossiya imperiyasi ma'muriyati tomonidan 1870- yilga qadar, ya'ni, XIX asr davomida Buxoroda to'rtta elchilik missiyalarining yuborilganligi haqidagi ma'lumotlarni xorij tadqiqotchisi L.F.Kostenko o'zining "1870- yilda rus missiyasining Buxoroga sayohati" deb nomlangan asarida qayd etib o'tgan. Muallifning yozishicha, bu elchilik ekspeditsiyalari quyidagilar bo'lgan: birinchi 1819- 1820 yillarda (Negri va Meyendorf), ikkinchi 1841- yilda (Butenev, Leman va Xannikov), uchinchi 1859- yilda (Ignatyev) va to'rtinchisi 1865- 1868-yillarda Buxoro amirligida bo'lgan elchilik missiyalari edi [7.6]. O'z navbatida, Buyuk Britaniya ham Buxoro amirligiga o'z vakillarini yuborib, Rossiya imperiyasiga qarshi kurashishda ittifoqchi bo'lishga ko'ndirmoqchi bo'lgan edi. Ammo, o'z davrida Amir Nasrullo ingliz siyosatdonlarining asl maqsadini anglab, qat'iy ravishda rad qilgan edi [8.31].

Shuningdek, o'zining xolisona hamda keskin tanqidiy qarashlari bilan tanilgan mashhur tarixchi olim Ahmad Donish o'zining "Risola yoxud Mang'itlar xonadoni sultanatining qisqacha tarixi" asarida Amir Nasrullo amirlikni boshqargan yillarda ruslar Sirdaryoda qal'a qurbanliklari haqida xabar beradi. Tarixchining yozishicha, saroy amaldorlari amirni ruslarga qarshi chiqishga chorlaganda, amir ularga quyidagicha javob qaytargan ekan: "Rus hukumati juda qudratli, unga faranglar va turklar qarshi tursin. Ularga qarshi chiqish uchun bizda yetarlicha kuch yo'q". Aslida, "Amir Nasrullo tirikligida ruslar Sirdaryodan bu tomonga o'tmadilar, ular Nasrulloni qudratli xon deb bilar edilar", – deya xulosa qiladi muallif [2.38]. Mirza Olim Maxdum hojining ma'lumot berishicha, aynan shu vaqtarda Buxoro- Qo'qon urushlari boshlanadi. Buxorodan Amir Nasrulloxon va Muzaffarxonlar, Qo'qondan Muhammad Alixon va Xudoyorxonlar bir- birlari bilan urushgan vaqtlarida Rossiyaning hukmron doiralari tomonidan Avliyoota, Chimkent hattoki Toshkentgacha egallangan edi [6.186]. Yana ushbu tarixnavis olim Buxoro va Qo'qon o'rtasidagi urushlar Amir Muzaffar hukmronligi davrida ham davom etib, Toshkent va Samarcand Rossiya tomonidan egallanganidan so'nggina tamom bo'ldi, deya qayd etib o'tadi [6.187].

Shuningdek, Buxoro amirligida yashab faoliyat ko'rsatgan yana bir mashhur tarixchi olim Mirza Abdulazim Somiy Bo'stoniy (1839-1908) o'zining "Mang'it sultonlari tarixi yoki Buxoro xonligining inqirozi" nomli asarida amirlik siyosiy hayotini keng yoritib, Rossiya imperiyasining O'rta Osiyo xonliklariga hujumi,

hamda Amir Muzaffar (1860-1885) hukmronlik qilgan yillarda rus- buxoro urushi haqida yetarlicha ma'lumotlar berib o'tadi. Muarrix asarda nasroniy askarlar Toshkentga hujum qilgan davrda, Amir Muzaffarning Qo'qon xonligiga yurishlar qilganligini qattiq qoralaydi. Chunki, Amir Muzaffarning Toshkentga madad qo'lini cho'zish o'rniqa, Qo'qon xonligiga yurish qilishi toshkentliklar bilan bir safda jang qilayotgan qo'qonlik askarlarning ruhini tushiradi. Shu sababli ham, Qo'qon lashkarlari Buxoro hujumidan dahshatga tushib va o'z oila-xonadonlarini himoya etishni o'ylab, Toshkentni o'z holiga tashlab ketishadi. Ushbu holat nasroniyalar qo'shini uchun qo'l kelib, Amir Muzaffar Qo'qonning Konibodom mavzeyiga yetib borgan vaqtida, Turkistonning tayanch nuqtasi bo'lgan Toshkent fath etiladi va mintaqaning boshqa hududlarini egallashi uchun yo'l ochiladi [1.133].

Endilikda, imperiya hukumati tomonidan, Buxoro amirligini istilo etilishi masalasiga to'xtaladigan bo'lsak, ushbu mustamlakachi davlat Buxoro amirligiga qarshi harbiy harakatlarni ikki harbiy mavsumda: 1866 va 1868- yillarda olib boradi. 1866- yilda olib borilgan istilochilik bosqinlari oqibatida amirlikning O'ratega, Jizzax va Yangiqo'rg'on singari hududlari Rossiya imperiyasi tarkibiga kiritiladi. Ikkinci harbiy mavsumda – 1868-yilda esa Samarqandda jang harakatlari olib borilib, Zirabuloqdagi harbiy harakatlar amirlik taqdirini uzil- kesil hal qiladi.

Ma'lumki, Amir Muzaffarxonning amirlikni boshqargan yillari Rossiya imperiyasining O'rta Osiyo xonliklariga qarshi harbiy harakatlari kuchaygan davrga to'g'ri keladi. Rossiya bilan bo'lgan kelishmovchiliklarni tinch yo'l bilan bartaraf etishdan umidini uzmay, Najmiddinxo'ja Mirasad (Sayyid Mansur Olimiyning yozishicha, Xo'ja Nizomiddin) boshliq elchilarini 1865-yilda Peterburgga jo'natadi [9.43]. Amir elchilar orqali general Chernyayevning tajovuz qilganidan shikoyat qilib, rus podshohidan o'z qo'shinlarini mintaqadan olib chiqib ketishini talab qiladi. Biroq rus hukumati Buxoro elchilarini qamoqqa tashlaydi. Natijada, Amir Muzaffar ham shunday yo'l tutib, o'z mulkida yashaydigan ruslarni garovga oladi. Ikkinci marotaba, Buxoro amirligiga Rossiya davlati hukumati a'zosi general Chernyayev tomonidan yuborilgan elchilarini rasmiy elchilar emasligini aytib, rasmiy kutib olish amalga oshirilmaydi va bu elchilar ham hibsda saqlanadi [3.52]. Xorij tadqiqotchisi L.F.Kostenko ham yuqoridagi ma'lumotlarni o'z asarida qayd etib o'tadi [7.6]. Ushbu voqeя Rossiya imperiyasining Buxoro amirligiga qarshi urush harakatlarini boshlashiga bahona bo'ladi.

Amir Muzaffar Rossiya imperiyasining qo'shinlari shunday yonginasida kelib qolgan bo'lsa ham, urushga yetarlicha tayyorgarlik ko'rmagan edi. Faqat Mirza Abdulazim Somiyning qayd etishicha, Buxoroda Eshon Baqoxo'ja Sadr boshchiligidagi ulamolarning bosh ko'tarishi, Amir Muzaffarni imperiyaga qarshi yurish qilishga majbur qiladi [1.134]. Ushbu ma'lumotni Ahmad Donish ham o'z asarida qayd etib o'tadi [2.41]. Ana shunday sharoitda, jang taqdirini hal qilishda asosiy rolni bajaruvchi qo'shin urushga jangovar holatda shay qilib tayyorlab qo'yilmagan edi. Qo'shin tuzilishi, qurol- yarog' masalasi isloh qilishga muhtoj

edi. Dushmanga qarshi kurashish uchun puxta ishlangan yagona reja ham mavjud emas edi. Harbiy qo'mondonlik vazifalariga esa, harbiy ishdan mutlaqo bexabar kishilar tayinlangan edi [2.40]. Qo'shin raqib haqida aniq tasavvurga, ma'lumotga ega bo'limgan holda yurishga otlanadi. Sayyid Mansur Olimiyning ma'lumotiga ko'ra, 1866-yil fevral oyida Buxoro sarhadlarida ruslar va amirlik qo'shirlari o'rtasida jang harakatlari boshlanadi [3.52]. Bu jangda ruslar mag'lubiyatga uchraydi. Amir Muzaffar qo'shirlari hujumga o'tib, 1866-yil 5-aprelda Chinozni ruslar qo'lidan ozod qilishadi. Podsho ma'muriyati esa, M.Chernyayevning ishlaridan qoniqmay, unga jazo berib, vazifasidan olib tashlaydi va o'rniga general Romanovskiyi tayinlaydi [9.43]. Shundan so'ng, Amir Muzaffar qo'shirlari bilan general Romanovskiy harbiy kuchlari o'rtasidagi dastlabki jiddiy to'qnashuv Jizzax bilan O'ratega o'rtasidagi Erjar (Maydayulg'un) mavzesida 1866-yil 8-mayda bo'lib, bu jangda Buxoro askarlari mag'lubiyatga uchraydi. Mirza Abdulazim Somiy "Maydayulg'un" mavzesidagi jangda bevosita voqeana vis bo'lib ishtirok etgan bo'lib, jang tafsilotlarini asarda quyidagicha keltiradi: "*U (Amir Muzaffar) panjshanba kuni jihod yo'lida oyog'ini jihod uzangisiga qo'yib, ko'p sonli lashkari ham behisob g'oziyalar ila Buxoroi sharifdan qo'zg'alib, yo'lga tushdi. U butun qurol-yarog'lari-yu, shon-shavkatini ko'z-ko'z qilib, (uzoq) yo'l bosib, o'z tasarrufidagi O'rategaga yetdi. Sayhun daryosi qirg'ogida o'rinlashmish va bir keng sahrodan iborat bo'l mish Maydayulg'un mavzeida to'xtab o'rdu yasadi.*

*Jiniral (General) Kaufman bu voqea xabarini eshitib, dushman haqida ma'lumot olish maqsadida Cheryayev-to'ra qo'mondonligi ostida bir dasta o'ris qo'shinini safarbar qildi. Nasroniy qo'shining ilg'or dastasi g'oziyalar ko'ziga ko'ringach, bular (dahshatdan) ranglari o'chib, bir zum o'ylashib qoldilar. Miltiqlardan otilgan o'qlarning kuchligina shovqini hali qulqolariga chalinarchalinmas, (buxoroliklar) to'plar suroni ta'sirida xayol uyqusidan uyg'onib, qochmoqni mo'ljallab qoldilar...*" [1.134]. Muallif Maydayulg'un voqeasi haqida shundan boshqa ma'lumotlarni keltirmaydi. Bizningcha, muallif amirning jangdagi dushman oldidagi jur'atsizligi va qo'rqoqligidan, hamda qo'shining layoqatsizligidan andisha qilgan bo'lishi mumkin. Tarixchining "Maydayulg'un" mavzesidagi jang haqida keltirgan ma'lumotlaridan davlatning harbiy islohotlarga muhtojligini anglash mumkin. Chunonchi, bu davrga kelib, Amir Nasrullo boshlab qo'yan harbiy islohotlar ham to'xtab qolgan edi. Yana, muallif bu jangda general Kaufman hamda Cheryayevning nomlarini yanglish tilga oladi. Aslida, rus askarlariga general Romanovskiy boshchilik qilgan edi. Chunki, bu davrga kelib, podsho ma'muriyati tomonidan M. Chernyayev jazolanib, hayfsan berilgan edi. General K.P.Kaufman esa, 1867-yilda Turkistonning birinchi general-gubernatori etib tayinlangan edi.

Shuningdek, tarixchi olim Ahmad Donish Rossiya imperiyasining Buxoro amirligiga qarshi qaratilgan janglarida, Amir Muzaffarning o'zini tutishini, harbiy faoliyatini keskin tanqid ostiga olgan bo'lsa-da, Jizzax mudofaasi uchun ko'rsatgan harbiy tadbirlari haqida ham ma'lumot berishni unutmaydi. Uning yozishicha,

Amir Muzaffar ruslar Toshkentni egallaganidan so'ng, Buxoro sarhadiga o'tishda Samarqandga kirish darvozasi bo'lgan Jizzaxni himoya qilish zarurligini anglab, bu borada yuz ming tanga sarflaydi va mudofaa devorlarini qurdiradi. Ruslarning olg'a yurishiga to'sqinlik qilish uchun ko'p sonli ilg'or guruhni qal'aga garnizon sifatida yuboradi [2.40]. Sayyid Mansur Olimiy o'zining "Buxoro - Turkiston beshigi" asarida qayd etishicha, Amir Muzaffar qo'shini tarkibida 5000 mang'it lashkari, 30 ming qirg'iz, 10 ming turkman va 20 ta to'p bo'lgani holda dushmanga qarshi yurishga otlanadi. Shunday bo'lsa ham, ko'p hollarda Amir Muzaffar qo'shinlari janglarda g'alabaga erisholmaydi. Jumladan, 1866-yil 20-mayda Xo'jandning shimoliy- g'arbiy qismida raqib bilan jang bo'lib o'tganda, amir qo'shinlari zamonaviy qurollangan rus armiyasi zarbalariga dosh bera olmaydi [3.53]. Strategik jihatdan qulay joylashgan O'ratega va Chiroqchi ham 1866- yil oktabr oylarida ruslar tomonidan ishg'ol qilinadi [3.54].

Mirza Abdulazim Somiy buxoroliklarning Jizzaxdagi jang tafsilotlarini to'liq yoritadi. Uning yozishicha, Amir Muzaffar Jizzaxda ekanligida mang'itlardan Olloyor devonbegini hokimlikka tayinlab, Jizzaxdagi eski qo'rg'on atrofida yana bir devor qurib, uni mustahkamlab, shu yerda amirlashkarlar boshchiligidida o'rda tarzida katta bir lashkar qoldirishni buyurdiki, go'yo bu tadbir bilan nasroniylar qo'shini yo'lida katta bir to'siq barpo qilganday edi... [1.135]. Tarixchining yozishicha, ikki yuz nafar lashkari bilan Jizzaxni mudofaa qilishda ishtirok etayotgan afg'on hukmdorlarining avlodidan bo'lgan afg'on generali Iskandarxonga (u ham shu davlatdan panoh topgan edi) bu ma'qul kelmay, davlat amaldorlariga qal'aning kirish- chiqish yo'llarini berkitishdan ko'ra, mudofaa choralarini kuchaytirishni, mabodo jang vaqtida yengilgan taqdirda ham, qo'shin uchun yagona najot yo'li shu ekanligini, lashkarlar boshqa vaqtarda ham asqotishi mumkinligi to'g'risida maslahat beradi. Ammo, kalondimog' amirlar uni o'zlariga yot sanab, nasihatomuz gaplarini mensimay, mudhish xatolikka yo'l qo'yadilar. Jang natijasi ma'lum edi. Rus lashkarlari tomonidan qal'a yondirib yuborilganda, juda ham ko'plab begunoh insonlar, shuningdek, Olloyor-devonbegi mang'it, Odil-dodho xitoy, Abdusattor-inoq Husanbiy, Juyonxoja to'qsabo, general Iskandarxon va boshqa talay amirlashkarlar ham vafot etadilar. Ushbu voqealar amirni chora-tadbirlar ko'rishga undaydi. Jizzax voqealaridan so'ng, Samarqanddan chiqib, Karmanaga kelib, shu yerda muqim turib qoladi. G'uzor hokimi Abdumalik to'rani, Hisori Shodmon hokimi Rahmonqul parvonachini, talay qal'a lashkarlarini, qo'ng'irot lashkarining qolgan-qutganini, Miyonqol lashkarini, Buxoro navkarlarini, boshqa viloyatlardagi g'oziyarlarni Samarqandda qoldiradi va shuningdek, G'ishtko'prikni ham mustahkamlab, bu yerda ruslar yo'lini to'sish maqsadida qo'shin qoldiradi [1.135]. Xullas, 1866-yillarda amirlik va rus qo'shinlari o'rtasida bo'lib o'tgan janglar Rossiya imperiyasi foydasiga hal bo'ladi. Ruslar tomonidan Xo'jand, O'ratega, Jizzax va Chiroqchi hududlari ishg'ol qilinadi. O'sha yili Qo'qon xonligi ham Buxoro amirligi ta'siridan chiqib, Rossiya imperiyasiga tobe bo'lib qoladi.

Ana shunday sharoitda Amir Muzaffarxon mufti Muhammad Porso boshchiligidagi elchilarni Afg'oniston va Hindiston orqali yordam so'rab, Istanbulga yuboradi va rad javobini oladi [9.43].

Rossiya imperiyasining hukmron doiralari Jizzaxni egallab bo'lganlaridan so'ng, Buxoro amirligidagi ikkinchi muhim markaz - Samarqand shahrini egallahsga asosiy e'tiborni qaratishadi. Mahalliy manbalarning guvohlik berishicha, bu davrda Samarqandda Sherali inoq hokim bo'lib turgan edi. Samarqand aholisi Sherali inoqning zulmlaridan charchagan edi. Ular amirga xat yozib, uning o'rniga boshqa hukmdor tayinlansa, nasroniylargacha bir qoshiq qonlari qolguncha, kurashishlarini ma'lum qiladilar. Ammo, Amir Muzaffar ularning iltimoslarini inobatga olmaydi. Samarqand ahlining obro'li kishilari amirga arz qilganligi uchun Sherli inoq tomonidan Tillakori madrasasida jazolangan bo'lsada, hech qanday chora ko'rmaydi. Sherli inoq huzurida yordam tariqasida qoldirilgan o'g'li Abdumalik to'rani ham inoqning ig'vosi bilan G'uzorga surgun qilib yuborib, o'ziga muxolif bo'lib qolishiga sababchi bo'ladi [1.136]. Xullas, mamlakat ichida ichki birlikning bo'limganligi, Rossiya imperiyasining hukmron doiralariga qo'l kelgan edi. Tarixiy manbalaridagi ma'lumotlar shuni tasdiqlaydiki, rus qo'shnulari tomonidan 1868-yilda Samarqandning Cho'ponota, Kattaqo'rg'on kabi hududlarida harbiy yurishlar tashkillashtirilib, egallanadi. Mirza Abdulazim Somiy Cho'ponotada bo'lib o'tgan jangda, Hoji Rumiy va uning to'rt ming sarbozları hamda islam dinini qabul qilib, amir qo'shnida oliy martabaga erishgan Usmon Nasroniyning dushman bilan mardlarcha olishganligini, ammo ko'pchilik lashkarlar jang maydonini tashlab qochganlaridan so'ng, ilojsizlikdan chekinganlarini yozib o'tadi [1.138].

Tarixiy manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, Buxoro amirligining taqdirini hal qilgan Zirabuloq jangi 1868-yil 2-3 iyunda bo'lib o'tadi. Zirabuloq jangining borishi xususida amirlikda turli davlat lavozimlarida faoliyat yuritgan Mirzo Salimbekning "Kashkuli Salimi. Tavorxi muttaqadimin va muttaaxirin" asaridan quyidagilarni o'qiymiz: "*Rus qo'shnulari Jizzaxni olib, boshqa yili Samarqandga kelib, uni muxosara qilib, Sherli inoq jangda shahid bo'lib, u yerdan rus qo'shnulari Kattaqo'rg'on, Panshanbani olib, Zirabuloqqa yetib keladi. Buxoro lashkari Zirabuloqqa ruslarga qarshi qattiq janglar olib bordilar. Ikki tomondan ham ko'p kishilar shahid bo'ldilar...*" [4.302].

Mirza Salimbekning yana bir tarixiy asari "Tarixi Salimi" dagi ma'lumotlar orqali Zirabuloq jangidagi amir qo'shnlarining mag'lubiyatga olib kelgan omillardan biri anglashiladi. Asarda keltirilishicha, Cho'ponotadagi jangda jasorat namunalarini ko'rsatgan Hoji Rumiy (mazkur asarda Hoji To'qqir deb ko'rsatiladi) bu jangda ham raqib bilan shiddatli olishadi, ya'ni rus qo'shnlariga chap tarafдан hujum qilib, ularni tang ahvolga solib qo'yadi. Rus qo'shnulari yengilay deganda, ayni hal qiluvchi daqiqalarda lashkarboshi Usmon to'qsabo xiyonat qilib, chekinish karnayini chalib, o'z lashkarini orqaga qaytaradi [5.39].

Xullas, Zirabuloq jangida dushman qo'shnulari to'la g'alaba qozonadi. Bu orada ruslarga qarshi Samarqand qo'zg'oloni (1868-yil 8-iyun) boshlanib, unga

Amir Muzaffarning to'ng'ich o'g'li, G'uzor hokimi valiahd Abdumalik to'ra (1848-1909) hamda Shahrисabz va Kitob beklari Bobobek va Jo'rabek rahbarlik qilishadi. Sayyid Mansur Olimiyning yozishicha, Samarqand qo'zg'oloni 6 kun davom etadi [3.56]. Samarqand qo'zg'oloni bostirilgach, rus askarlari shaharda qirg'in o'tkazib, ko'z ko'rib, qulqoq eshitmagan yovuzliklarni amalga oshirishadi. Ammo, Samarqand qo'zg'oloni tarixda muhim rol o'ynagan. Sadreddin Ayniyning fikricha, Abdumalik to'raning harakati va qo'zg'olonchilarining harakati tufayli Turkiston o'lkasi general-gubernatori K.P.Kaufman Buxoro shahriga hujum qilishdan voz kechadi va sulh tuzishga majbur bo'ladi [9.44].

Shunday qilib, Sayyid Mansur Olimiyning ma'lumotiga ko'ra, 1868-yilda (23-iyunda) Buxoro amiri bilan Rossiya imperiyasi vakili o'rtasida 12 moddadan iborat bo'lgan Zirabuloq shartnomasi imzolanadi. Unga ko'ra, Buxoro amirligi Rossiya imperiyasiga 150 ming rubl miqdorida kontributsiya (tovon) to'lashi belgilab qo'yiladi. Shartnomaning qolgan moddalariga binoan, Buxoro amirligi Rossiya imperianing yarim mustamlakasiga aylantiriladi [3.57]. Zirabuloqqacha bo'lgan hududlar imperiya qo'l ostiga o'tadi.

Xulosa shuki, mang'itlar tarixiga bag'ishlangan mahalliy manbalarda Rossiya imperiyasi tomonidan O'rta Osiyo xonliklarida bo'lib o'tgan harbiy yurishlar, xususan, Buxoro amirligida olib borilgan jang tafsilotlari chalkash yoritilgan. Shunday bo'lsa ham, barcha mahalliy manbalardagi ma'lumotlar imperiya tomonidan Buxoro amirligining egallanib, protektoratga aylantirilganligini tasdiqlaydi. Manbalarda mamlakatning mag'lubiyatiga uchrashiga asosiy sabab qilib, Amir Muzaffar shaxsiyatidagi xudbinlik, boshqalar fikrini nazar- pisand qilmaslik, o'ziga nisbattan haddan tashqari ishonch, harbiy sohadagi layoqatsizlik, boshqaruv ilmini tushunmaslik kabilar ko'rsatiladi. Xullas, Amir Muzaffar boshqaruvi davrida, amirning boshqaruv uslubining eskirganligi, mamlakat rivoji uchun kerakli tadbirlarning o'tkazilmaganligi, qo'shin tuzilishi va ta'minotiga oid qonun- qoidalarning yo'qligi, dushmanga qarshi kurashda puxta ishlangan yagona rejaning bo'limganligi, mintaqada ichki birlikning bo'limganligi, hamda tashqi dunyodan uzilib qolganlik kabi omillar tufayli Rossiya imperiyasi tomonidan Buxoro amirligi egallandi. Bu esa, o'z navbatida Buxoro amirligining o'z mustaqilligining yo'qotishiga va o'zga bir davlatga siyosiy jihatdan qaram bo'lib qolishiga olib keldi. Imperiya tomonidan olib borilgan urushlar natijasida, ko'plab begunoh insonlar halok bo'ldi, tarixiy shaharlarga shikast yetkazildi. Shuningdek, ijtimoiy- iqtisodiy hamda siyosiy sohada Amir Muzaffar rus ma'muriyatining ruxsatisiz, mustaqil qarorlar qabul qila olmaydigan bo'ldi. Bu holat undan keyingi amirlar faoliyatida ham o'z aksini topdi.

#### **Foydalaniłgan adabiyotlar ro'yhati:**

1. Mirza Abdulazim Somiy. Mang'it sultonlari tarixi yoki Buxoro xonligining inqirozi. Fors-tojik tilidan I. Sultonov tarjimasi // "Sharq yulduzi", 1993. №3-4. –B. 132-138.

2. Ahmad Donish. Risola yoxud Mang'itlar xonadoni sultanatining qisqacha tarixi. Tarjima, izohlar va kirish so'zi muallifi Q.Yo'ldoshev. -Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi", 2014. –B.38-41.
3. Sayyid Mansur Olimiy. Buxoro- Turkiston beshigi. Fors tilidan tarjima, tarjimon nomidan so'zboshi va ayrim izohlar bilan H. To'rayev. "Buxoro", 2004. –B.52-57.
4. Mirzo Salimbek. Kashkuli Salimi. Tavorixi muttaqadimin va mutaaxirin. Fors- tojik tilidan N. Yo'ldoshev tarjimasi. – Buxoro: "Buxoro", 2003. –B. 302.
5. Мирза Салимбек. Тарихи Салими. (источник по истории Бухарского эмирата) –Ташкент: «Академия». 2009. - Стр.39.
6. Mirza Olim Maxdum hoji.Tarixi Turkiston. Arab yozuvidan Sh. Vohidov va R. Xoliqova tabdil etgan. –Toshkent: "Yangi asr avlodi", 2008. –B.186- 189.
7. Л.Ф.Костенко. Путешествие въ Бухару русской миссии в 1870 год. -С.- Петербургъ. Типография А. Моригеровскаго Тровцкий переулокъ домъ Гессе 1871. –Стр.6.
8. Rajabov Q. Nasrullohxon (risola) / -Toshkent: "ABU MATBUOT-KONSALT" nashriyoti, 2011. –B.6.
9. Rajabov Q. Amir Muzaffar shaxsiyati yoxud Buxoroning fojiasi // Buxoro mavjlari, 2007. №1. –B.42-44.

## BUYUK PYOTR I ARMONLARI

*Azizbek KARIMOV,  
NamDU, Tarix yo'nalishi talabasi*

### **Annotatsiya:**

Ushbu maqolada Rossiya imperiyasining buyuk imperatori Pyotr I ning armonlari, xususan, Rossiya – Turkiya urushidagi Rossianing qaqshatqich mag'lubiyati, knyaz Bekovich-Cherkasskiy boshchiligidida Xiva xonligiga yuborilgan ekspedisiya va uning fojeali taqdiri xaqida ma'lumotlar berilgan.

**Kalit so'zlar:** Pyotr I, Rossiya imperiyasi, Shimoliy urush, Rossiya – Turkiya urushi,mag'lubiyat, Prut tinchlik shartnomasi, Ashtarkxon, Bekovich-Cherkasskiy, Yangisuv, Sherg'ozixon.

### **Аннотация:**

В статье представлена информация о чаяниях великого императора Российской Империи Петра I, в частности, о трагическом поражении России в русско-турецкой войне, походе в Хивинское ханство во главе с князем Бековичем-Черкасским и его трагической судьбе.

**Ключевые слова:** Петр I, Российская Империя, Северная война, Русско-турецкая война, Поражение, Прутский мирный договор, Аштархан, Бекович-Черкасский, Янгисув, Шергазихан.

### **Annotation:**

This article provides information about the aspirations of the great emperor of the Russian Empire Peter I, in particular, the tragic defeat of Russia in the Russo-Turkish war, the expedition to the Khiva khanate led by Prince Bekovich-Cherkassky and its tragic fate.

**Keywords:** Peter I, Russian Empire, Northern War, Russia-Turkey War, Defeat, Prut Peace Treaty, Ashtarkhan, Bekovich-Cherkassky, Yangisuv, Shergozikhan.

Tarixda mashhurlik va shon-u sharafga erishgan hukmdorlar ko'p bo'lgan. Ular o'zlarining amalga oshirgan ishlari bilan tarix zarvaraqlaridan munosib o'rinnegallaganlar. Masalan, Aleksandr Makedonskiy, Yuliy Sezar, Oktavian Avgust, Chingizzon, Amir Temur, Napoleon Bonapart va boshqalar. Ularning har biri bilan o'z xalqlari faxrlanadilar. Ular o'zlarining hukmronlik davrlarida ulkan muvaffaqiyat hamda zafarlarga erishganlar, jahon tarixida muhim iz qoldirganlar.

Jahon tarixida shunday hukmdorlar ham borki, ular o'zlarining ba'zi bir muvaffaqiyatsizliklarini hayotlarining so'nggi daqiqasigacha unuta olmaganlar va bu hayotni armon bilan tark etganlar. Shunday hukmdorlardan biri Rossiyaning buyuk imperatori Pyotr I (1672-1725) edi. Pyotr I 1672-yilda Moskvada tavallud topgan. U Rossiya imperiyasining birinchi imperatori hisoblanadi. Pyotr I davlatni rivojlantirish maqsadida ko'plab islohotlarni amalga oshirgan hamda yurishlarga boshchilik qilgan. Pyotr I ning Turkiyaga qarshi yurish davomida Prut jangidagi daxshatli mag'lubiyati uning birinchi armoni edi [1].

1710-yil 20-noyabr kuni Usmonli turklar imperiyasi Rossiyaga urush e'lon qildi. Urushning asl sabablari Shimoliy urush davrida Rossiyaning kuchayib ketishi hamda Azov dengizida rus flotining paydo bo'lishi edi. Turkiya bilan urush boshlanishi Rossiya imperiyasining ahvolini keskinlashtirdi, chunki Shvetsiya bilan urush hali ham davom etayotgan edi. Prut yurishi uchun Pyotr I armiyani Kiyev orqali Pol'sha davlati hududiga o'tkazdi. Rus qo'shinlarining qo'mondoni etib Boris Sheremetov tayinlandi. Usmonlilar imperiyasidan mustaqillikka erishishga umid qilgan Moldaviya hamda Valaxiya knyazliklari Rossiyani qo'llab-quvvatlay boshladи. 1711-yil 1-iyul kuni ruslar va turklar o'rtasida to'qnashuv bo'lib o'tadi. 3,6,7,11,12,14,17,18-iyul kunlari ular o'rtasida yana qator janglar bo'ladi. Biroq bu janglar ikki tomon uchun ham tarixiy g'alabani olib kelmaydi. 1711-yil 19-iyul kuni Yas shahri (hozirgi Ruminiya hududida) yaqinidagi jangdan so'ng rus qo'shinlari og'ir ahvolga tushib qoladi. 20-iyul kuni Pyotr I ga yuborilgan maktubda qo'shinda 6692 ta kavaleriya qolgani ma'lum bo'ladi. Bunday holatda qo'shinni jangga yuborish rus armiyasining muqarrar halokatga olib kelar edi. Buni tushunib yetgan Pyotr I 23-iyul kuni o'sha davrdagi Usmonli turklar tashqi ishlari vaziri Mehmed poshshoga maktub yo'llaydi va Rossiya tinchlik shartnomasi imzolamoqchi ekanligini bayon qiladi. 1711-yil 23-iyul kuni Rossiya va Turkiya o'rtasida tarixiy Prut tinchlik shartnomasi imzolanadi. Shartnomaga ko'ra Rossiya Azov qal'asini usmonli turklarga topshirdi. Bundan tashqari Pol'sha hamda kazaklar ishlariga siyosiy va harbiy jihatdan

aralashmaydigan bo'ldi. Prut shartnomasi Rossiya uchun ulkan yo'qotishlarga olib keldi hamda bu mag'lubiyat Pyotr I uchun armonga aylanib qoldi [2].

Pyotr I davrida O'rta Osiyo xonliklariga ham qiziqish kuchayotgan edi. 1713-yilda Ashtaxonga kelgan mang'ishloqlik savdogar Xo'ja Nafas knyaz Mixail Samonov bilan uchrashadi. Samonov uni Sankt-Peterburgga taklif etadi. Aynan shu shaharda savdogar Xo'ja Nafas cho'qintirilganmusulmon – knyaz Bekovich-Cherkasskiy (asl ismi Iskandar bo'lgan) bilan tanishadi. Savdogar unga Amudaryo oltinlari haqida so'zlab beradi [3]. O'z navbatida knyaz bu haqida imperator Pyotr I ga aytib beradi. Xo'ja Nafasning gapini Matvey Gagarin ham tasdiqlaydi va Yorkent shahri yaqinida Sirdaryo sohilidan olib kelingan oltin namunalarini ko'rsatadi. Buning natijasida Pyotr I Xiva xonligiga qarshi ekspeditsiya tashkil etadi hamda bu ekspeditsiyaga knyaz Bekovich-Cherkasskiyni rahbar etib saylaydi. U 1717-yil Guryevdan Xiva tomon harakatlana boshladı. Knyaz Yangisuvga kelgach tinchlik va do'stlik elchisi sifatida borayotganligini ma'lum qilish uchun Xiva xoni Sherg'ozixon (1715-1727) huzuriga Mixail Karetovni jo'natdi. Poytaxtga to'rt kunlik masofa qolganda rus va xivaliklar o'rtasidagi dastlabki to'qnashuv bo'ladi. Jang ruslarning harbiy ustunligini ko'rsatadi hamda xivaliklar mag'lubiyatga uchraydi. Natijada Xiva hukmdori ruslar huzuriga o'z elchisini yuborib muzokaralar boshlaydi. Knyaz Bekovich-Cherkasskiy Rossiya davlati elchisi ekanligini va qoraqalpoqlardan himoyalanish maqsadida qo'shin bilan kelganini ma'lum qiladi [4]. Sherg'ozixon Eshonxo'ja orqali knyazni o'z huzuriga taklif etadi. U Pyotr I yorlig'i va sovg'a-salomlarni xonga topshiradi. Xiva xoni ruslar sharafiga ziyofat beradi hamda suhbat chog'ida knyazni aslida musulmon bo'lganini keyinchalik xristianlik diniga o'tganini bilib oladi. Suhbat davomida Sherg'ozixon knyaz qo'shinini 5 qismga ajratishga ko'ndiradi. So'ng knyaz qo'shinlarini qirib tashlaydi. Natijada Xiva xonining hiylasi tufayli ekspeditsiya barbod bo'ladi. Bu muvaffaqiyatsizlik uchun Pyotr I Xiva xonligidan qasos ololmaganligi ikkinchi armoni edi [5]. Xiva hukmdori Sherg'ozixonning bunday harakati Rossiya bilan munosabatlarning keskinlashishiga sabab bo'lgan.

Rus ekspeditsiyasining taqdiri "Pyotr tarixi" uchun ma'lumot to'playotgan mashhur yozuvchi Pushkin e'tiborini tortgan. Biroq Pushkining asari shoirning 1837-yil fojiali halok bo'lishi natijasida tugatilmasdan qoldi. Ammo uning asarida quydagi so'zlar bor edi: "Riyovatlarga qaraganda, o'lim to'shabida yotgan Pyotr ikki narsadan armon qilgan ekan: Turkiyadan Prutdagi omadsizlik va Xivadan Bekovichning o'limi uchun qasos ololmaganiga".

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak Pyotr I Rossiya tarixida ko'plab o'zgarishlarni amalga oshirgan bo'lsa-da, bu hayotni ikkita armon bilan tark etdi. Prut daryosi bo'yidagi jangda Rossiya armiyasi deyarli halokat yoqasiga kelib qoldi hamda Rossiyaning xalqaro obro'siga salbiy ta'sir etdi. Pyotr I ga Prut jangi armon bo'lib qolgan bo'lsa-da, keyinchalik 1736-yil Rossiya hukmdori Anna Ivanovna Azov dengizi sohilidagi hududlarni bosib olgandan so'ng Prut shartnomasi buziladi. Pyotr I ning ikkinchi armoni bo'lgan Xiva xonligini qaram

qilish esa keyinchalik 1873-yilda Rossiya imperatori Aleksandr II davrida amalga oshiriladi hamda Xiva xonligi vassal davlatga aylantiriladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. <https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/madrahim-mahmudov-bekovich-cherkasskiy-va-buyuk-pyotrning-armoni>
2. <https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/madrahim-mahmudov-bekovich-cherkasskiy-va-buyuk-pyotrning-armoni>
3. Содиков Х., Шамсутдинов Р. ва б. Туркистон Чор Россияси мустамлакачилиги даврида. – Т.,2000. – Б. 29.
4. Содиков Х. Шамсутдинов Р. ва б. Туркистон Чор Россияси мустамлакачилиги даврида. – Т.,2000. – Б. 32.
5. <https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/madrahim-mahmudov-bekovich-cherkasskiy-va-buyuk-pyotrning-armoni>

**БУХОРОГА НУР ТАРАТГАН “ЗИЁ” ЁХУД ШАРИФЖОН МАХДУМ**

*Дилдора Исматова, Аҳад Фаниев  
Бухоро давлат музей-қўриқхонаси  
“Бухорода ҳуқуқ ва қонунчилик тарихи”  
музей филиали илмий ходимлари*

**Аннотация:**

Мақолада XIX аср охири - XX аср бошида Бухорода яшаб, маданий-маърифий ҳаётга улкан ҳисса кўшган давлат арбоби, шоир ва олим Муҳаммад Шарифжон Махдум Садр Зиёнинг ибратли ҳаёт йўли, унинг биз авлодларга қолдирган бой маънавий мероси ҳақида тўхталиб ўтилган.

**Аннотация:**

Статья посвящена образцовой жизни государственного деятеля, поэта и ученого Мухаммада Шарифжона Махдума Садр - Зия, жившего в Бухаре в конце XIX-начале XX веков и внесшего значительный вклад в культурно-просветительскую жизнь, его богатому духовному наследию, оставленному нашим поколениям.

**Annotation:**

The article focuses on the exemplary life of the statesman, poet and scientist Muhammad Sharifjon Makhdum Sadr - Ziya, who lived in Bukhara in the late XIX - early XX centuries and made a significant contribution to the cultural and educational life, his rich spiritual heritage left to our generations.

*Бухоро азалдан илм-фаннинг турли йўналишиларида олимлар етишишириб берган заминдор. XIX аср охири - XX аср бошида Бухорода яшаб, маданий-маърифий ҳаётга улкан ҳисса кўшган давлат арбоби, шоир ва олим Муҳаммад Шарифжон Махдум Садр Зиё шундай маърифатпарварларданdir.*

Шарифжон Махдум Садр – Зиё 1865 йил 24 февралда Бухоро амирлигига қарашли Зиёвуддин туманида давлат томонидан қозилик мансабида турган Домла Абдишукур бин Абдирасул оиласида дунёга келган. Туғилган жойига нисбатан «Зиёуддин» ва шариф рамазон ойида дунёга келгани сабаб «Мұхаммад Шариф» деб аталган. Шунингдек, исмига наслу насабига қўра «маҳдум», мохир хаттотлиги ва мансаби сабаб «мирзо», шеъриятидаги иқтидори учун “Зиё” тахаллуслари қўшилган. Кейинчалик, Бухоро амирлигига юқори турувчи «садр» ва «қози» лавозимларида ишлайди. Эл орасида «Қози Шарифжон», «Мұхаммад Шарифжон Махдум Садр - Зиё» сифатида танилади. Асосан, Шарифжон махдум «Садр Зиё» номи билан маълум ва машхурдир. Шўро даври расмий хужжатларида эса «Шариф Шукуров» шаклида ҳам учрайди.



Шарифжон Махдумнинг отаси Домла Абдишукур ўз даврининг зиёли ва маърифатпарвар кишиси бўлиб, кўп йиллар Бухоро амирлигига қозилик ва қозикалонлик мансабида ишлаган. Шарифжон дастлабки илмни отаси қошида олиб, сўнг Бухоронинг қатор мадрасаларида таникли устозлардан турли билимлар бўйича сабоқ олади. 26 ёшида мадраса таълимини тугатгач, амир Абдулаҳад (1885-1910) давлати ишларига жалб этилади.

1893 йил 9 майда Хайробод туманига қози этиб тайинланади. Кейинчалик 1920 йил Бухоро инқилобига қадар Пешку, Воғонзи, Гиждувон, Янгиқўрғон, Чахоржўй, Қарши, Шаҳрисабз каби туманларда мазкур мансабда фаолият кўрсатади.

Садр Зиё 1917 йилнинг 27 марта Мирзо Насруллоҳ Күшбеги тавсиясига биноан амир Олимхон томонидан Бухоро шахри қозикалони этиб тайинланади. Унинг қозикалонлик даври Бухоронинг мураккаб сиёсий даврига тўғри келади. Чунки бу пайтда Россияда февраль тўнтариши руй бериб, давлат тузуми ўзгарган эди. Амир ўша йил апрель ойида иложизлиқдан чиқарган манифестида халққа бир нечта эркинликлар ваъда қилиб, Шарифжон Махдум сингари ҳурфиксурли зиёлиларни ҳукумати таркибиға киритганди. Аммо Садр Зиё жадидларга хайриҳоҳ бўлгани сабабли икки юзламачи амир ва унга тарафдор жохиллар тазиқига учрайди. Амир Садр Зиёни пойтахтдан четлаштириш мақсадида дастлаб Қаршига, сўнгра Шаҳрисабзга қози қилиб юборади.

Садр Зиё қозилик билан бирга, асрларга татигулик нодир асарларни ёзиб қолдиради. Профессор Шодмон Воҳидовнинг ёзишича, Садр Зиёнинг тарих, география, шаҳарсозлик, табиатшунослик, боғдорчилик, Бухоро мадрасалари тарихи ва адабиётшунослик, хаттотлик соҳасига оид яратган асарлари сони 75 тага етади. Айниқса унинг алоҳида мавзулардан иборат

бешта асарни ўз ичига олган «Наводири Зиёя» китоби ўта қимматлидир. Ушбу асарда салжуқийлар, темурийлар, шайбонийлар, аштархонийлар, манғит ҳукмдорлари давлатида фаолият кўрсатган вазирлар, Бухоро инкилоби сабаблари, замондош мансабдорлар ва шоирлар хусусида маълумотлар ўрин олган. Унинг бизгача «Тазкираи хаттотон», «Наводири Зиёя», «Асоми ал-кутуби китобхонаи хусусии Шарифжон маҳдум» (Шарифжон маҳдумнинг шахсий кутубхонаси китоблари номлари) каби асарлари етиб келган.

«Асоми ал-кутуби китобхонаи хусусии Шарифжон маҳдум» китобида Мирзо Мухаммад Шариф шундай дейди: «Қачондир бирор китоб кўриб қолгудек бўлсан ёки қаердадир дилга ёкар китоб борлигини эшитсан, тиришқоқлигим ва эринмасдан изланишим туфайли имкони борича ўша китобларни қўлга киритардим. Баъзида бирон-бир мумтоз китобни Тангри инояти ва кўмагида текин қўлга киритсан, гохида эгасининг қадр билувчилиги орқасида пул кучи билан ўзимники қилиб олардим. Мабодо уларни бир неча танга ё тиллога сотиб олгудек бўлсан «жонсиз жисм бериб, жон сотиб олдим» дея Худога шукрлар айтардим.

Саккиз ой Садри Зиёнинг хизматида бўлган С.Айний унинг юксак бадиий истеъоди ҳақида эслаб, «Шарифжон маҳдум ёлғиз қолган пайтларида кўп шеър ва бошқа адабий асарлар ўқир, завқли ўринларини баланд овоз билан ўқиб берар, изоҳлар эди. Баъзан “Шоҳнома”га ўхшаш асарларни бизга ўқитиб қулоқ соларди, биз хато ўқиган ўринларни у тузатар ва биз тушуна олмаган ўринларни тушунтириб берар эди».[1:41-42] Шунингдек, С.Айний Садр Зиёнинг молиявий аҳволи унга ноёб қўлёзма нусхаларни сотиб олиш ёки буюртма қилиш имконини берганини таъкидлаб, Шарифжон Маҳдум кутубхонаси шаҳардаги барча шахсий кутубхоналар ичида энг бой ва энг зўри бўлганлигини эътироф этган.

Садр Зиёнинг китобсеварлик хислати борасида ўйлаганимиз сайин қуидаги фикрлар хаёлимизни сира тарк этмайди: китобсевар Садр Зиё деярли барча қўлёзма китобларни ўз пулига, яъни олтин, кумуш сарфлаб сотиб олган, ёки чет элга кетишга мажбур бўлган Мир Сиддиқ – Ҳашмат сингари шаҳзодага ҳам ўз таъсирини ўтказиб, унинг китоб хазинасидаги қимматбаҳо қўлёзма асарларни ҳам қўлга киритиб, уларни ўз юртимизда сақланиб қолишига улкан ҳисса қўшган.

Бухоро Халқ Республикаси тузилгандан кейин Муҳаммад Шариф Садр Зиё Республика ҳукумати томонидан Бухоро Аркига оид тадқиқотлар олиб бориш мақсадида таъсис этилган «Тарих анжумани» («Анжумани тарих») га аъзо бўлди. Бу ҳақда «Тахқиқоти Арки Бухоро» китобининг муаллифи Сайид Мухаммад Носир ибн Музаффар асар муқаддимасида алоҳида тўхталиб, шундай дейди: “Анжуманда Садр Зиё ўша даврнинг етук олимлари Фитрат, Сайид Мухаммад Сиддиқ, Мирзо Салимбек, жаноб Ҳожи Мулло Сайид Махмуд муфтий ҳамда муаллифнинг ўзи билан биргаликда арабий ва форсий тарих китоблари асосида ҳар куни Арки олийга бориб

унинг ободлигию вайроналиклари сабаблари ўрганиш борасида тадқиқотлар олиб бориш ишларида фаол катнашган”.[2;11-12]

Садр Зиё умрининг сўнгги йилларида Бухоро Халқ Жумхуриятининг Вақф ишлари бошқармаси хизматчиси, шариат бошқармаси раиси ўринbosари ва Ибн Сино номли кутубхона ходими каби вазифаларда ишлайди. Қомусий аллома Садр Зиё 1932 йил апрелида собиқ қушбеги Мирзо Низомиддин Урганжийнинг НКВД қамоқхонасига айлантирилган уйида вафот этади ва Бухородаги Шайх Жалол дарвозаси яқинидаги Хожа Исмат Бухорий қабристонига дағн этилади.

Буюк маърифатпарвар аждодимиз ўзининг 67 йиллик умри давомида инсонийлик ва фидойилик фазилатлари билан ўзидан бой мерос қолдирди. У кўлга киритган кўлёзма асарларнинг барчасини авайлаб Бухоро кутубхонасига беминнат топширган. Унинг бундай ҳиммат ва саховат шарофатидан мазкур улкан маънавий, моддий бойликнинг барчаси бугун Ўзбекистон Республикаси Фанлар Академияси Абу Райхон Беруний номидаги Шарқшунослик институти хазинасида бус-бутун сақланмокда. Шунингдек, унинг қаламига мансуб гўзал ҳаттотлик намуналари, 1907-1908 йиллар орасида кўчирилган “Тазкират аш-шуаро” (“Шоирлар ҳақида хотиралар”) номли асари Бухоро давлат музей-қўриқхонаси араб ёзувидаги кўлёзмаларни ўрганиш Илмий маркази хазинасидан ўрин олган. (Хозирги кунда хужжатлар фонди) Унда XIX ва XX аср бошларида яшаган 33 шоирнинг ижоди тўғрисида сўз юритилган бўлиб, шоирлар орасида Бухоро амири Абдулаҳадхоннинг (1885-1910) “Ожиз” тахаллуси билан ёзган шеърларини учратамиз. ».[3;43]

Асрларнинг бешафқат довонидан бизгача етиб келган маънавий хазинани нафақат сақлаш, уни ўрганиш, кенг тадқиқ этиш ва тарғиб этиш ҳам қарз, ҳам фарзdir. Зеро, уларнинг асарларини ўрганганимиз сари тарихнинг янги саҳифалари очилади. Авлодлар эса бундан бир аср олдин жасоратли китобсевар аждодимиз даҳосидан ғуур ва ифтихор туйиб, муносиб авлод бўлиши шубҳасиз.

#### **Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:**

1. Садриддин Айний. Асарлар I том. Тошкент, 1963.41-42 б.
2. Сайид Муҳаммад Носир ибн Музаффар. Таҳқиқоти Арки Бухоро// Форс тилидан таржима, сўзбоши, изоҳлар ва кўрсатгичлар Ғ.Каримовники. Тошкент, 2009. 11-12 б.
3. Бухоро музейларидағи қадимги кўлёзма дурдоналар. // Тарихий манбалар асосида маълумотларни йиғиб, нашрга тайёрловчи, сўзбоши ва қисқа изоҳлар муаллифи Аҳтам Аҳмедов. Бухоро, 2017. 43-б.

## ҲОЖИ АБДУЛАЗИЗ АБДУРАСУЛОВ


Ирзаева Мархабо Шаймаматовна  
Самарқанд вилоят Ўлқашунослик музейи  
тариҳ бўлими катта илмий ходими

### Аннотация:

Ушбу мақолада Самаркандлик машхур ҳофиз Хожа Абдулазиз Абдурасоловнинг маком санъатидаги ижодий фаолияти санъат йулидаги фидойи меҳнатлари самараси булган улкан санъат асарлари ҳакида ҳикоя килинади. Шу билан бирга мавзуга оид терминлар, суз бирикмаларини қуллаш услублари бадиий жихатдан очиб берилган. Маколадаги барча малумотлар тарихий фактлар асосида ёзилган.

**Калит сузлар:** Самарқанд, Ҳожи Абдулазиз, шашмақом, ҳофиз, бастакор, устоз шогирт, жўровозлиқ, нота, миллий мусиқа.

Миллий мусиқий меросимизнинг энг муҳим қисми мақом санъати ҳисобланади. Ҳалқимизнинг бебаҳо хазинаси бўлган бу санъатнинг яратилиши ва камолоти аждодларимизнинг бекиёс бадиий тафаккури билан боғлиқ. Бу хакда Президентимиз Ш.М. Мирзиёев “Ҳалқимиз бадиий тафаккурининг маҳсули бўлган “Шашмақом” яъни олти мақомни таъбир жоиз бўлса олти азим дарёга қиёслаш мумкин. Бу дарёлар асрлар давомида жаҳон маданият уммонига қўйилиб уни ҳар томонлама тўлдириб, бойитиб келмоқда. Шунинг учун ҳам бу муazzам да мусиқий дурдона ЮНЕСКО томонидан жаҳон маданий мерослари руйхатига киритилгани чуқур маъно ва аҳамиятга эга...”- дея фикр билдирган. Дарҳақиқат, ўзбек анъанавий мусиқасининг муҳташам пойдевори бўлмиш мақом санъати янада сайқалланиб бойиб боришида ва бизнинг кунимизгача безавол етиб келишида устоз санъаткорларининг ҳиссаси бекиёс. Шундай буюк санъат дарғаларидан бири шубҳасиз самаркандлик Ҳожи Абдулазиз Абдурасоловдир.



Абдулазиз Абдурасул Самаркандий 1854 йил Самарқанд шаҳридаги Кўк масжид маҳалласида косиб ҳунарманд Абдурасул оиласида таваллуд топган. Абдурасул ота ўта зийрак ва кучли хотирага эга бўлган бош фарзандини олти ёшида бошланғич мактабга беради. Абдулазиз мадраса таҳсилидан сўнг Самарқанднинг Хаймар мавzesida жойлашган солиқ маҳкамасига ҳужжатларни кўчирувчи мирза бўлиб ишга киради. У айни пайтда маърака ва йиғинларда хонанда-созандалар билан яқиндан мулоқотда бўлади. Унинг санъатга қизиқиши кундан кун ортиб борди. Машхур созанда Мирзо Мехтарга шогирд тушиб, сурнай созандалиги сирларини ўрганишга

киришади.[1-16] Ҳожи Раҳимбердидан танбур наволарини ўзлаштиради. Орадан йиллар ўтиб устоз Ҳожи Раҳимбердидан оқ фотиҳа олиб, мустақил ижрочиликни бошлайди. Мақом йўллари ижрочиси Борух ҳофиздан ашуалалар ўрганади. Анжуман, тўй-ҳашам ва бошқа бадиий-адабий тадбирларда бирга куйлади. Ҳофиз Абдулазиз “Шашмақом”нинг савти ва уфорларини, “Мушкулот”нинг чолғу бўлимида кенг тарқалган қисмларини, халқ қўшиқларини ижро этарди. У мақом йўлларини ижро қилганда дутордан усталик билан фойдаланаар, айникса унинг ингичка ва нафис товуши тингловчиларга хуш ёқар эди.[2-2]

Ҳожи Абдулазиз чинакам санъаткор бўлиш ниятида “Шашмақом”ни мукаммал ўрганишга қатъий бел боғлайди. Бухорога йўл олиб, машхур ҳофиз Ота Жалол Носировга шогирд тушади ва ундан қунт билан таҳсил олади. Ота Жалол Носиров (1845-1928) Бухоронинг сўнгти уч амири даврида сарой ҳофизлари йиғини “рикоб” раиси бўлган эди.[3-14] Ҳожи Абдулазиз олти ой мобайнида Ота Жалолдан мақом йўлларини, “Шашмақом”нинг тарихи ва тилсимлари ҳақида маълумот олди. Шу тариқа “Шашмақом”нинг кетма-кет келадиган турли шоҳобчаларини тўла шаклда, қатъий усул билан ижро этишга қурби етадиган санъаткор сифатида машхурликка эришади. “Шашмақом”нинг қотиб қолган санъат эмаслигини билган ҳофиз ўша вақтларда “Ироқ”, “Чапандози Ироқ”, “Насруллоий”, “Мустахзод” каби ашуалаларни янгича авж ва уфорлар билан безаб, ижро этади. Ҳофиз ашуалаларни бўлиб айтганларни ёмон кўрар, айникса, талаффузга катта эътибор берар, ҳар бир сўзнинг бурро эшитилишини талаб қиласади.

Абдулазиз Абдурасулов 1891-1892 йилларда ҳаж сафарини амалга оширган. Ҳожи Абдулазиз билан сұхбатдош бўлган кишиларнинг эсласича, Маккага қилган дастлабки сафари пайтида у шоир Зокиржон Холмуҳаммад ўғли Фурқат билан учрашган. Ҳикояларга қараганда, иккала ватандош кемада танишиб, худди эски қадрдонлардек сұхбатлашган эканлар. 1907-1908 йиллардаги яна чет эл сафарида устоз ҳофиз ҳаж зиёрати билан бирга бошқа халқларнинг маданияти, мусиқа санъати билан янада кенгроқ танишишга ҳаракат қиласади. Иккала сафар давомида Эрон, Арабистон, Ҳиндистон ва Афғонистоннинг машхур қўшиқчи ва созандалари билан танишади. Улардан кўплаб куй-қўшиқларни ўрганади. Ўзи ҳам ўша мамлакатларнинг санъат мухлислирига ўзбек, тоҷик, турк, озарбойжон ва бошқа халклар куй ва ашуалалардан ижро этиб беради. Бу саёҳатлар унинг репертуарини бойитади, ижодий кўламини янада кенгайтиради. “Жазоир” деб аталган ажойиб куй туркумини ҳам устоз Ҳожи Абдулазизга нисбат беришади. Айтишларича, ҳофиз уни дастлаб кенг тепаликда қўй боқиб юрган бир жазоирлик чўпондан эшитган экан. Сайёҳ Ҳожи Абдулазизнинг илтимосига кўра чўпон ўзи чалаётган куйни найда бир неча марта такрорлаган. Саёҳатдан қайтган ҳофиз ўзига ёд бўлиб қолган куйни миллий оҳангларга йўғириб, ўзбек тингловчиларига мослаб қайта ишлаган экан.

Ҳожи Абдулазиз Абдурасулов ҳақиқий маънода миллий санъаткор даражасига эришган киши эди. У нафақат Шашмоқом билимдони, балки

“Хоразм санъатини бир уста воситасида урганжлик Ёқуб Дорчидан, Фарғона мақом йўлларини эса Ашурали Махрамдан ўрганган” эди.[3-14] Ҳожи Абдулазиз кейинги йилларда соз чалиш ва ашула айтиш, Самарқанд мақом йўллари бўйича кўплаб ёшларга устозлик қилди. Жумладан, 1923 йилда Самарқандда очилган мусиқа факультетида Т.Содиков, Н.Ҳасанов, С.Юсуповларга, Тошкентдан ўқитувчи сифатида ташриф буюрган Р. Ражабий И.Икромовларга таълим берди. Кейинчалик Ўзбекистон халқ артисти, академик бўлган Юнус Ражабий ҳам унинг Самарқанддаги хонадонида яшаб, сабоқ олган эди.[3-14]

1928 йил Самарқанд шаҳрида мусика ва хореография илмий текшириш институти очилди. Ўзбек миллий мусиқий меросини илмий ўрганиш ва уни нотага олиб келажак авлодга соф ҳолда етказиш мақсадида илмий жамоага Ўзбекистоннинг барча худудларидан келган энг билимдон санъат дарғалари тўпланди. Мазкур илм даргоҳида ҳам Ҳожи Абдулазиз унумли ижод этди. Шунингдек, маҳаллий ёшлардан ҳам кўплаб иқтидорли шогирдлар етиштириди. Самарқанднинг Оҳалик қишлоғидан Ахрор Ҳамидов, таниқли дуторчи Қодир авлиё, патнис билан ашула айтадиган ширадор овоз соҳиби Ҳамро бобо, Михоел Толмасов, Оқилхон, Максадча, Маъруфхон, Қори Сирожлар шулар жумласидандир.[1- 22]

Айтиш мумкинки, асрлар оша авлоддан-авлодга устоз-шогирдлик анъаналари йўли билан ривожланиб келган мақом санъати халқимизнинг бебаҳо қадриятидир. Бугунги кунда мазкур санъатни асраб қолиш ва ривожлантириш олдимиизда турган масъулиятли вазифа ҳисобланади. Шу ўринда устоз санъаткорларнинг мусиқий меросини қайта ўрганиш ва ёшлар ўртасида кенг тарғиб этиш лозим. Ваҳоланки, Ҳожи Абдулазиз Абдурасоловнинг “Ирок”, “Насруллоий”, “Ушшоқ” каби кўплаб ижролари 1909 йилдаёқ Риганинг “Грамафон” жамияти томонидан ёзиб олинган ва улар европадаги шарқ мусиқаси ихлосмандларига ҳам етиб борган эди. Ҳожи Абдулазиз Абдурасоловдан улкан маданий мерос қолди. Устоз яратган “Дўст худойим”, “Бебокча”, “Бозургоний”, “Эшвой”, “Чорзарб”, “Сўлим”, “Гуллар боғи”, “Шахнози Гулёр уфори”, “Самарқанд ушшоғи”, “Қўқон ушшоғи”, “Чапандози Ирок”, “Гадойи”, “Жазоир”, “Курбон ўлам”, “Чапандози Наво”, “Чапандози ушшоқ”, “Абдураҳмонбеги”, “Мисрий”, “Дала куйлари”, “Ажам тароналари”, “Даромади ушшоқ”, “Уфори Бебокча” сингари куй-қўшиқлар ўзбек ва тожик мақом санъатининг бойлигига айланди. 2001 йилда Ҳожи Абдулазиз Абдурасоловга санъат йўлида қилган фидоий меҳнатлари учун “Буюк хизматлари учун” ордени билан мукофотланган.

### **Фойдаланилган адабиётлар рўйхати**

1. Шарипов С.А. Ҳофиз юрган йўлларда. Самарқанд. Зарафшон, 1996. –Б. 11.
2. Сирожов А. Ҳожа Булбул чамани. // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. 2019 йил №26.

3. Ирзаев Б. Мустакиллик йилларида Ўзбекистонда мусиқа маданиятининг ривожланиши. Т.: Янги аср авлоди, 2015. –Б. 14.
4. История узбекской советской музыки. I том. Т.: F.Фулом, 1972.

## НАВОЙ ИЖОДИДА МУСИҚА

**Наргиза Алиева Равшан қизи,  
Наманган давлат университети талабаси**

### **Аннотация:**

Ушбу мақолада Навоий хазратларининг асарларида келтирилган мусиқий бирикмалар, мусиқий созлар, мақомлар хақида таъфланган. Бир қатор алломалар ва замондошлари мусиқага бўлган муносабатлари, ўз асарларида фикр билдиргани хақида келтириб ўтилган.

**Калит сўзлар:** Алишер Навоий, мақом, мухаммас, мумтоз мусик, хамса, най, уд, рубоб, танбур, чанг, Абдурахман Жомий, Исҳоқ Ражабов.

### **Аннотация:**

В статье описаны музыкальные сочетания, музыкальные слова, макомы в произведениях Хазрата Навои. Ряд ученых и современников цитировали свое отношение к музыке, выраженное в их произведениях.

**Ключевые слова:** Алишер Навои, маком, мухаммас, классическая музыка, хамса, най, уд, рубаб танбур, чанг, Абдурахман Жомий, Исҳоқ Ражабов.

Алишер Навоийнинг мусиқа илми ва санъатига муносабати унинг замондошлари Абдураҳмон Жомий, Заҳириддин Муҳаммад Бобур, Зайниддин Восифий, Зайнулобиддин Ҳусайний, Ҳондамир каби адибларнинг асарларида тилга олинган. Замонамиз мусиқашунос ва адабиётшунос олимлари Абдурауф Фитрат, Исҳоқ Ражабов, Суйима Ғаниева, Тўхтасин Фофурбеков, Баҳром Бафоев, Зарифа Каримова, Зокир Орипов, Т.Йўлдошев, З.Ҳамидов кабиларнинг мақола ва тадқиқотларида ҳам ўз аксини топган. Бироқ, Алишер Навоийнинг “Хазойин ул-маоний”, “Садди Искандарий” асаридағи мусиқий атамалар ва муғанийномалар хақида маҳсус рисола ёки тадқиқотлар учрамайди. Алишер Навоийнинг илмий-адабий мероси биз учун ўрганилиши лозим бўлган қимматли ва ўз навбатида ноёб хазинадир. Улуғ шоир адабий меросида мусиқа илми ва амалиёти билан боғлиқ бўлган масалалар ўз ифодасини топганлиги туфайли бу бой маънавий мерос мусиқашунослик илмида олиб борилиши зарур бўлган тадқиқотларга ҳам мавзу беради. Ўзбекистон Республикаси Биринчи Президенти Ислом Каримов улуғ шоир ижодига юксак баҳо бериб: “Алишер Навоий халқимизнинг онги ва тафаккури, бадиий маданияти тарихида бутун бир даврни ташкил этадиган буюк шахс, миллий адабиётимизнинг тенгсиз

намояндаси, миллатимизнинг ғурури, шаъну шарафини дунёга тараннум қилган ўлмас сўз санъаткоридир”, – деган эди<sup>6</sup>.

Алишер Навоийнинг “Махбуб ул-кулуб” асари ва ундинги “Мутриб ва муғанийлар зикрида” фасли ўша давр мусиқий чолғулари, унинг тузилиши ва ўзига хос хусусиятлари ҳақида маълумот бериш билан бирга Навоий давр мусиқа маданиятини тасаввур этишда қимматли манба ҳисобланади.

“Мезон ул-авzon” асаридаги мусиқий усул ва шеърий вазн масаласи, бошқа асарларидаги куй ва унинг шакллари, мусиқий жанрлар, бастакорлик масалалари (олимлар томонидан Навоийнинг ўзи ҳам бир неча куйларнинг муаллифи бўлганлиги таъкидланади<sup>7</sup>) ҳамда шу каби ёритилиши зарур, мусиқашунослик учун катта аҳамиятга эга бўлган жиҳатлар мавжудлигини эътироф этиш жоиздир. “Навоийнинг мусиқа соҳасидаги фаолияти ҳали етарли ўрганилмаган, – деб ёзди мусиқашунос олим Исҳоқ Ражабов ўзининг “Мақомлар” монографиясида, – атрофлича илмий тадқиқотлар олиб борилиши лозим”<sup>8</sup>.

Қолаверса, Алишер Навоий ижоди баркамол авлод тарбиясида муҳим рол ўйнайди. Ёшлар рухиятига, маънавиятига таъсир этишда аҳамият касб этишини алоҳида қайд этиш жоиз.

Навоий ижодида келтириладиган мусиқа илми ва амалиёти билан боғлиқ бўлган атамалар хусусида мусиқашунос олим Т.Фофурбеков ўзининг “Ҳазрат Навоийнинг мусиқий тафаккури” мақоласида маълумот бериб, атамаларни гурухларга ажратади. Адабиётшунос З.Ҳамидов эса Навоийнинг асарларида қўлланилган турли соҳаларга доир маҳсус терминларни ўрганганд бўлса-да, мукаммал лексикологик тадқиқотлар кўп эмаслиги, Навоий асарларида ифодаланган мусиқий атамалардан иборат алоҳида бир луғат тузиш зарурлиги ҳақида ёзади.

Алишер Навоийнинг мероси унинг нафақат шоир ёки туркий тил асосчиси, адабиётшунос, файласуф ва илоҳиётшунос сифатида, балки мусиқа илми ва амалиётини яхши идроклаган мусиқашунослик билимдони бўлганлигини намоён этади. Унинг мусиқага хос мураккаб атамалар ва ибораларни асарларида маънан ва мазмунан қўллаган ҳамда моҳирона ифодалаган санъатшунос дейиш мумкин.

Ҳар бир соҳанинг ўз негизи ва асослари мавжуд. Шу билан бирга ҳар бир соҳа ўз йўналишига хос хусусиятлари билан боғлиқ атамаларига ҳам эгадир. Маҳсус атамаларни ўзлаштириш эса кишида шу соҳани маълум даражада ўрганишни, хусусиятларини амалий тарзда идроклашни тақозо этади. Шу нуқтаи назардан ёндашадиган бўлсақ, Навоий ўзи шоир бўлса-да, мусиқий илми ва амалиётида қанчалар моҳирлигини унинг адабий меросидан билиб олиш мумкин.

---

<sup>6</sup>Каримов И. А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Т.: Маънавият, 2008. – Б. 47.

<sup>7</sup>Қаранг: Фитрат А. Ўзбек классик мусиқаси ва унинг тарихи. – Т.: Фан, 1993. – Б. 41; Ражабов И. Мақомлар. - Т.: Санъат, 2006. – Б. 29.

<sup>8</sup>Ражабов И. Мақомлар. – Т.: Санъат, 2006. – Б. 27.

Мусиқа илмида мавжуд атама ва иборалар шу соҳа намояндалари учун тушунарли ҳамда доимо истеъмолда бўлиб келган соҳани асоси ва мазмунини англатувчи сўзлардир. Мусиқа илми ва амалиётини акс эттирувчи жиҳатлар бу мусиқий жанрлар, чолғулар, бастакорлик, халқ ижодиёти, ижрочилик, мақомларга оид иборалардир. Навоий мусиқа назариёти ёхуд амалиётига доир бирор асар ёзмаган, аммо биз унинг деярли барча асарларида мусиқа атамаларини маънолар тизимиға мос ҳолда ўз аксини топганлигини кўрамиз. Жумладан, лирик асарлари – девонлари (“Бадое ул-бидоя”, “Наводир ун-ниҳоя” ва тўрт девонни ўзида жамлаган “Хазойин ул-маоний”)да, лиро-эпик мероси бўлган достонларида (туркий тилдаги илк беш достон – “Хамса”), ахлоқий, таълимий, илмий-тариҳий, фалсафий асарларида (“Маҳбуб ул-қулуб”, “Мажолис ун-нафоис”, “Назм ул-жавоҳир”, “Лисон ут-тайр”, “Холоти Паҳлавон Муҳаммад”) ва бошқа кўплаб ижодий меросида учратиш мумкин. Зеро, унинг ижодида санъатшуносликка хос иборалар, мусиқа илмиға оид бўлган фикрлар ва ёндашувлар заргарона ифодасини топган.

Барча соҳа каби мусиқа илмида ҳам ислоҳотларнинг мезонлари ва уларга хос атамалари мавжуд. Мусиқий амалиётда истеъмолда чархланган содда иборалар кўпчиликка маълум. Аммо унинг мутахассислар учун мўлжалланганлари ҳам кўп.

Аввало, ижодиётга фалсафий ёндошмаган олим башарият пешвосига айланмайди. Бунга юз тутган шахс ҳар бир соҳани муносиб идрок қилган ва уларнинг асослари хусусида фикрлай оладиган ижодкорлардир.

Абу Наср Форобий, Абу Али ибн Сино, Абу Абдулоҳ Хоразмий, Зайнулобиддин Ҳусайнӣ, Навоийнинг замондошларидан Абдуроҳмон Жомий ва бошқа алломалар ўз асарларида мусиқага оид бир қатор фикрларни, атама ва ибораларни келтирадилар. Бу мусиқий иборалар фақат мусиқашунос, бастакор, анъанавий ижрочилик билан машғул бўлган созандаларгагина маълум. Қизиги шундаки, Навоий ҳам бундай ибораларни ўз асарларида кўп маротаба қўллаган. Мусиқа ижодкори ёки санъаткорларгагина хос кўп жиҳатлар Навоий асарларида намоён бўлган. Бу жиҳатларни тўлиқроқ билиш ва Навоийнинг, дарҳақиқат, мусиқашунослик соҳасини яхши идрок қилганлигини фақат унинг асарларини илмий ўрганиш орқали билиб олиш мумкин. Шуни таъкидлаш жоизки, мутафаккир шоир ҳар бир мусиқий атама моҳиятини теран англаған ҳолда ишлатгани унинг мусиқа илми билимдони эканлигидан далолат беради. Унинг бой ижодий меросида зикр этилган ҳар бир мусиқий атама ўша замоннинг мусиқа маданиятини тасаввур этишда ва англашда муҳим аҳамият касб этади.

Шоирнинг байтларида санъатнинг турли қирраларидан боҳабар ва муайян тушунчага эга бўлганлигини намоён этадиган жиҳатлар талайгина. Буни биз Навоий ижодида муҳрланган мусиқий чолғулар, мусиқий жанрлар номи, бастакорлар, куй чалувчи ва яратувчи, созанда ва хонанда ҳамда мусиқа амалиётида маълум бўлган касбий атамаларда кўришимиз мумкин.

“Алишер Навоий бадиий меросида 26 мингдан зиёд сўзлар орасида юзлаб махсус мусиқий бирикмалар учрайди. Буларни қуидаги тарзда муайян таснифларга бўлиш мумкин: чолғулар, мусиқий шакл (жанр)лар, мусиқа асари, мусиқий асарлар талқинчилари, бевосита мусиқа асари ижодкори, мусиқа асари яратишга ундаш, даъват, муайян мавзу ва мазмундаги мусиқа асарлари...”<sup>9</sup> ва ҳ.к.

Шоирнинг “Хазойин ул-маоний” асари 2600 ғазал, мухаммас (10), қитъа (210), рубоий (133), таржибанд (28), мустазод (4), мусаддас (5), маснавий (1), таркиббанд (1), муаммо (52), чистон (10), қасида (1), туюқ (13), соқийнома (1), фард (86)ни ўз таркибига олган жуда улкан девон бўлиб, маънолар тизимида қўлланилган мусиқий ибораларга ҳам бойдир. Яъни унда мусиқага хос илмий, амалий, касбий атамалардан тортиб, ижро мезонлари билан боғликлари ҳам етарли даражададир. Хусусан, чор девонда зикр этилган чолғулардан: чанг, соз, қўбуз, даф, мусикор, най, уд, рубоб, танбур, руд, чағона, мусиқий асбобнинг таркибий қисмини ифодаловчи гўшатоб, зер, бам, тор, автор кабилар. Зотан адабиётшунослик қонуниятларидағи сўз ўйини, яшириш (иккиламчи ва ҳ.к.) маънолар, уларни англашдаги мушкилотларга асос бўлади. Лекин, Навоий ижодида мусиқа илмига хос жараёнлар муносиб баёнини топганлигини эътироф этиш жоиздир.

Даставвал шуни қайд этиш лозимки, Навоий меросини ўрганиш жараённида шу нарса ойдинлашадики, шоир асарларида қўллаган ҳар бир мусиқий атамаларни асар ғоясига кўра келтиради.

Навоий лирик ижодини ташкил этувчи девонларнинг асосини ғазаллар ташкил қиласди. Маълумки, мумтоз мусиқа меросимизнинг ўзаги бўлган ашуулалар, хусусан мақомларнинг ашула йўллари ғазаллар билан уйғунлашган ҳолда юзага келади, яъни ашууланинг асоси шеър – ғазал ва куй – мусиқадир. Уларнинг ҳар бири ўзининг ички қонуниятларига эга. Лекин, ашула бўлишда уларнинг ҳар бири мукаммал ва бир-бирига мутаносиб бўлиши ашууланинг ҳар томонлама мукаммаллигига хизмат қиласди. Масалан, мусиқадаги усул ва оҳанг (куй) жиҳатлари ва ҳ.к. Жумладан, “Ибн Сино ўзининг “Жавомеъ илм ал–мусико” (“Мусиқий билимлар тўплами”) асарининг бешинчи бобини мусиқа ритми, шеърият билан ритм ўлчовлари муносабати масаласига бағишлилан. Бу бўлимда поэзия ва мусиқанинг бир-бирига боғликлиги ҳақида ёзилган. “Шеърият ахли ва бастакорлар бир-бирини яхши тушуниб етгандагина ҳақиқий санъат асари яратилади”, дейди Ибн Сино”<sup>10</sup>.

---

<sup>9</sup>Фафурбеков Т. Ҳазрат Навоийнинг мусиқий тафаккури // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. - 2002. – 3 май.

<sup>10</sup>Иногомжонова Ф. Абу Али Ибн Синонинг “Мусиқий билимлар тўплами” асари // Ибн Синонинг 1000 йиллиги. Т.: Фан, 1980. – Б. 145-150.

## ҚИЗБИБИ ВА ҲАЗРАТ БИБИ МАНЗИЛГОҲЛАРИ МУҚАДДАС ҚАДАМЖО СИФАТИДА

*Ражабов Ойбек Искандарович  
Бухоро давлатуниверситети ўқитувчиси*

### **Аннотация**

Ушбу мақолада Бухоро вилоятида жойлашган Қизбиби ва Ҳазрат Биби зиёратгоҳларининг тарихи ва тавсифи илмий таҳлил қилинган.

**Калим сўзлар:** Зиёратгоҳ, Оғойи Бузрук, Ҳазрат Биби, Биби Махсумай пок.

### **Annotation**

This article provides a scientific analysis of the history and description of the shrines of Qizbibi and Hazrat Bibi in Bukhara region.

**Keywords:** Shrine, Agoi Buzruk, Hazrat Bibi, Bibi Maxsumai pok.

Бухоро воҳаси асрлар давомида тадқиқотчиларнинг диққат марказида бўлган. Воҳа тарихи ва у билан боғлиқ ёзма манбаларни ўрганиш йўналишидаги ишлар XX аср бошларида маҳаллий ва рус олимлари томонидан амалга оширилди.

“Қизбиби” ёки Оғойи Бузрук аёллар хонақоси Бухоро вилоят Жондор туманида, Бухоро шаҳридан 30 километр узоқликда жойлашган бўлиб, майдони 0,5 гектардан иборат. Мажмуа бинолари асосан XIX аср давомида қад кўтарган ва тўрт ҳовли атрофида жойлашган.

Қишиги ва ёзги хоналардан ташкил топган улкан гумбазли мачит-хонақоҳ баланд бўлиб, мажмуани бирлаштириб туради. Унинг силлиқланган ғишталар билан безатилган маҳобатли пештоқли олд томони шарқقا, Қизбиби мозорига қараган. Кичик пештоқли шимолий олд томони уч томондан ҳужралар билан ўралган ибодатхона ҳовлиси билан туташ. Ҳужраларда ўчоқсимон печ ва ташнов мавжуд бўлиб, улар зиёратчиларнинг бу ерда узоқ муддат истиқомат қилишига мўлжалланган. Хонақоҳнинг жанубий қисмига зиёратчиларнинг қисқа муддатли туришига мослаштирилган дарвозаҳона ҳовлига туташган. Қизбиби мозори таҳминан XVIII аср охирларида икки хилхонали этиб қурилган мақбарага эга. Унинг ягона безакли биноси ҳисобланган айвон қейинроқ мачит-хонақоҳнинг бош пештоқига қаратилиб қурилган. Айвон ойнали ёғоч ўймакорлик услуби билан безатилган. Безаклар сақланмаган. Айвон тагида қора-кулранг мармар қабertoш мавжуд. Унинг шакли ноанъанавий, яъни ўртаси тешик тўртбурчак тоштахта кўринишида.

Қизбиби мақбарасининг жанубида мозорга ўтишни маҳсус қийинлаштирадиган бир қанча иморатлар барпо этилган. Шунингдек, бу ерда меҳмонхона, аёллар мачити ва ҳовличалар бўлган. Уларнинг мақбарадан ташқари барчаси XX асрнинг 30-йилларида бузиб ташланган. Мақбара ва хонақоҳнинг аёлларга мўлжалланган қисмига эркаклар ҳеч қачон кирмаган. Бу одат ҳозиргacha сақланмоқда. Мажмуани шимолий шарқ томондан ошхона ёки ҳалимхона ва хўжалик ҳовлиси ўраб туради. Бу ерда кўплаб ўчоқ ва

тандирлар жойлашган. Шунингдек, уй-рўзгор анжомлари, жумладан, ҳалим тайёрлаш учун катта қозонлар сақланган. Саховатпеша шахслар томонидан 1913-1914 йилларда мажмуанинг аёллар қисми ва ошхона қурилади.

XX асрнинг 80- йиллари бошларига қадар хонақоҳнинг ярмидан кўпи кўчувчи қумлар остида қолиб кетган эди. Шунга қарамай, бу жой атроф қишлоқлар ахолиси ўртасида зиёратгоҳ сифатида машҳур бўлиб қолаверди. “Ҳазрат Биби” тепалиги Бухоро вилоят, Бухоро тумани Кунжи-қалъа ҚФЙ Қум-рабод қишлоғи яқинида, Бухородан 8 км жанубда жойлашган. Махаллий ахоли тепаликни “Ҳазрат Биби” ёки “Биби Махсумаи пок” деб атайди. Тепалик ва унинг атрофи мозорга айланган.

XX аср 60-йилларида тепаликни ўлганган ўлкашунос С.Н.Юреневнинг таъкидлашича, тепалик қадимда баланд бўлиб, атрофида ахоли истиқомат қилган. Тепалик билан боғлиқ кўплаб ривоятлар мавжуд бўлиб, араблар босқини пайтида туб жой ахоли босқинчиларга қарши тўққиз марта қаршилик кўрсатган ва охирги тўққизинчи марта енгилиб исломни қабул қилган<sup>11</sup>.

“Ҳазрат Биби” ёки “Биби Махсумаи пок” мозори тепаликнинг шимолий қисмида жойлашган бўлиб, опалари “Қиз Биби” Варахшадан унча узоқ бўлмаган жойда кўмилган. Буларнинг иккалалари ҳам турмушга чиқмаган, яъни бокира ўтганлар. “Ҳазрат Биби”нинг мозори устига эркаклар чиқиши мумкин бўлмаган, фақат аёллар чиқиши мумкин бўлган.

Махаллий тарихчи Гулнора Қўлдошеванинг маълумотига кўра, тепаликда ғор мавжуд бўлиб, у 7 та хона жумладан: қоровулхона, меҳмонхона ва қаландархонадан ибарат бўлган. Хоналарнинг ҳар бири 10м<sup>2</sup>ни ташкил этади. Ҳар бир хонанинг эшиклари алоҳида айланасимон бўлиб, хом ғиштдан қилинган усти гумбазсимон ва XIII аср охири XIV аср бошларида “Ҳазрат Биби” шу ғорда яшаган деб такидлайди<sup>12</sup>.

Тадқиқотчининг таъкидлашича, “Ҳазрат Биби” қабри устига синчкор бино қурилган. У шимолдан жанубга қараб қурилган учта хонадан иборат бўлиб, хоналар шимол ва жануб томонидан эшикларга эга. Жанубий эшик тўғри тор йўлак билан хилхонага боради. Хонада араб ёзуви билан зийнатланган икки мармар қабртош ҳам мавжуд бўлиб, бу ёзувларни Қози-Саид қишлоғилик қори Асрор ҳамда Садриддин Салим Бухорий ўқишига мусассар бўлганлар. Унда “Бинд Муҳаммад Моликшо. Саодати Моликшох Бадаст сари падарами моҳон ҳамин жо” (Бин Муҳаммад Маликшо қабри) деб ёзилган<sup>13</sup>.

Хонанинг шимолий томонида эшик бўлиб, у “Ҳазрат биби” қабрига олиб чиқкан. Гўрхона тўртбурчак шаклдаги усти ёпиқ бино бўлиб, хона тенг иккига ажратилган, поли тупроқдан, жанубдан шимолга қараб нишоб ҳолида қурилган. Хонанинг жанубий қисмида мармар қабртошлар жойлашган бўлиб, эътиборлиси шундаки, 3 та қабртошнинг барчаси шимолдан жанубга қаратиб

<sup>11</sup> Бухарский музей инв. №.11453/7,11452/7.

<sup>12</sup> Дала тадқиқот ёзувлари. Бухоро вилояти, Бухоро тумани, Науметан қишлоғи. 2015 йил, август.

<sup>13</sup> Дала тадқиқот ёзувлари. Бухоро вилояти, Бухоро тумани, Науметан қишлоғи. 2015 йил, август.

кўйилган. Бу Бухоро мусулмонларининг одати бўлган (Бухоро мусулмонлари инсон оламдан ўтгандан кейин унинг бошини шимолга ва оёғини жанубга қилиб кўмишган). Хонанинг шимолий қисмида “Ҳазрат Биби”нинг қабрлари жойлашган. Бу катта сафона бўлиб, қариб 4 метр узунликда бўлган ва устига чиройли қилиб тикилган қабрпўш ёпилган. “Ҳазрат Биби”нинг қабрлари шарқдан ғарбга томон йўналган, Бухоро мусулмон қабрига хос бўлмаган тарзда. Бу ҳақида С.Н.Юреневга маҳалий аҳоли шундай маълумот беради. Қабртошнинг бундай қўйилишига сабаб ҳалқ орасида “Ҳазрат Биби” ўлмаган тириклайн ерга кириб кетган деган афсонанинг мавжудлиги (Хивадаги Остона – Шайх Мухтор Вали ва унинг атрофидаги қабрлар ҳам шарқдан ғарбга томон бўлган) эди<sup>14</sup>.

Тадқиқотчиларнинг айримлари Қизбиби ва Ҳазрат Бибини опа-сингил деб қайд қилишади. Аммо айрим ривоятларда, жазирама қуёш атрофни аёвсиз қиздирав, Ямандан салкам олти ой олдин йўлга чиқкан карвон олис-олисларда кўзга ташланаётган миноралар томон интиларди. Туя кажавасида кетаётган Биби Робия Аллоҳдан ягона тилак-фарзанд сўрайди. Жаннатмакон юрт Бухорога етиб келганда 21 йил интиқиб кутилган фарзанд Биби Маствурахон дунёга келади. Ёшлигидан билим ва илмга чанқоқ қизалоқнинг яна бир хислати воқеаларни олдиндан кўриш эди. Буни сезган ота-онаси уни кўчга чиқармасликка, ёмон кўздан асрашга ҳаракат қилишади. Ота онасининг вафотидан сўнг Биби Маствурахон, яъни Қизбиби ҳозирги Жондор туманида, Бухородан 30 чақирим нарида қамишдан чайлалар ясаб, атрофига қизларни тўплаб ўқита бошлайди. “Қизбиби” жомеъ масжиди қоровули Икром ота Норов маълумотича, Қизбиби Сулаймоннинг қизи ҳисобланар экан.

Яна бир ривоятда Мирзо Шариф билан Биби Шарифанинг турмуш кургани тўғрисида хабар беради. Биби Шарифа яқин орада қиз кўришини ва у қиз 14 ёшгача ота-онаси билан бирга яшашини, сўнгра ота-она уйини тарк этиб, олима бўлишини, сўнгра эса “Оғойи Бузрук” деган жойга бориб, у ерда Худо ва одамлар ўртасида воситачилик қилиб умргузаронлик қилишини башорат қиласида. Дарҳақиқат, дунёга келган Биби Ҳанифа исмли қиз 14 ёшида савод эгаллаб, онаси башорат қилган жойга келиб ўрнашади ва ўзини ибодат ва табобатга бағишлади. Кунларнинг бирида у хужралардан бирига кириб, йўқолиб қолади. Аёллар ҳар жума куни муайян бир жойга унинг учун сув, қатиқ ва тароқ олиб келишган. Қизбиби ҳеч кимга қўринмай, ювинган. Бир сўфий Қизбиби билан одамлар ўртасида воситачилик қиласида. Бу сўфий кейинчалик хонақоҳ биноларининг бирида дафн қилинади.

Айрим олимлар уларни қиз ўтган, яъни бокира ўтган деб қайд қиласида. Лекин яна бир ривоятда Жондор туманида қамишдан ясалган чайлалар яшаб юрганида, ширкорга чиқкан Амир Фарруҳ чайлани кўриб, қизиқиб бу ерга келади ва сабоқ олаётган қизларни кўриб, унда мадраса бунёд этиш фикри туғилади. Ери қазиб, хумдонлар ясаб, пишиқ ғиштдан хозир Қизбиби номини олган мачит ўрнида мадраса бунёд этилади, қизларнинг яшаб, сабоқ

---

<sup>14</sup> Бухарский музей инв. №.11453/7,11452/7.

олишлари учун ҳовлини айланасига ҳужралар қурилади. Қизбиби кейинчалик ҳомийси Амир Фаррухга турмушга чиқади ва иккита фарзанд кўради. Бир ривоятда икки ўғил, бошқасида бир қиз, бир ўғилли бўлган дейилади. Қизлар Амир Фаррухни Оғойи бузрук, яъни араб тилида авлиёлар улуғи деб аташган. Чунки у илмга бой бўлган.

Бугунги кунда “Қизбиби” ва “Ҳазрат биби” қабрлари фарзанд ва баҳт талаблар, ишлари ривожланмаган, узоқ сафарга кетадиган зиёратчилар ихлосидадир. Бухоро воҳасининг қадимги ва ўрта асрлар тарихини ўрганиш ва воҳа тарихини илмий жамоачиликка ҳам маълум бўлган жиҳатларини ёритиш учун ёрдамчи манба бўлиб хизмат қиласи.

## II BO'LIM. PEDAGOGIKA

### HOW TO IMPROVE ENGLISH SPEAKING

**Malika Arslanova Dehkanalieva**

*English teacher at the Academic Lyceum of the  
Namangan Engineering Construction institute*

#### **Annotation:**

Many students master the fine points of English grammar but find themselves at a loss when it comes to actually having a conversation with native speakers. In reality, the only way to develop fluency in speaking is by huge amounts of listening, and then practicing. The following are a few tips for improving English speaking skills. When you also want to practice speaking, in this article are some suggestions for how to improve English speaking skills.

**Keywords:** watching movies, english speaker, “Tom’s Diner”, movie technique.

#### **Аннотация:**

Многие студенты осваивают тонкости грамматики английского языка, но теряются, когда дело доходит до разговора с носителями языка. Фактически, единственный способ развить беглость речи - это огромное количество слушания, а затем практики. Ниже приведены некоторые советы по улучшению ваших навыков говорения на английском языке. Если вы также хотите попрактиковаться в разговорной речи, в этой статье приводятся некоторые рекомендации по улучшению ваших навыков разговорной речи.

**Основные понятия:** просмотр фильмов, разговорный английский, «Tom's Diner», кинотехнология

First of all, it's important to find native speakers to practice with. Students who are living around many English speakers may be able to find informal opportunities to chat with neighbors and local business people. Joining a club or a volunteer organization can be a great way to get to know people informally. If that isn't an option, consider hiring a private tutor. A lot of students find and meet with tutors online via tools like Skype or Google Hangouts.

When practicing with a native speaker, try to balance your listening and speaking. It's a good idea to prepare questions in advance so that the conversation will flow back and forth. If your conversation partner asks you a question and you answer at length, you can always turn the question back to your partner by asking, —What do you think?|| or —What about you?|| [1]

Recording is a great way to get the maximum benefit from a conversation with a native speaker. When you listen again, you can evaluate your own pronunciation and notice areas where you need to improve.[2] You can also review

the content of the conversation, take notes on new vocabulary or misunderstandings, and prepare questions for the next meeting.

Another way to improve your English speaking skills is to immerse yourself in English as much as possible. Watch movies or TV in English, with subtitles if you need them, and watch the same programs over and over. Most people find that they understand more each time. Listening helps you become familiar with the rhythms and intonations of English[3]. Once the sounds are familiar, try imitating them.

Listen to music in English and sing along. Music is one of the best tools for learning intonation pronunciation. Listening to and singing songs might also help you remember vocabulary and phrases (if the song is easy to understand), and it will help you learn to pronounce English rhythm in a more natural way. By unconsciously imitating the singer, you'll learn to pronounce phrases the way native speakers do. One good song for ESL or EFL students is —Tom's Diner by Suzanne Vega because it uses simple language to describe everyday scenes and actions. Movies are a much better choice for learning English. You'll learn vocabulary, idioms, slang, pronunciation, and listening by watching movies. Be sure to use my movie technique when you do this![4]

Reading out loud is a great way to practice speaking when there are no conversation partners available. Reading aloud gives you a chance to focus on pronunciation and pacing without worrying about coming up with words. Make sure to practice with material that you can understand. Some students find videos online that have transcripts. Many TED talks, for example, include word-for word transcripts of the talk. By reading aloud from a transcript, you can check your pronunciation by listening to how the speaker says something.

Saying your thoughts out loud or narrating your actions (—I am drinking coffee, and now I'm going to open my book!)[5] can be a very effective way to practice spoken English. By talking to yourself, you can become more fluent in translating your thoughts into spoken words. Practicing alone is also a low-pressure way to practice, since no one will hear your mistakes.

You can learn anything by practice. So start speaking in English to your English knowledge friends or to your teachers. First please don't worry about your bad English and grammar. Don't try to start a perfect English which is humanly not possible. But get the sentences either, spoken or written, corrected by your friends or teachers. Also watch the english news channels and try to follow the news. As the time rolls by, you will master the spoken/ written English. Mind it, nobody has started the English speaking and writing without errors. It is the good sustained practice that has made them perfect. So spoken or written English is easy provided you have the fire in you to learn it. Learn minimum two words per day with the complete knowledge of where to, when to and how to use them in sentences. Choosing a right word, in the right place and in the right context will enrich the language. It cannot happen over night but you can surely achieve this over a period of time.

**References:**

1. Firth, J. R. (1951). 1957b Modes meaning. in *Papers in linguistics*. OXFORD University Press. pp. 190-215.
2. Jakobson, R. (1959). lingvistica y rojtica. En: *Ensayos de Ligüística General*, 347- 395 Barcelona: Ariel.
3. Lewis, M. (1993). *The lexical approach: the state of ELT and the way forward*. Hove, England: language Teaching Publications.
4. Lewis, M. (2000) language in the lexical approach. in *teaching collocation: further developments in the Lexical Approach*, Michael lewis (ed.) pp. 126-154.
5. McIntosh, A. (1961). Patterns and ranges. *Language* 37: Harper and Row, New York. pp. 325-327.
6. AJ.Huge advices : *effortless English.com*
7. Miller, J., and R. Weinert (1998). *Spontaneous spoken language: syntax and discourse*. Oxford: Oxford Clarendon Press.

## **CHET TILINI O'RGATISH JARAYONIDA SAMARALI O'QUV MATERIALLARI VA ULARNING TASNIFI**

*Gulbahor Karimova,  
NamDU magistranti*

**Annotatsiya:**

Mazkur maqolada chet tillarni o`rgatish jarayonida tanlab olinadigan o`quv materiallari va ularning tasnifi hususida so`z yuritiladi va ayrim fikrlar keltiriladi.

**Kalit so`zlar:** chet-tili, ta`lim jarayoni, metod, o`quv materiali, o`qitish vositalari, tanlov, o`rganuvchi, darslik, tasnif.

**Annotation:**

This article discusses the selection of teaching materials in the process of teaching foreign languages and their classification, and gives some ideas.

**Keywords:** foreign language, educational process, method, teaching material, teaching aids, competition, learner, textbook, classification.

Ma'lumki, metodika sohasida izlanish olib borayotgan har bir tadqiqodchi biror masalaga yechim topish uchun avvalo quydagи savollarga javob axtarishi lozim. Bu savollar asosini kim?, kimni?, nimani?, nima bilan? kabi so`roq so`zlar tashkil etishi tabiiy. Ushbu fikrga tayangan holda, mavzuni mazmunan aniqroq, puxtarol yoritish mumkinligini bir necha na'munalar bilan izohlab berish mumkin. Shu usulga ko'ra yuqoridagi mavzuni yoritish chet tili so`z birikmasining ma'noviy xususiyatiga e'tibor qaratishni taqazo etadi.

Chet tilini o`rgatish jarayonida ham o`rgatuvchiga, ham o`rganuvchiga tegishli materiallarni egallashlarida qulayliklar yaratuvchi asosiy yordamchi

vositalar o'quv materiallari ekanligini ta'kidlab o'tish lozim. Sohaga oid adabiyotlarni sinchiklab o'rganish, o'quv materiali tushunchasini quydagicha ta'riflash imkonini beradi.

O'quv materiallari – o'rganuvchi va ta'lim oluvchilarga bilimni samarali o'zlashtirishlari uchun mo'njallangan nazariy va amaliy ma'lumotlar yig'indisidir.

O'quv materiallari – o'quv material, o'quv mazmuni, dars materiallari, o'qitish predmeti hamda o'quv predmeti sifatida o'rganuvchilar uchun mo'njallangan nazariy va amaliy ma'lumotlarni ifodalaydi. [1.4]

Chet el olimlarining fikriga ko'ra, o'quv materiali tushunchasi tilshunoslik sohasida qo'llanilganda ta'lim beruvchilar faoliyatida peshqadamlik qiladi. O'qitish va o'rgatish jarayonida o'quv materiallarini ahamyatini inobatga olib kasb ta'limida hamda ta'limda qo'llaniladigan o'quv materiallariga ajratadilar.

O'quv materiallari – ta'lim jarayonida, ta'lim beruvchilar o'rganuvchilar uchun mo'njallanib, o'qitishda, o'rganishda o'rganuvchilarni berilgan materiallarni yaxshiroq egallahashda, ta'lim beruvchilarni mavzularni muaffaqiyatli tushuntirishda yordamchi vositalardir. [4.3-4]

Ta'lim beruvchilar hamda o'rganuvchilar manfaatlarini ko'zlab chet tilini o'rgatishda qulayliklarni yaratuvchi ta'lim vositalarini bir qancha turlarga bo'lingan.

Ta'lim vositalari turlari:

1. O'quv (o'qitish) vositalari.
2. O'qitishning texnik vositalari.
3. Texnik qurulmalar.
4. Zamonaviy o'quv vositalari.

O'quv vositalari – ta'lim tizimida o'rganuvchilar tomonidan o'quvchilarning o'rganishlari uchun qo'llaniladigan materiallar. Asosiy o'quv materiallari sifatida darsliklar tasvirlanib, ko'pincha maktab kitoblari va darsliklar old qatorda turadi. [4. 5-6]

Darsliklar muayyan fanga oid asosiy fakt, ilmiy tushuncha, qonun, nazariyalar mazmunini tegishli o'quv yurtining dasturi hajmida ta'lim vazifalari hamda o'quvchi (talaba)larga mos tarzda ochib beradi. Darsliklar ta'lim-tarbiya vazifalarining imkonи bor darajada hal etilishiga, ya'ni bilimlarning muntazam mustahkam va ongli o'zlashtirilishiga, o'quvchi (talaba)larda fanning muayyan sohasiga qiziqish uyg'otishga, ularda ilmiy tafakkurning tashkil topishiga yordam beradi. [1.104-105]

Ko'rgazmali materiallar chet tilini o'rgatishda o'ziga xos muhim rol o'ynab, ko'rgazmali qurollardan foydalanish metodi qadim zamonlardan beri ishlatib kelinayotgan eng qulay, samarali va tushunarli metod hisoblanadi. Zero, ko'rish orqali eshitishga nisbatan 5 marta ko'proq va 13 marta ko'proq taktik organlarga nisbatan ko'proq ma'lumotni miyaga yetkazadi. Bu ma'lumotlar tez, oson va mustahkam o'rnashib qoladi.

Ko'rgazmalilik metodi o'ziga xos tamoillarga asoslanadi. Ko'rgazmali qurollardan foydalanish qoidalari juda ko'p bo'lib, ayrimlarini korsatib o'tamiz.

1. So'z bilan emas, namoyish bilan ko'proq, tez va oson tushunib olish mumkin.

2. Shuni unitmanki bola rang, shakl, tovush orqali tez tushunadi.

3. Ko'rgazmalilik maqsad emas, vosita ekanligini unutmang.

4. Tushuncha, bilim, aniq dalil va ko'rgazma bilan samarali ekanini unutmang.

5. Ko'rgazmalilik bu faqat tomosha emas, balki bilim olishning manbai, izlanuvchanlik, ijodkorlikka o'rgatuvchi omildir.

6. Ko'rgazmali qurollardan foydalaning, ammo ko'p emas, chunki bu o'quvchi diqqatini bo'lib, charchatib, asosiydan chalg'itadi.

7. Ko'rgazmali qo'llanmalar sifatida ishlatiladigan tabiiy obyektlar avvalo uning jihoz va moslamalarga mahsus ishlov berish lozim.[2.50-51]

Texnik vositalar - har qanday turdag'i faoliyatni amalga oshirish uchun su'niy tarzda inson tomonidan yaratilgan mahsulot, mexanizm, texnik kompleks,, birlik va boshqalar. Uskunalar va texnologiyalarni rivojlantirish yuqori texnologiyali va intelektual ishlab chiqarishga imkon beradi, ilm-fan va texnologiyalarnikelgusida rivojlanishga turtki beradi, imkoniyatning ufqlarini ochib beradi.

Zamonaviy o'qitish vositalari;

Bosma o'quv materiallari; kompyuter ta'limot; electron elonlar do'skasi; radio; elektron ko'rinishidagi o'quv metodik qo'llanmalar.

O'quv modellari, maketlar. Modellar tabiiy obyektlarning sun'iy ko'rinishi bo'lib, ularning muhim sifatlari, aloqalari va munosabatlari qayta takrorlaydigan o'quv ko'rgazmali qo'llanmalar hisoblanadi. Haqiqiy obyektlar xususiyatlarini ko'rsatishda shartlik (ramziylik)ka amal qilinadi, o'lchamni kattalashtirib yoki kengaytirish orqali obyekt qurulmasi sxema tarzida aks ettirilladi. Madellarning eng ko'p tarqalgan tipik turlari bu moddiy (predmet) modellardir. Modellar o' hajmiga ega yok tekis modellariga bo'linadi. Ularning oralig'ida relief qismlarga bo'linishi mumkin. Hajmga ega bo'lgan madellar sirasiga mulyaj va maketlar kiradi. Mulyaj (maket)lar moddiy obyektlarga aynan o'xshatib yaratilgan qo'llanmasidir.

Real ta'lim vositalari, texnik vositalar va chop etilgan o'quv materiallari.

Real ta'lim vositalariga o'qitishda qo'llaniladigan barcha real yordamchi vositalar; mashinalar; traktorlar; jihozlar; dastgohlar; tayyor mahsulorlar vaboshqalar kiradi. Texnik vositalarga proyektor, kino apparat, o'quv telvideniysi,, vidiomagentafon, kompyuter, vdeofilmlar, multimedialar.Chop etilgan o'quv materiallariga chop etilgan o'tkazilgan barcha o'quv va ko'rgazmali materiallar kiradi.[2.1,2,3]

Ta'lim vositalarini tanlash;

Ta'lim beruvchi uchun: o'quv metodik qo'llanmalar, metodik tavsiyalar, metodik ishlanmalar, o'quv dasturlari, maruza matni.

Ta’lim oluvchi uchun:darslik, o’quv qollanma, jadvallar tarqatma materiallar, yo’l-yo’riq texnologik xaritalar, tipik xatolar xaritasi topshiriq.

Dars o’tkazish uchun: plakatlar, modellar jihozlar,adiavizual vositalar, taxnik vositalar,real vositalar.

Chet tili muallimi o’quvchilarga ta’lim berish chog’ida o’quv materiallarini jo’yali qo’llash yo’l-yo’riqlarini chuqur bilishlari talab etiladi. Chet til o’qitish maqsadlarining ro’yobga chiqarishda foydalaniladigan vositalarning metodik tasnifi quydagicha:

1.Bajaradigan vazifasiga ko’ra asosiy va qo’shimcha (yordamchi) o’quv qurollari turlari

2. Kimga mo’njallanganligiga qarab muallim yoki o’quvchilar qo’llaydigan o’quv qurollari.

3. Axborot keladigan yo’l (analizator)ga nisbatan – eshitish, ko’rish, eshitib-ko’rish normalaridagi;

4. Texnika ishtirokini hisobga olib, an’anaviy (notexnik) va zamonaviy (texnik) atalmish o’quv qurollari.

5. Ishlab chiqarilishi nuqtai-nazardan ommaviy va mahalliy o’quv qurollari mavjud.[2. 1-3]

Xulosa qilib aytganda, chet tilini o’rgatishda barcha o’quv materiallarining o’ziga xos ma’lum vazifasi va mustaxkam o’z o’rni bor. Bu o’quv materiallar o’rgatuvchilarga ham va shu bilan bir qatorda o’rganuvchilarga ham birdek nafi tegmoqda desak mubolag’a bo’lmaydi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro’yhati:**

1. Jalolov J. Chet tilini o’qitish metodikasi. – Toshkent. 2012.
2. Zaripov L. Kasbiy ta’lim metodikasi. – Toshkent. 2007.
3. Uparova A.P.,Podgurskaya Y.N, Mirsagatova.S. Chet tillarini o’qitishda kalendar va unitilmas sanalardan foydalanish. – Toshkent. 1987.
4. Ergashev E. Chet til o’qitish jarayonida texnik vositalardan foydalanish. – Toshkent. 1984.

### **CHET TILINI O’QITISH JARAYONIDA ZAMONAVIY METODLAR**

*Gullola Rahmonova Jo’raboy qizi  
Namangan davlat universiteti  
Lingvistika (nemis tili) yo’nalishi 2-bosqich magistranti*

#### **Annotatsiya:**

Mazkur maqolada chet tili o’rgatish metodlari va bu haqida ayrim olimlarning nazariy qarashlari xususida fikr yuritiladi.

#### **Annotation:**

This article discusses the methods of teaching a foreign language and the theoretical views of some scholars.

Bugungi kun ta’lim jarayonida o’qitishning zamonaviy metodlari keng qo’llanilmoqda. O’qitishning zamonaviy metodlaridan foydalanish, dars jarayonida yuqori samaradorlikka olib keladi. Dars jarayonini turli-tuman metodlar bilan tashkil etish talabalarning o’zlashtirish ko’rsatkichlarining o’sishiga olib keladi.

Muloqot vositasi bo’lmish tilni tabiiy muhitda ya’ni oilada, jamoatchilik orasida yoki uyushgan holda amaliy egallash mumkin. Til hodisalariga oid bilimlar esa nazariy jihatdan o’rgatiladi. Xalqaro munosabatlar avj olgan zamonamizda tillarni bilish, ayniqsa ko’p tillilik ulkan ahamiyat kasb etadi. Mamlakatimizda tahsil oladigan o’quvchi va talabalar odatda uch tilni o’rganadilar. Ushbu tillar maxsus nomlar bilan yuritiladi. Bular quyidagilar: ona tili, ikkinchi til va chet til. Ona tili tafakkur shakllanishida alohida xizmat o’taydigan birinchi til hisoblanadi. Ikkinchi til haqida so’z yuritilganda, unga boshqa millat vakillaridan iborat qardoshlar, qo’shnilar tili sifatida qaraladi [1]. Chet til – bu xorijiy mamlakat tilidir.

Respublikamizda G’arb (ingliz, ispan, nemis, faransuz) tillari va Sharq (arab, turk, fors, xitoy, hind) tillari o’qitilib kelinmoqda. Bu tillar ta’lim muassalarining o’quv rejalaridan o’rin olgan. Uchala tilni o’qitish jarayoni turlicha kechadi. Ona tili va ikkinchi til tabiiy vaziyatda, chet tili esa sun’iy muhitda o’rganiladi. Chet tildagi muloqot, asosan, darsda muallim rahbarligida kechadi. Uchchala til orasida chet tilni o’rganish va o’rgatish muayyan jihatlari bilan keskin farq qiladi. Bu esa, o’z navbatida, tegishli chet til o’qitish texnologiyasini qo’llashni taqozo etadi. Chet til muallimi metodika fani yutuqlarini puxta o’zlashtirish orqali o’quvchi-talabaning to’plagan til tajribasi me’yorini aniq bilishga va uni yanada takomillashtirishga erishadi. Chet tillarni samarali o’rgatish uning metodikasini bilishni taqozo etadi [1]. Chet tillarni o’rganish va o’rgatish ko’p jihatdan chet til o’qitish metodikasi masalalarini nazariy tomondan ishlab chiqilishiga va nazariyaning amalda ijodiy qo’llanilishiga bog’liqdir. Shu sababli chet til o’rganish va kelgusida uni boshqalarga o’rgatish uchun bel bog’lagan inson chet til o’qitish metodikasi fani predmetini yaqindan anglashi darkor.

*Metodikaning predmeti-* chet til predmeti orqali ta’lim- tarbiya berish jarayoni va usullari, chet til o’rgatish ilmi, muallim va o’quvchi faoliyatini o’rganish metodikaning predmeti sanaladi [1].

Metodikaning asosiy tushunchalari- metod, usul, prinsip. Metod - metodika tushunchasi grek-lotinchcha “metodos” “metodus” so’zidan olingan bo’lib, ma’lum maqsadga eltuvchi yo’llar, usul ma’nosini anglatadi. Turli adabiyotlarda atamaning tor va keng ma’nosini uchratish mumkin. “Metodika” atamasi tor ma’noda ta’limning konkret dars jarayoni bilan bog’liq tushunchani anglatadi. Mashg’ulotlarni rejallashtirish va o’quv materiallarini tayyorlash bilan bog’liq bo’lgan ko’rsatmalarni qamrab oluvchi boshqariladigan dars jarayoni sifatida talqin etiladi [1]. “Metod” atamasi keng ma’noda o’quv materialini tanlash, tabaqalash va taqsimlanishni nazarda tutadi. Germaniya Federativ Respublikasida 60-yillardan boshlab “didaktika” va “metodika” tor ma’noda qo’llanilib kelinmoqda. Shunga ko’ra didaktika ta’lim mazmuni, metodika esa ta’lim usullari

bilan shug'ullanadi [2]. Chet tillarini o'rganish faqat aqliy tarbiya vositasi emas, balki o'zga madaniyat ta'limi boyliklari va qadriyatlari bilan tanishish va ularni o'z madaniy hayotiga tadbiq qilish orqali kishi shaxsining shakllanish jarayoni hisoblanadi. Yevropada chet tillarni o'rganish uzoq vaqt yuqori darajadagi ta'lif olishda imtiyoz sanaladi va jamoat maktablarida imtiyozga ega bo'lgan kishilarni tarbiyalash deb qaraladi [2].

*Chet til o'qitish metodi* - deyilganda chet til o'rgatishning amaliy, umumta'limiylar, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlariga erishuvni ta'minlovchi muallim va o'quvchi faoliyatining majmuasi tushuniladi. Metod atamasi "ta'lif usullari yig'indisi" va "ta'lifning yo'nalishi" ma'nolarida qo'llanadi. Birinchisi ta'lif nazariyasida jarayon metodlar ma'nosida ishlatsa, ikkinchi ma'noda uni o'qitish metodikasi tarixiga oid asarlarda uchratishimiz mumkin. Masalan, chet til o'qitishning tarjima metodi, tog'ri metod, ongli-qiyosiy metod, an'anaviy metod, intensiv metod va boshqalar hisoblanadi.

Tabiat va jamiyat hodisalari o'zaro bog'langan va uzluksiz aloqada rivojlanadi. Fanlar obyektiv voqelikning inikosi ekanligi uchun ularning hech biri boshqalaridan ajralgan holda mavjud emas. Hodisa va predmet ayni zamonda bir talay fanlarning tadqiqot manbai bo'la oladi, misol uchun, "til" ijtimoiy hodisasini o'z nuqtai nazaridan tilshunoslik (lingvistika), ruxshunoslik (psixologiya), ta'limshunoslik (didaktika) o'rganadi. "Chet til metodikasi" atamasi kishi ongida quyidagicha ya'ni *assotsatsiya* "bog'lanish" uyg'otadi: avvalambor, tilni o'rgatishga qaratilgan metod va metodik usullar yig'indisi tushuniladi yoki o'qitish metodlari haqidagi ilmiy bilimlar va nihoyat, mustaqil pedagogik fan ko'z oldimizga keladi. Chet til o'qitish metodikasi didaktika bilan uyg'un, o'zaro bog'langan holda rivojlanib kelgan. Barcha o'quv fanlarining o'qitish nazariyalari didaktika faniga asoslanishi, undan ilmiy ozuqa olishi shubhasiz barchamizga ma'lum. Chet til o'qitish ham didaktikaga asoslanadi. Didaktika ta'liming umumiylari, metodika muayyan o'quv predmetini o'qitish ilmi, lingvodidaktika tillarni o'qitish umumiylari, lingvometodika aniq bir tilni o'qitish ilmi sifatida qaraladi. "Metod" atamasi bilim, malaka, ko'nikmani egallash, o'quvchilarda dunyoqarashni shakllantirish va bilish imkoniyatlarini yaratish yo'lidiagi o'qituvchi-pedagog va talabaning ish usuli ma'nolarini bildiradi. Ushbu tushuncha son –sanoqsiz ta'riflarga ega. Chet tillar o'qitilishida metodlarni tatbiq etish uzoq davrlardan boshlangan, prinsiplar esa nisbatan yangiroq metodik atamalardir. Tarixan metodlar to'rt guruhga birlashtirilib, ularning nomlariga "tarjima", "tog'ri", "qiyosiy", "aralash" deb atash qabul qilingan.

Metodlar tarixi atoqli metodist prof. I.V.Raxmanov tomonidan chuqur o'rganilgan. Tarjima metodi asosan ikki ko'rinishda bo'lib, grammatika-tarjima va matn-tarjima metodlari nomi bilan yuritiladi. Grammatika-tarjima metodi nuqtayi nazaridan chet til umumta'limiylar maqsadda o'rganilgan. Grammatik mashqlar til o'rganuvchining mantiqiy tafakkurini o'stirish maqsadida bajarilgan. Grammatik bilimlarni bayon etish ta'lifning asosiy maqsadi deb qabul qilingan. Bu metodning asosiy prinsiplari quyidagilar:

1. Til o'rganish yozma nutqqa asoslangan.

2. O'rganish predmeti qilib grammatika olingan, leksika ham unga tobe ravishda tanlangan. Grammatik mashqlar bajarish asosiy ish usuli bo'lgan.
3. Oldin, grammatik qoida yod olingan, so'ng esa qoidalar asosida gaplar tuzish tavsiya qilingan.
4. Grammatik shakl va so'zlarning ma'nosi so'zma-so'z tarjima vositasida ochib berilgan
5. So'zma-so'z tarjima va quruq yodlash yo'li bilan til materiali o'zlashtirilgan.
6. So'zlarni kontekstdan tashqarida, yakka yodlash bilan chegaralanilgan.

Chet til ta'limidan ko'zlangan maqsadning yangicha talqinida, asosan, pragmatik tilshunoslik tadqiqotlari natijalariga tayanildi. Tilshunoslikning bu sohasi tilni tilga oid shakl tizimi emas, balki inson faoliyati sohasi deb talqin qiladi. Chet til ta'lim sohasida 70-yillarning boshidan beri to'plana boshlangan yangi xulosalar majmui ta'lim maqsadini belgilash sohasida qizg'in munozaralariga olib keldi. Chet til ta'limining asosiy yo'nalishlarini belgilovchi maqsadi o'quvchilarga "muomala qilishni o'rgatish", "Befaeigung zur Kommunikatsion" (kommunikative Kompetenz) bo'lgan yangi o'quv rejalarini qabul qilindi. 70-yillarda "kommunikativ metod" bir qator urinishlardan so'ng bir necha bosqichda o'z isbotini topdi. Shunday asnoda metodika fani rivojlanib bordi [2]. Hech qaysi chet tilni biz uning metodikasini chuqur o'rganmasdan egallay olmaymiz. Chet til o'qitish metodikasida "kommunikativ didaktika" metodi ham ahamiyatga molik sanaladi. Kommunikativ didaktika quyidagilarni o'zida mujassamlashtiradi.

- Ochiq va moslashuvchan dars konsepsiysi;
- mavzu va mazmun muhim;
- darsdagi asosiy ish shakli suhbatlashish va guruh bo'lib ishlash;
- o'quvchilarni faollashtirish va tildan ijodiy va erkin foydalanishga e'tibor katta bo'lishi zarur;
- Tushunishdan fikrni izhor qilishga prinsipi asosida mashqqa kuchli e'tibor berish
- Ma'noni ochishda, harakat ko'lamini belgilashda va mashqni tashkil qilishda vizualizatsiya (ko'rish tayanchi) muhim ro'l o'ynaydi;
- Kundalik nutqiy muloqotni hayotiy vaziyatda o'rganish (dialogni mashq qilish);
- Tildan og'zaki foydalanish va shu bilan birga asliy matnlarni tushunish muhim hisoblanadi [2].

Kommunikativ didaktika - tinglab tushunish materiali sifatida tabiiy nutqiy vaziyatdan foydalanishni birinchi o'ringa qo'ydi, ya'ni, transportdagi, vokzaldagi e'lonlar, radio va televideniyedagi reklamalar, telefonlari suhbatlar va shu kabilarni misol keltirishiiz mumkin. Axborotni tinglab tushunish qabul qilish bo'yicha qo'yilgan maqsadlar o'zgardi. Tinglaganini hikoya qilish va nazarat qilish ham boshqacha tus oldi. Mazkur metod maqsaddan kelib chiqqan holda tinglovchiga tinglab tushunishning quyidagi turlarini ajratib berdi:

- Keng ma'noda matnning ba'zi bir detallariga ahamiyat bermay, uning asosiy mazmunini tushinish;

- Aniq informatsiya muhim bo'lganda, masalan, ma'lum bir joy uchun ob-havoning zarurligi, poyezdning kelishi-ketishi tog'risidagi e'lon va boshqalar shu metod jumlasidandir [2].

Chet til o'rganish ko'p qirrali ta'limot bo'lib, bu jarayonda inson murakkab psixologik o'zgarishlarni boshdan kechiradi. Jumladan ona tili bilan chet tilini taqqoslash jarayoni yuzaga keladi. Bu jarayonda o'rgatishning turli metod va texnologiyalaridan foydalilaniladi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar yordamida chet til bilan ona tilini taqqoslab o'rgatish samarali natija beradi.

#### **Foydalilanilgan adabiyotlar ro'yhati:**

1. Jalolov J. Chet til o'qitish metodikasi. Toshkent. 2012.
2. Gerhard Neuner und Hans Hunfeld. Chet til o'rgatish metodlari. Namangan, 2005.

## **CHET TILNI O'RGATISH JARAYONIDA NAZORATNING AHAMIYATI**

*Munira Saidova*

*Namangan Davlat universiteti Jahon tillari fakulteti  
Lingvistika: nemis tili yo'nalishi 2-kurs magistranti*

#### **Annotatsiya:**

Ushbu maqolada chet til ta'limini sifatli va samarali amalga oshirishda nazoratning o'rni haqida fikr yuritiladi. Nazorat ob'yekti, nazoratning vazifasi va maqsadlari aniqlanadi. Nazoratning turlari, shakllari va usullari yoritiladi. O'quvchilarga chet tilni o'rgatishda nazoratning zarurligi tahlil qilinadi.

#### **Аннотация:**

В этом статье обсуждается роли контроля при осуществлении эффективной и безуказненной обучения иностранного языка. Обсуждаются типы, формы и методы контроля. Объясняется как важно контроль ученикам при преподавании иностранного языка.

#### **Annotation:**

In this article is discussed about the role of control by accomplishing foreign language teaching perfectly and productively. The types, forms and methods are expounded. It is analysed how control is vital in teaching a foreign language to students.

Insoniyat hamma davrlarda ham o'zi yashayotgan, shuningdek, o'zidan ilgari mavjud bo'lgan dunyo va xalqlar haqida yaxshiroq bilishga intilgan. Bu istak

uni notanish madaniyatlar haqida ma'lumotlar yig'ishga, ularni tahlil qilishga undadi. Bu esa o'zga(chet)tilni bilish ehtiyojini keltirib chiqardi va bu ehtiyoj hozirgi kunda ham o'zining dolzarbligini yo'qtgani yo'q. Mamlakatning dunyo hamjamiyatiga kirib borishi, fan va texnika rivojlangan yangi davrda dunyo mamlakatlari bilan tengma- teng raqobatga kirisha olishi uchun bir nechta chet tillarni mukammal bilishni talab etadi.

Bu borada yurtimizda ham ko'plab ishlar amalga oshirilmoqda. Mustaqillik sharofati bilan chet tillarning o'qitilishiga alohida e'tibor berilmoqda. Chet tillarni o'rgatish tizimini yanada takomillashtirish, shuningdek, kadrlarni xalqaro talablarga javob beradigan qilib tayyorlashni ko'zda tutadigan ko'plab qonun va qarorlar qabul qilindi. Ularga ko'ra, mustaqil O'zbekiston Respublikasining har bir fuqarosi o'z kasbiga oid chet tilidagi adabiyotlarning asl nusxasini o'qiy olishi, o'qilgan materialni tushuninshi va uni o'z kasbida qo'llay olishi lozim. Bu esa o'z navbatida chet tilini mukammal o'rganishni taqozo etadi. Buyuk nemis shoiri Gyote aytganidek, "Kim chet tillarini bilmassa,u o'z ona tilini ham bilmaydi".

Chet tilini o'qitishni sifatli va samarali amalga oshirish uchun ta'lim jarayonida turli zamonaviy va sinalgan metodlardan foydalilanadi. Bu metodlar bilan bir qatorda chet tili ta'limini yanada yaxshilash uchun o'quvchilar egallagan bilim, ko'nikma va malakalarni o'z vaqtida nazorat qilish ham katta ahamiyatga ega. Dastlab "bilim", "ko'nikma", "malaka" tushunchalarining mohiyati va bir-biridan farqli jihatlarini aniqlab olish zarur.

Bilim-bu kishilarning tabiat, jamiyat va undagi biror sohaga oid egallagan ma'lumotlarning inson tafakkurida aks ettishi.

Ko'nikma- insonning ilgarigi tajribalari asosida muayyan faoliyat yoki harakatni amalga oshirish qobiliyati. Amaliy faoliyatga, bilimlarni amalda qo'llay bilishga oid faoliyatning tarkibiy qismidir.

Malaka- (qobiliyat, iste'dod, xususiyat) muayyan kasb, ishni yaxshi o'zlashtirish natijasida orttirilgan mahorat.

Yuqoridaqiz izohlardan quyidagicha xulosa qilish mumkin: Chet tilidagi bilim deganda, biror bir xorijiy til, uning leksikasi, grammatikasi va fonetikasi haqida nazariy ma'lumotlarga ega bo'lish tushuniladi. Ko'nikma esa o'sha nazariy bilimlarni amalda qo'llay olish qobiliyatidir. Malaka deganda, egallangan ko'nikmalar juda yaxshi o'zlashtirilib, mahorat darajasiga yetishishi tushuniladi. Odatda chet tili nazariy emas, balki amaliy maqsadda o'rganiladi. Bu degani, biz xorijiy tilni shu tilda nazariy bilimlarga ega bo'lish uchun emas, balki o'sha tilda muloqot olib borish uchun o'rganamiz. Demak, chet tilini egallaganlik daroji tekshirilganda, bilim emas, balki egallangan ko'nikma va malakalar tekshiriladi. Ko'nikmalarni tekshirish paytida leksik, grammatik talaffuzni o'zlashtirish saviyasi, nutq faoliyati turlarida ularning qo'llanilish daroji nazorat qilinadi. Malakalar tekshirilganda esa nutq faoliyati turlaridan muloqot vositasi sifatida foydalana olish me'yori o'lchanadi.[2,256]. Demak, chet tilida nazorat ob'yekt deganda, egallangan ko'nikma va malakalar tushuniladi. Tekshiriladigan narsa, hodisa ma'lum bo'ldi. Keyingi o'rnlarda tekshirishning vazifasi va maqsadi haqida so'z yuritamiz.

O'quvchilarning chet tilini qay darajada o'zlashtirayotganligini bilish va bu jarayonda yuzaga kelayotgan qiyinchilik hamda muammolarni aniqlash, ularni bartaraf etish uchun ham nazorat zarur. Nazorat o'zi nima? Nazorat- ishning, narsaning ahvoli, borishi, kishining yurish-turishini kuzatish, tekshirish, taftish qilish.[2, 253]. Nazorat qilish- ta'lism olovchining o'zlashtirish ko'rsatkichlariga asoslanib, unga keyingi o'qitish jarayonini qanday tashkil qilish bo'yicha to'g'ri qaror qabul qilishga yo'naltirishdir. Demak, nazorat ta'lism jarayonining asosiy komponentlaridan biri. Nazorat o'qituvchi va o'quvchilar orasidagi "Qayta aloqa" vositasi bo'lib, u yoki bu til materialini nutq faoliyati turlarining birida ishlatish darajasini, u o'quvchilar uchun qanday qiyinchilik tug'dirishi mumkinligini aniqlashga yordam beradi. Didaktik adabiyotlarda aytishchicha, tizimli ravishda o'tkaziladigan nazorat o'rgatish xarakteriga ega bo'lib, u materialni xotirada saqlashga va hosil qilingan ko'nikma va malakalarni yo'qolmasligiga yordam beradi. [1,35]. Demak, nazorat paytida ham ta'lism beriladi, o'rgatiladi.Bu nazoratning o'rgatuvchilik funksiyasidir. Bundan tashqari nazoratning aniqlash, to'g'rakash, ogohlantirish, intiltirish va umumlashtirish kabi funksiyalari ham mavjud [3,206].

Nazorat bu o'quvchilarning chet tilini qay darajada o'zlashtirayotganligini tekshirishdir. Aynan nima tekshiriladi? Yuqorida tilga olinganidek, chet tilida egallangan ko'nikma va malakalar tekshiriladi. Ularga qo'yilgan talablar va me'yorlar mavjud. Bu talablar chet tili o'qitishning turli bosqichlarida turlicha bo'lgani uchun, nazorat qilishda bularni hisobga olish kerak. Nutq faoliyati turlarini amaliy egallash ko'rsatkichlari asosiy va qo'shimcha mezonlar bilan o'lchanadi: asosiy mezonda faoliyatning quyi chegarasi, qo'shimcha mezonda esa yuqoriqoq darjasini aniqlanadi. Chet tilda nutq faoliyati turlarining sifat va miqdor ko'rsatkichlari metodika ilmida aniqlab berilgan [2,256]. Nazorat qilishda ana shu mezonlarga tayanish maqsadga muvofiqli.

Nazoratning quyidagi turlari farqlanadi:

1. Joriy(kundalik nazorat) 2.Mavzuviy nazorat 3.Oraliq nazorat 4.Yakuniy nazorat

Joriy nazorat chet tili ta'limalda keng tarqalgan bo'lib, ta'lism samaradorligini ta'minlovchi eng muhim omil sanaladi. Bu nazoratga ko'ra o'quvchi har kuni so'rab boriladi.

Mavzuviy nazorat chet til ta'limalda dolzarb bo'lib, har bir mavzu yakunida o'tkaziladi. Bu o'quvchi tomonidan aniq mavzuning o'zlashtirib olinishi darajasini aniqlash imkonini beradi.

Oraliq nazorat ma'lum mavzulardan bir nechta yoki yarim yillik yakunida o'tkaziladi. Natijada o'quvchilarning mavzu yoki mavzu to'plamalarini o'zlashtirib olish darajalari aniqlanadi.

Yakuniy nazorat o'quv yili tugagandan so'ng o'tkaziladi va o'quvchining yil bo'yi olgan bilim, ko'nikma va malakalarining rivojlanish darjasini belgilanadi [3,210].

Tizimli ravishda o'tkazilgan nazorat o'quvchilarni har doim o'z ustida ishlashga, darsga doim tayyor turishga, o'tilgan mavzuni yoddan chiqarmay, uzoq muddat xotirada saqlashga yordam beradi. Bularning barchasi o'quvchilarda

doimiy dars tayyorlash va o'tilganlarni takrorlab turish ko'nikmasini hosil qiladi. Bu ko'nikma ta'lim jarayoniga katta yordam beradi.O'qitishni osonlashtiradi.

O'quvchilar faoliyatini nazorat qilishning quyidagi shakllari mavjud:

- 1.Individual, yolg'iz, yakka nazorat, frontal, yoppasiga nazorat
- 2.Og'zaki nazorat, yozma nazorat
- 3.Bir tilli yoki ikki tilli nazorat [3,210].

Turli nutq faoliyatları uchun nazoratning ham har xil shaklaridan foydalinish mumkin. Bir vaqtning o'zida bir nechta nazorat shakllarini ham qo'llasa bo'ladi. Bu har bir o'qituvchining o'ziga bog'liq va nazorat olib borilayotgan guruhning o'zigaxosliklaridan kelib chiqib tanlanadi.

Individual nazorat har bir o'quvchiga alohida yondashishga yordam bersa, yoppasiga nazorat bir vaqtning o'zida hamma o'quvchini baholash imkonini beradi.Bu vaqt ni tejashga yordam beradi. Tejalgan vaqt esa xatolarni to'g'irlashga sarflanadi. Og'zaki fikr bayon etish malakalari og'zaki tarzda tekshiriladi. Unda o'quvchining chet tilda fikr bildirishga harakati(o'z-o'zidan gapirib ketishi), gapirish tezligi, to'xtab/to'xtamay gapirishi, nutq vaziyatiga muvofiq/nomuvofiq fikr bayon etishi kabilar nazorat qilinadi.[2,262]

Yozma nazoratning ham birmuncha afzalliklari mavjud:

- 1.Yozma shaklda nazorat qilinganda, bir vaqtning o'zida barcha o'quvchilarni tekshirish mumkin.
- 2.Yozma ishlarni og'zaki javoblarga nisbatan ko'rib chiqish ancha qulay.
- 3.Yozma ishlardagi xatolarni tavsiflash va tahlil qilish qulaydir [3, 211].

Nazorat jarayonida ona tilining ishtiroti ham ta'qilqanmaydi. Bu esa o'quvchiga o'zlashtirilayotgan mavzu yoki matnning ayrim murakkab joylarini yaxshiroq tushunishga va aytib berishga yordam beradi.

Chet til mashqlar orqali o'rganiladi. Nazorat vaqtida ham turli mashqlardan foydalilaniladi. Bu nazoratning usullari deyiladi. Qanday mashqlarni tanlab olish tekshirilayotgan faoliyat turiga bog'liq.

Nazoratning barcha turlari,s hakllari va usullari birgalashib, bitta maqsadni ko'zda tutadi: O'quvchilarning chet tilidagi bilim, ko'nikma va malakalarini egallaganlik darajasini aniqlash, bu jarayondagi muammo va kamchiliklarni topish va bartaraf etish, bo'shliqlarni to'ldirish hamda samarali usullardan davomli foydalinish. Nazorat vaqtida ham ta'lim berib, o'quvchilarni o'ziga bo'lgan ishonchini mustahkamlash. Bir so'z bilan aytganda, o'quvchilarda xatolardan cho'chimaslik, aksincha, ularni to'g'irlash uchun ko'proq va yaxshiroq o'qishga turtki berishdan iboratdir.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:**

1. Alimov Sh, Ismoilov A. Chet tili o'qitish metodikasi fanidan ma'ruzalar. Andijon, 2007.
2. Jalolov J. Chet tili o'qitish metodikasi.Toshkent, 1996.
3. Saydaliyev S. Chet tili o'qitish metodikasidan ocherklar. Namangan, 2004.

## ERNEST XEMINGUEY VA CHINGIZ AYTMATOV ASARLARIDA TABIAT TASVIRI

*Mahliyo Tojimirzayeva Botirjon qizi  
NamDU ingliz filologiyasi 2-kurs magistrant*

### **Annotatsiya:**

Tabiat va jamiyatda shakl predmetning yashash usuli, mazmunning ichki uyushmasidir, u shunday narsaki, mazmunning unsurlarini bir-biriga bog'laydi va uningsiz mazmunning yashashi mumkin emas. Shakl mohiyatlidir, mohiyat shakldandir. Bu umumfalsafiy qoida badiiy ijodga ham taalluqli. Biz adabiy asarning mazmunini, mohiyatini uning shakli orqaligina fahmlaymiz. Badiiy asar yaratish shu hayotiy hodisa yoki g'oyani yorqin ifoda eta oladigan va uning o'quvchi zehnida yengillik bilan tug'ilishiga sabab bo'la oladigan shaklni topa olish demakdir. Ifoda etilmoqchi bo'lgan g'oya adabiy asarning mazmunidir, hamma ifoda vositalari shakli hisoblanadi. Biz maqola davomida ErnestXeminguey hamda ChingizAytmatov asarlari yuzasidan tabiat tasviri, inson va tabiatning nechog'lik bog'liqligini , baddiy asar poetikasida tabiat tasvirining o'rmini ko'rib chiqamiz.

**Kalit so'zlar:** Ernest Xeminguey, "Chol va dengiz", "Tugatish bloki", tabiat, dengiz, inson va tabiat.

Buyuk amerikalik yozuvchi va jurnalist haqiqiy voqeaga asoslangan "Chol va dengiz" falsafiy romanida inson va tabiat o'rtasidagi munosabatlar muammosiga bag'ishlangan ko'plab mavzularga to'xtaldi. O'z asarida muallif atrof-muhit bilan qanday bog'lanishning namunasi bo'lib xizmat qiladigan baliqchini namoyish etadi. Dengiz baliqchilarni ovqatlantiradi, lekin ixtiyoriy ravishda faqat elementlarni, uning tili va hayotini tushunadiganlarga yo'l beradi. Shuningdek, Santyago ovchining yashash joyi halol bo'lganligi uchun javobgarligini tushunadi va dengizdan oziq-ovqat olib qo'yganlik uchun o'zini aybdor his qiladi. Uni bir kishi ho'llash uchun akalarini o'diriyapti, degan fikr meni bezovta qilmoqda. Shunday qilib, siz hikoyaning asosi y'goyasini tushunishingiz mumkin: har birimiz tabiat bilan uzviy bog'liqligimizni anglashimiz, uning oldida o'zini aybdor his qilishimiz kerak va biz bunga javoban, aqlga asoslanib, Yer bizning mavjudligimizga toqat qiladi va bizning boyliklarimizni baham ko'rishga tayyor.

Darhaqiqat, ("Inson va tabiat muammosi") butunlay boshqacha bo'lishi mumkin. Odamning tabiatni tirik narsa sifatida qabul qilishi kabi muammoni ko'rib chiqaylik. Tabiat va inson muammolari, adabiyotdan olingan dalillar - bularning barchasini, agar siz bu haqda o'ylasangiz, birlashtirishingiz mumkin.Masalan, Ernest Xemingueyning "Chol va dengiz" asari insho uchun asos sifatida mukammaldir. Syujetning asosiy xususiyatlarini xususan : chol katta baliq ovlash uchun dengizga boradi. Bir necha kundan so'ng, u nihoyat qolga tushdi: uni go'zalakulaqarmoqda uchratdi. Chol hayvon bilan uzoq vaqt kurash olib borib, yirtqichni tinchlantiradi. Bosh qahramon uy tomon harakatlanar ekan, akula astasekin o'ladi. Yolg'iz qolganda, chol hayvon bilan gaplasha boshlaydi. Uyga

boradigan yo'l juda uzoq va chol hayvonning oilasiga aylanishini his qiladi. Ammo agar u yirtqichni bo'shatib qo'ysangiz, u omon qolmasligini va cholning o'zi ovqatsiz qolishini tushunadi. Boshqa dengiz hayvonlari och bo'lib, yaralangan akula qonining metall hidini hidlaydilar. Chol uyg'a kelganda, ovlangan baliqdan boshqa hech narsa qolmaydi. Ushbu asar odam atrofidagi dunyoga ko'nikishi qanchalik osonligini, tabiat bilan ahamiyatsiz bo'lib tuyulgan aloqani yo'qotish qanchalik qiyinligini aniq ko'rsatib beradi. Bundan tashqari, biz inson tabiat qonunlariga muvofiq harakat qiladigan tabiat elementlariga bardosh bera olishini ko'ramiz.

Kitobning birinchi jumlesiyoq (“Chol qayiqda yolg‘iz o‘zi Golfstrimdabaliq ovlardi. Dengizga chiqayotganiga mana sakson to‘rt kun ham to‘ldi, ammo hali birontabaliq tutganicha yo‘q”) kishini o‘ziga tortadi. Bu so‘zlar sodda va tuzilish jihatdan oddiy mustaqil birikma bilan qo‘silgan ikkita mustaqil va yaxshi ifodalangan gapni tashkil etadi. Bu Xeminguey adabiy uslubini tavsiflovchi umumiyl xususiyatlardir. Bu roman Don Kixotning sevgilisi Dulsineyani ko‘rish uchun yo‘lida dahshatli mahluqlarni qidirishiga o‘xshaydi. Adibning boshqa asarlarida so‘zlarni tejash, tajribani bevosita yetkazish uchun ishlatilgan bo‘lsa ham, bu asarda Xemingueyning mahorati shu qadar mustahkamlanganki, nasrning ko‘p qismi bir darajada bo‘sh bo‘lib, boshqasida ma’no bor; ya’ni jumlalar haqiqat bilan o‘ziga xos aloqani yo‘qotishga moyildir, lekin shu bilan birga ular she’riyat effektiga juda o‘xhash, umumiyl va ramziy xarakterga ega bo‘ladi. Xemingueyning uslubi nima uchun juda ko‘p sharhlovchilar uning romanini fantastika emas, afsona sifatida ko‘rishi tushuntirishga yordam beradi.

Bularning barchasi Xeminguey tomonidan mohirona tarzda aytilgan “cholda nimaiki bor bo‘lsa, bari ham eski, faqat dengiz tusini olgan moviy, mardona odamlarnikiga xos quvnoq ko‘zları bundan mustasno edi” degan so‘zlar bilan birdan o‘zgaradi. Bu muvaffaqiyatning ikki turi: tashqi, moddiy muvaffaqiyat va ichki ma’naviy muvaffaqiyat o‘rtasidagi dixotomiya e’tiborni jalb qiladi. Santyagoga tashqi muvaffaqiyat yetishmasa ham, uning ichki muvaffaqiyati bilan, bu narsaning ahamiyati butkul yo‘qoladi. Bu tinimsiz ruhning moddiy boyliklar ustidan g‘alabasi, romanning yana bir muhim mavzusidir. Bundan tashqari, Santyago ko‘zlarining rangi, Xeminguey Santyagoni dengiz bilan tobora ochiq taqqoslashidan dalolat beradi, bu esa Santyagoning cheksiz ruhi va cheksiz dengiz kuchini bevosita uzviy bog‘liq ekanini anglatadi.

Santyago va Manolin o‘rtasidagi munosabatni bir jumla bilan xulosa qilish mumkin: “Chol bolaga baliq ovlashni o‘rgatdi, bola esa uni yaxshi ko‘rdi”. Manolin Santyagoning shogirdi, ammo uning munosabati faqat ish bilan chegaralanmaydi. Manolin Santyagoga qalban sig‘inadi, ammo bu butparastlik obyekti nafaqat bir paytlar bo‘lgan buyuk baliqchi, garchi hozirgi paytda u muvaffaqiyatsizlikka uchragan bo‘lsa ham, balki g‘oyaviy sig‘inish edi. Bu Manolining cholga noyob va deyarli diniy sadoqatini tushuntirishga yordam beradi, Chol bilan baliq ovlamagani uchun Santyagodan uzr so‘raganida Manolin shunday deydi: “meni ketishga dadam undadi. Men bolaligimdan unga itoat qilishim kerak”, degan gapga Santyago javob beradi: “bilaman... Bu normal holat.

Uning ishonchi kam”. Kutilmagan tenglikning shunga o‘xshash turi, Xeminguey quruqlikda marlin va akulalar bilan ishslashning turli usullarini tasvirlab bergenida paydo bo‘ladi. Garchi bu Santyago, marlin va akula o‘rtasidagi jangni namoyish qilsa-da, u ishtirokchilarga mos keladi. Dengiz janglariga qaramay, marlin va akulalar qirg‘in qilinadi va odamlar ulardan quruqlikda foydalanadilar; ularning dushmanliklari faqatgina dengizda aktual xolos, sohilda esa bu hech narsani anglatmaydi. Santyago va Manolin misolida bo‘lgani kabi, ushbu uyg‘unlik romanda tabiatning uyg‘unligi, katta fojiada qahramonning o‘z qurbaniga yordam beradigan birlik singari tematik tashvishni namoyish etadi.

Xemingueyning asarlari inson va tabiat, kurash va qahramonlik, axloqiy kuch va yolg‘izlik, yo‘qotish va muvaffaqiyatsizlikning buyukligi bilan bog‘liq. “Chol va dengiz” ehtimol yozuvchining bu mavzular cho‘qqisidagi eng yuqori nuqtasidir. Shuning uchun ham biz har birimiz o‘zimizni uning asarlarida topa olamiz. Asarda markaziy mavzu mag‘lubiyat bo‘lsa-da, u muvaffaqiyatsiz bo‘lishini his qilganiga qaramay, oxirigacha kurashishni davom ettiradi. Bu esa, o‘z navbatida, insonga yanada ulug‘vorlik bag‘ishlaydi. Boshqa tomondan, baliq ovi cholning baliq tutish qobiliyatiga ega ekanini o‘ziga isbotlash uchun ramziy ma’noga ega, garchi u qari bo‘lsa ham, yosh yigitning kuchiga ega bo‘lmasa ham, u hanuzgacha qari donishmand ayyorligi va tajribasiga ega edi.

Chingiz Aytmatov asarlarida tabiat obranizniko‘rib chiqamiz: atrof-muhitni vayron qilib, biz o‘z hayotimizni, o‘tmishimizni, bugunimizni va kelajagimizni yo‘q qilamiz - bu muammo Chingiz Aytmatovning “Iskala” romanida ko‘tarilgan, unda o‘limga mahkum bo‘rilar oilasi tabiatning timsolidir. O‘rmonda hayotning uyg‘unligi kelib, uning yo‘lidagi hamma narsani yo‘q qiladigan odam tomonidan bузilgan. Odamlar sayg‘oqni ov qildilar va bu vahshiylilikning sababi go‘shtni etkazib berish rejasida qiyinchiliklar mavjudligi edi. Shunday qilib, ovchi o‘zini o‘zi tizimning bir qismi ekanligini unutib, ekologiyani o‘ylamasdan yo‘q qiladi va bu unga ta’sir qiladi. Aslida bu asar ko‘p narsa sodir bo‘lmaydi, lekin sizni birinchi sahifadan oxirgi sahifaga qadar butun diqqatingizni tortib oladi. Bu yerda men uchun eng kutilmagan narsa bu asarning yakuni bo‘lgan. Nazarimda, hamma narsa juda qayg‘uli tugashi kerak edi. Biroq bu ham yomon emas. Bunday yakun cholni qahramonga aylantirmaydi, lekin u engqimmatli narsasini saqlab qolishga muvaffaq bo‘lgani sababli u yutqazmaydi. Bu yerda chol oddiy odam va bu hikoyaning go‘zalligi shunda. Yozuvchi biz hozir tabiat bilan qarama-qarshilikni keskin sezishda yangi bosqichni boshdan kechirayotganimizni, bu esa ijtimoiy muammolardan chetda qolishga haqqimiz yo‘qligini ta’kidladi. Aytmatov yoshlarimiz uchun eng ko‘p tashvishlanardi. Uning fikricha, hozirgi zamon inson tajribasi va keljak idealiga yo‘naltirilgan chorrahadir. Yigit har doim ham hayotning chorrahasida harakat qila olmaydi va noto‘g‘ri yo‘ldan adashadi. Yoshlar buni tushunishga yordam berishlari kerak va bu kattalarning vazifasidir: “Hech kimyat qabul qilgan mafkuradan ajratilgan. Ammo adabiyotni hech narsadan ajratmaslik kerak”

Tabiat va sivilizatsiya olamini qutbli taqqoslash, ularni aks ettirgan asosiy obrazlarning ta’rifи 20 yil oldin “Plaha” da bo‘lgani kabi “Abadiy kelin”

romanining birinchi sahifalarida allaqachon aniqlangan. Chingiz Aytmatovning “Tog’lar yiqilganda (Abadiy kelin)” romanining asosiy harakati Tyan-Shan tog’larida, ikki azobli mavjudot - erkak va qoplonning kesishgan joylarida sodir bo’ladi. Ularning ikkalasi ham vaqt qurbanlari, vaziyat qurbanlari, o’z taqdirlarining garovchilari. Qasos olish istagi, taniqli jurnalist Arsen Samanchinni tug'ilgan qishlog’iga olib boradi, u erda qor qoplilari Saudiya neft tyunerlari uchun ov qilinadi ... Qahramon o’zining so’nggi sevgisini va ehtimol o’limini kutib olishini hali bilmagan holda tog’larga chiqadi. Va butun voqealarni qorli tog ‘dovonida ajoyib tasavvur bilan paydo bo’lgan Abadiy kelinning afsonasi bilan tanishadi ... Muallif tafakkuri asta-sekin kelib chiqishi-tabiatdan, afsona va urf-odatlardan kelib chiqadigan ibridoib madaniyat, XXI asrning pragmatik sivilizatsiyasiga to’g’ri keladi.

## KARBOMER: XOSA VA XUSUSIYATLAR

*O.Abdullayev*

*NamDU Noorganik kimyo kafedrasi k.f.n. dots.*

*S.Ergashev*

*NamDU Noorganik kimyo fafedrasi 2-kurs magistranti.*

### Annotatsiya:

Maqolada karbomerning xossalari, ishlatilish sohalari, tayyorlash usullari haqida ma’lumotlar keltirilgan. Karbomer asosan kasmetologiya va tibbiyotda foydalilaniladi.

**Kalit so‘zlar:** Karbomer, karbopol, divinil glikol, poliakril kislota, neytrallah, zichlik, yopishqoqlik, zol-gel.

Karbopollar- amorf oq kukun, hidsiz, o’zaro bog’langan akril polimerlarning hosilasi. U gidrofil erituvchilarda eriydi, suvli yoki suvli polimer muhitida sekin shishiradi. Qalinlash qobiliyatiga ega, shu sababli u dorixonada gel tayyorlashda jellovchi vosita sifatida keng qo’llaniladi. Karbopolga asoslangan jellar teriga taqsimlanganda ingichka plyonkalarni hosil qiladi, preparatning uzoq muddatli ta’sirini va PS ning bir xil chiqarilishini ta’minlaydi. Ulardan ma'lum sharoitlarda va ma'lum usullar yordamida dorixonada yengil dozalash shakllari uchun ishlatiladigan gellar olinadi. Shuningdek dars qisqartmalarida ATM (redkosshtye akril polimer) deb ataladi. Kosmetikada quyuqlashtiruvchi va jel agenti sifatida ishlatiladi. AQSh va Evropada karbopollar odatda karbomerlar deb ataladi [1.2].

Karbomer- akril kislotasining ozgina hidli, oq nozik kukuni. Polar bo’lmagan organik erituvchilarda deyarli erimaydi, suvda va qutbli organik erituvchilarda gellar paydo bo’lishi bilan ko’payadi. Shilliq qavatga ozgina tershish xususiyati beruvchi ta’sir ko’rsatadi. Karbomer yuqori molekulyar og’irlilikdagi karboksivinil polimeridir. Suvli polimer suspenziyasida 0,2 % konsentratsiyada pH 3,5 ga

teng. Neytrallash vositasi miqdori pH ni 5 dan 8 gacha sozlashi mumkin. U qutbli suyuqliklarni qalinlashtirish uchun mo'ljallangan.

Karbomer ( Carbomer )- sintetik polimer, kosmetologiyada quyuqlashtiruvchi va jel agenti sifatida ishlatiladi . Karbomerning asosiy ustunligi uning xavfsizligi bo'lib, deyarli 40 yillik foydalanish tarixi bilan tasdiqlangan. Shunday qilib, uning asosidagi mahsulotlar o'n yildan ortiq vaqt davomida quruq ko'zlar uchun dorilarda ishlatilgan [2].

Kosmetik formulalarda u emulsiyalarni barqarorlashtiradi va turli xil mahsulotlarning zichligi va yopishqoqligini tartibga soladi. Yopishqoqlikni tartibga solish va emulsiyalarni barqarorlashtirish qobiliyati tufayli karbomer quyidagi kosmetik vositalarda keng qo'llaniladi:


- Losonlar;
- Kremlar va jellar;
- Soch uchun mo'ljallangan mahsulotlar ( shampunlar, soch turmaklari);
- Dush uchun gellar;
- Yuvisht jellari;
- Soch turmaklash jellari;
- Qulay foydalanish uchun aloe jellari;

Karbomer ( Carbomer ) boshqa jel agentlariga nisbatan bir qator afzalliklarga ega:

- biologik nofaol, boshqa komponentlar va teri bilan o'zaro ta'sir qilmaydi, har qanday tarkibiy qismlarga mos keladi;
- To'liq yopishqoq bo'lмаган va kristalli toza jellar tayyorlashga imkon beradi;
- Himoya plyonkasini hosil qiladi.
- Yuqori qalinlashish qobiliyati;
- Jel tarkibining keng harorat oralig'idagi samaradorligi;
- Jellarning yuqori optik shaffofligi;
- Mikrobial ifloslanishiga qarshilik.

Kosmetik jellarni ishlab chiqarishda tarkibida tuz karboksilat va karboksil guruhlarini o'z ichiga olgan anionik polielektrolitlarni o'z ichiga olgan sintetik polimer moddalari markaziy o'rinni egalladi. Keling nafaqat kosmetik kompozitsiyalarda, balki farmatsevtika tizimlarida ham eng ko'p ishlatiladigan ushbu turdag'i jellovchi moddalar haqida batafsilroq to'xtalamiz.

PAA yuqori yopishqoqligi va biologik faol moddalar, dorilar va fermentlar bilan mosligi bilan ajralib turadigan gelning polimer matritsasini hosil qiladi va ushbu maqsadli faol moddalarning uzoq muddatli ta'sirini ta'minlaydi [64]. PAA gelini hosil qilish mexanizmi quyidagi sxema bilan ifodalanishi mumkin (1.1rasm).



1.1-rasm. Poliakril kislotaning zol-gel o'tishining sxematik tasviri (Karbomer).

Karbomer kukuni - bu qattiq bog'langan va bir-biriga bog'langan PAA makromolekulalarining globulasi. Jellashtiruvchi vositaning suvda tarqalishi natijasida makromolekulyar spiral karboksil guruhlarining gidratlanish tendentsiyasi tufayli bo'shashadi. Polimer jel strukturasini shakllantirishning yakuniy bosqichi carbomer dispersiyasiga ishqoriy tabiatning neytrallashtiruvchi moddasini (natriy gidroksidi (1.1-rasm), trietanolamin va boshqalarni) kiritishdir, bu esa dissotsilanishning yuqori darajasi bilan ajralib turadigan carbomerning kislotali guruhlarining tuz shakliga o'tishiga olib keladi. Bunday holda, PAA makromolekulalarining globulasi hajmi maksimal darajada oshadi. Bunda atrofdagi suyuqlik va mikrogel makromolekulyar zarralari muvozanat bilan ajralib turadi. Agar ularning miqdori yuqori bo'lsa, jellarning ushbu tarkibiy qismlari bo'sh hajm bo'y lab joylashgan bo'lib, natijada jelning yopishqoqligi oshadi. Jel tizimi katta agregatlar hosil bo'lganda qalinlashadi. Ushbu jarayonning tezligi juda past. Jellarni olish uchun tadqiqotchilar mahalliy ishlab chiqarilgan akril kislotasi polimerlari (Carbomer, Arespol, MARS) bilan birga xorijiylardan ham foydalanadilar - Carbopol (Carbopol) 940, 941, 2001, 2020 (Germaniya) [3].

Jel shakllarini turli sohalarda qo'llash istiqbollari ko'lamiga qaramay, kosmetik tizimlar etarlicha o'rganilmagan. Jellarni yaratish bo'yicha texnologik echimlar, tabiiy va sintetik kelib chiqadigan biologik faol moddalar va formulalar tarkibiy qismlarining ushbu kompozitsiyalar xususiyatlariiga birgalikdagi ta'siri va boshqalar haqida ma'lumot yo'q. Hozirgi kunda bunday ma'lumotlarni olish dolzarb vazifadir.

Jel tayyorlash:

Karbomerdan foydalanishning standart darajasi : 0,1%-0,25% (kremni barqarorlashtirish uchun) yoki 0,5% -1% (qattiq jel uchun), bu formulaning turiga (jel/krem) va kerakli yopishqoqlikka bog'liq. Zich gel 1% da, 0,5% da o'rta zich gel olinadi. Tarkibi: 98,25% distillangan suv 0,5% carbomer 1% trietanolamin eritmasi, 0,25% natriy gidroksidni 18%li eritmasi (NaOH) yoki eng yomon holatda, pishirish soda eritmasin ishlatish mumkin.

Ishning tartibi:

1. Distillangan suvni o'lchang.
2. Carbomer kukunini o'lchab , suvgaga qo'shing. Carbomerni bir yoki ikki soat suvda qoldiring , keyin qo'l bilan yaxshilab aralashtiring. Bir nechta bo'laklarni ko'rishingiz mumkin, ammo ular zararsizlantirilgandan so'ng darhol yo'qoladi.

3. Asta-sekin ishqor eritmasi tomchilatib qo'shing va yaxshilab aralashtring. Ish davomida pH miqdorini tekshiring, u 7 ga yaqin bo'lishi kerak. Jarayon davomida, natijada olingan jel qalinligiga e'tibor bering. Agar jel hali ham suyuq bo'lsa, kerakli yopishqoqlik darajasiga yetguncha gidroksidi qo'shishni davom eting.

4. Eng yaxshi jel tuzilishi pH =7 darajasida olinadi. 5,5 dan 8 gacha bo'lgan pH darajasida jel qoladi. Agar pH o'zgarsa, bu qiymatlarning ko'pi yoki kamroq qismi gelga aylanadi. Neytrallashgandan so'ng kuchli kislotali yoki gidroksidi tarkibiy qismlarni qo'shmaslik kerak.

5. Bundan tashqari, siz jelga moy qo'shishingiz mumkin, ammo yog'larni qo'shgandan so'ng, krem jel xira bo'lib qoladi.

Maslahatlar:

- Rangli jel qilish uchun zararsizlantirishdan oldin yoki keyin ba'zi rangli pigmentlar yoki bo'yoqlar qo'shing .
- Siz jelsi nafaqat suvga, balki o'simlik infuziyalari va choylariga ham tayyorlappingiz mumkin.
- siz suvda neytrallanmasdan karbomer eritmasini tayyorlappingiz, faol moddalarni qo'shishingiz va keyin jelsi zararsizlantirishingiz mumkin. Agar ba'zi tarkibiy qismlar past pH (yuqori kislotalilik) bo'lsa qulay bo'ladi [1.3].

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:**

1. Ляпунов Н.А., Воловик Н.В. Создание мягких лекарственных средств на различных основах. Сообщение 2. Исследование реологических свойств гелей, образованных карбомерами // Фармаком. – 2001. – № 2. – С. 52
2. Романко Т.В. Оптимизация реологических свойств адсорбционного вагинального геля на основе карбомера / Т.В. Романко, Г.В. Аюпова, А.А. Федотова [и др.] // Башкирский химический журнал. – 2008. – № 4. – С. 85 – 89.
3. <https://ru.wikipedia.org/wiki/карбополы>

## **JISMONIY TARBIYA VA SPORT BILAN SHUG'ULLANUVCHILARDA JISMONIY HARAKAT MALAKA VA KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHNING BOSQICH VA TALABLARI**

**Abdullomirzo Irisov**  
*Namangan davlat unversiteti magistirati*

#### **Annotatsiya:**

Jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanuvchilarida jismoniy harakat malaka va ko'nikmalarni shakllantirishning bosqich va talablari nazariya va amaliyotdagi jarayonlar taxlil qilinib yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** harakat malaka, ko'nikma, refleks, ijobiy ko'chirish, stereotip, texnik, taktik, nerv sistemasi, bajara olish qobiliyati.

**Annotation:**

In physical education and sports, physical movement is a stage in the formation of skills and abilities and requirements are analyzed by analyzing the processes in theory and practice.

**Keywords:** movement skills, ability, reflex, positive movement, stereotype, technical, tactical, nervous system, ability to perform

Harakatli mashqlarni harakat malakasi va harakat ko'nikmalari bo'lgan taqdirdagina bajarish mumkin. Bu malaka va ko'nikmalar harakatlarni boshqarish usullarini ifoda etadi.

Insonda harakat tajribasi va bilimlari to'planib, jismoniy jihatdan zarur darajada rivoj topgach, harakat vazifasini hal qilish imkoniyati yaratiladi. Bilim va tajribalar asosida egallagan harakat malakalari-harakat faoliyati jarayonida harakatlarni ixtiyoriy bajarish qobiliyatidir.

Demak, harakatlarni bilish, ularni bajara olish qobiliyati harakat malakasi bo'la oladi. Harakatli mashqlarni ko'p marotaba stereotip tarzda takrorlash ko'nikma hosil qilishga olib keladi.

Bunga takrorlash vaqtida harakat tuzilishiga jiddiy o'zgarishlar kiritilmagan va harakat bir xil sharoitlarda bajarilgantaqdirdagina erishiladi. Harakat ko'nikmasini bir butun harakat aktida harakatlarni boshqarishning avtomatlashgan usuli sifatida ta'riflash mumkin.

Harakatlarni har qanday sharoitda va texnik va taktik jihatdan samarali bajara olish qobiliyatini harakat ko'nikmasi deb atash mumkin.

Ko'nikma hosil bo'lishi bilan harakat aktining o'zi emas, balki harakat natijasi, bu harakat bajariladigan sharoit hamda vaziyat asosiy e'tibor berish ob'ekti bo'lib qoladi. Harakat amallarini avtomatlashtirish mashqlarnatijasiga e'tibor berish imkoinyatini kengaytiradi. Ko'nikma hosilbo'lganda ong harakatni boshlash, davom ettirishgagina ega bo'lmay harakatning har bir qismlarini bajarilishini nazorat qilish birdan o'zgargan aktlarni to'g'ri bajarish kabi vazifalarni amalga oshiradi.

Harakat avtomatlashuvibilan ko'nikma barqaror va mustahkam bo'lib boradi. Harakatni bajarish sifatini pasaytirmay ko'p takrorlash harakat ko'nikmasini mustahkamlanishini ta'minlaydi. Bu holat harakatlarni charchaganda, bedorlikda yoki ruhiy noqulay vaziyatda ham aniq bajarishniimkon beradi.

Ko'nikma hosil bo'lishi jaraenida alohida harakatlarning avtomatlashishi bilan birga vaqt va kuch sarflash xususiyati bilan bir butun harakatlarga birlashish yuzaga keladi. Bu harakatlarning yengil, ritmli, tejamli bo'lishini ta'minlaydi.

Ko'nikma o'sishining eng yuqori bosqichidasuzishda "suvni his etish", o'yinda "koptokni his etish" singari ixtisoslashgan sohaga xos tasavvurlar paydo bo'ladi. Harakat ko'nikmasinibarqarorligini harakat amali o'zgaruvchanligini ajratib olmaydi.

Ko'nikmani mustahkamlanishi bilan harakatning texnikasini saqlagan holda harakatlarni boshqa shakllari ko'rib chiqiladi va ma'qul usul mustahkamlanadi. Harakatlarning o'zgaruvchanligi yangi malakani va ko'nikmani bir butun faoliyatda qo'llash hamda har bir holat uchun ma'qul harakatlarnitanlash malakasini yuzaga keltiradi.

Ko'nikmani qaytadan tuzatish uchun bosh miya po'stining sistemaga tushib qolgan faoliyatini yo'q qilish, ba'zi grupper reflekslarning so'nishiga va ularning o'rnida yangi o'zgartirilgan guruh reflekslarni hosil qilishga erishish zarurdir. Ko'nikmalarning o'zaro aloqasi va harakat ko'nikmalari tarkib topish va qo'llanish jarayonida ko'p vaqt bir-biriga ta'sir ko'rsatadi.

Ilgari hosil qilingan ko'nikmalar ko'chish deb ataluvchi mexanizm bo'yicha yangi ko'nikmaning tarkib topishini yoki namoyon bo'lismi osonlashtirishi yoki qiyinlashtirishi mumkin.

Kichik koptokni uloqtirish, granata uloqtirishni velosipedda yurish mototsiklda yurishni erkin suzish sport suzish usullarini kabi yangi elementlarni oson va tez o'rghanishga olib keladi. Ko'nikmalarning bunday o'zaro aloqasi ijobiy samara beradi yoki "ijobiy ko'chirish" bo'ladi.

Harakatlarga o'rgatish jarayonida, "ijobiy ko'chirish" dan keng foydalaniladi. Ko'nikmalarning o'zaro ijobiy aloqasida o'rghanilayotgan harakat akti bilan ilgari o'zlashtirilgan biror harakat akti tuzilishlari o'rtasida o'xshashlik qancha ko'p bo'lsa, yangi harakat aktini o'rghanish shuncha yengil va tez bo'ladi. Harakatlarni o'rghanish izchilligini shunday rejalashtirish zarurki, bunda bir harakatni o'zlashtirish malaka va ko'nikmalarning boshqa harakatlarni o'rghanishga "ijobiy ko'chishi" ga imkoniyat yaratsin. Ko'nikmaning salbiy ko'chishi o'rghanilgan harakat malakalari yangi o'rghaniladigan harakatlar egallashda to'sqinlik qilishida namoyon bo'ladi. Ko'nikmaning o'zaro salbiy ta'sirida tuzilishi dastlabki fazalariga o'xshash va keyingilari o'rtasida katta farqlari bo'lgan harakat aktlarinio'zlashtirish jarayonida ko'nikmalarning o'zaro salbiy ta'siri tez-tez sezilib turadi. Nerv sistemasi o'z faoliyatini har doim ancha tejam bilan amalga oshirishga intiladi.

#### **Foydalilanigan adabiyotlar ro'yxati:**

- 1.Jismoniy tarbiya va sport Soliev.X. Andijon. 2001y.
2. Kushbaxtiev I.A. Valeologiya asoslari . Darslik . 2001y.
- 3.Mamatxonov A.I. Sport o'yinlari. Qo'llanma. Andijon, 2003.
4. Pulatov A. Isroilov SH. Qurbanova M. Voleybol. Toshkent. 2003.
5. Nurimov R.I. Yosh futbolchilarni texnik va taktik taylorlash. O'quv qo'llanma. Toshkent, 2005.
6. Akramov R.A.Futbol. Darslik Toshkent. 2005
7. Mirzakarimov Yu. Ommaviy sport turlari. Qo'llanma. Andijon 2013.

## MAHALLIY XOMASHYO ASOSIDA OLINGAN ILLITDA SUV ADSORBTSIYASI

*Abdullaev Komiljon Tolibjon o'g'li*  
*Namangan davlat universiteti Kimyo yo'nalishi magistranti*

### **Annotatsiya:**

Maqolada majburiy minerallardan tozalanish katta usuli va olingan adsorbentda suv adsorbsiyasi kinetikasi o'rganilgan. Turli qushimchalardan tozalangan adsorben solishtirma sirni aniqlandi.

**Kalit so'zlar:** adsorbsiya, gidroslyuda, voda, adsorbsiya kinetikasi, sorbatsion hajm.

Slyudalar tabiatda keng tarqalgan minerallardan biri hisoblanadi. Ularning yer qobig'idagi umumiyligi miqdori taxminan 3,8 % ni tashkil etadi. Tabiiy gilli jinslarni tarkibidagi asosiy minerallardan biri illitdir. Illit tuproqdagagi organik birikmalarni mikro- va makro zararli elementlardan tozalovchi adsorbent hisoblanadi. U neft va yog'larni tozalashda, xamda ularni quritishda sanoat va texnikada keng miqiyosda qo'llaniladi. Illit minerali muskovitning qisman gidrolizlanish mahsulotidan iborat bo'lgan kristal strukturasi, muskovit strukturasidan juda kam farq qiladi, u muskovit bilan montmorillonit strukturasini orasida joylashgan bo'ladi [1].

**Tajriba qism :** Adabiyotlarda keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra illit mineralining kimyoviy tarkibi:  $K_{0,75}(Al_{1,75}R)[Si_{3,5}Al_{0,50}O_{10}](OH)_2$  yoki  $K<1A_{12}[(Al, Si)_4O_{10}] \cdot (ON)_2 \cdot nH_2O$  ko'rinishga ega. Illit tarkibi tahlil qilinganda muskovit minerali tarkibiga yaqin bo'lib oktaedrik setkadagi qavatlar oralig'ida kaliy va alyuminiy miqdori kamligi hamda tetroedrlarda Al miqdorini nisbatan kamligi bilan farqlanadi. Ba'zida oktaedrlarda alyuminiy o'rinni Mg, Fe<sup>3+</sup> i Fe<sup>2+</sup> lar egallagan bo'ladi [2]. Zaryad miqdori muskovitga solishtirilganda 2:1 nisbatda bo'ladi.

Illitda K<sub>2</sub>O miqdori 6,5-9 % oraliqda bo'ladi, ta'kidlanishicha ba'zi holatlarda K<sub>2</sub>O 2,8 % bo'ladi. Bunda K o'rinni natriy va boshqa elementlar egallashi ko'rsatilgan [3]. Bunda MgO - 0 dan 4 % gacha, SaO <1%, Fe oksidlarinig yig'indisi 4% dan oshmaydi. A1<sub>2</sub>O<sub>3</sub> 25—32%, SiO<sub>2</sub> 47—54%, TiO<sub>2</sub><1%, N<sub>2</sub>O (4-10%).

Biz tadqiq qilgan illit O'zbekistonning ayrim hududlarida uchraydigan gilsimon minerallardan biridir. Tabiiy mineral tarkibida illit va boshqa minerallar mavjudligini hisobga olgan holda uni 2,5% li suspenziya tayorlab, fraksiyalarga ajratib oldik. Tarkibiga ko'ra ajratib olingen mineralarda suv molekulalarining adsorbsiyasi kinetikasini o'rgandik.

Tadqiqot uchun 50 gr illitni 2 l suvda suspenziyasini tayyorlab oldik va uni 24 soat davomida aralashtirilganidan so'ng 10 min tindirilib uni 3 ta fraksiyaga ajratib oldik. Namunalarni 150°С haroratda 16 soat davomida pechda qizdirib olindi va suvsizlantirildi so'ngra ularni havonchada kukun holatigacha maydalandi.

Olingan namunalarning kimyoviy tarkibi o‘rganilganda shu narsa ma’lum bo‘ldiki, tabiiy mineral tarkibida mavjud bo‘lgan qo‘sishimchalar miqdori tozalashda o‘zgarishi (1-jadval) solishtirilganda 2:1 nisbatda bo‘ladi. Yani  $\text{SiO}_2$  tabbiy mineral tarkibidagi massa ulushi 60,4% dan asta sekin 38,5% gacha o‘zgardi og‘ir elementlar oksidi esa kamayishi kuzatiladi masalan  $\text{MgO}$  massa ulushi 2,8% dan 5% gacha,  $\text{CaO}$  massa ulushi 2% dan 4% gacha,  $\text{FeO}$  massa ulushi esa 1% dan 5% ga o‘zgarishi kuzatildi. Negaki og‘ir metal va metal oksidlari oddiy sharoitda suvda eruchanligi past bo‘ladi.

1-jadval

**Gilsimon minerallarning kimyoviy tarkibi**


№	$\text{SiO}_2$	$\text{Al}_2\text{O}_3$	$\text{K}_2\text{O}$	$\text{Na}_2\text{O}$	$\text{MgO}$	$\text{CaO}$	$\text{FeO}$	б.к.
Illit	47-54%	25-32%	6,5-9 %	5,5-9 %	4 %	1%,	4%	%
Tabbiy mineral	60,4%	22%	2%	4,3%	3,3%	4%	3,2%	0,81%
Tozalangan 1-fraksiya	38,5%	26%	3%	3%	2,8%	2%	1%	23,7%
Tozalangan 2-fraksiya	52,4%	22%	1,5%	2%	4,4%	2,4%	1,8%	13,5%
3- fraksiya	54,4%	28%	1%	0,9%	5%	4%	5%	1,7%

**Muxokama va natijalar:** Illitga suv molekulalarining adsorbsiya kinetikasini xona harorati sharoitida o‘rgandik (1-rasm). Bunda olingan namunalar har biri alohida tajriba uchun  $150^{\circ}\text{S}$  haroratda 5 soat davomida suvsizlantirildi va yopiq idishda nisbatan sovutilib so‘ngra yuqori aniqlikdagi Sartarius elektron tarozida  $\pm 5$  mkg aniqlikda suv bug‘i adsorbsiyalanishi kinetikasi kuzatildi. Adsorbsiya jarayoninni kuzatish uchun namuna  $\sim 0,5$  g miqdorda olindi.

Suspenziyadagi pastki uchinchi cho‘kma qatlam tadqiqot uchun olinmadi, chunki suspenziya tayyorlash davomida cho‘kish jarayoni kuzatilganda eng avvalo zichligi katta bo‘lgan zarrachalar cho‘kadi. Tabiiy mineralda temir oksidlari, kvars zarrachalari va boshqa metall oksidlari borligini hisobga olsak, tayyorlangan suspenziyaning eng pastki qatlaming asosiy qismi shu metall oksidlaridan tashkil topadi. Ikkinci qatlamda (3) nisbatan katta o‘lchamdagagi og‘ir mineral zarrachalari cho‘kadi. Yuqori qatlamda esa (2) eng kichik o‘lchamdagagi va yengil zarrachalar joylashganligini kuzatish mumkin. Olingan namunalarda 293 K haroratda suv adsorbsiyasi o‘rganildi. Olingan tajriba natijalaridan foydalangan holda adsorbentning solishtirma adsorbsiyani topishda yutilgan modda miqdori adsorbent massasiga bo‘linadi:

$$a = x/m$$

bu yerda  $x$ - yutilgan moddaning gram hisobidagi massasi,  $m$  – adsorbentning gram hisobida olingan massasi.



1-rasm. Illitda suv adsorbsiyasining kinetikasi.

1-tozalanmagan tabiiy mineral;

2- suspenziyadagi yuqori katlam;

3- suspenziyadagi ikkinchi qatlama.

Bunda tozalanmagan mineralda (1) adsorbsiya jarayoni 6 soatga cho‘zilgan va adsorbsiya miqdori  $a = 2,5 \text{ mmol/g}$  ga yetgan. Ikkinchini namunada (2) esa adsorbsiya jarayoni kichik farq bilan 6 soat davom etgan va adsorbsiya miqdori  $a = 3,5 \text{ mmol/g}$  gacha olib borilgan, suspenziyaning ikkinchi qatlami - uchinchi namunada (3) esa adsorbsiya jarayoni 8 soat davom etgan va  $a = 3,75 \text{ mmol/g}$  suv adsorbsiyalangan. Uchinchi namunada dastlabki 3 soatda  $a = 3,5 \text{ mmol/g}$  suv adsorbsiyalanganligini tajribalar davomida qayd etildi.

Xulosa : Tabiiy mineral tarkibida illitni tajribalar davomida olingan natijalari avval o‘rganilgan shu turdagisi Fransiyada tozalangan adsorbentda suv adsorbsiyasi natijalari bilan solishtirib ko‘rganimizda bir biriga yaqin ekanligini kuzatiladi.

## MATN TILSHUNOSLIGIDA TARIXIY –TADQIQIY RIVOJLANISHLAR

*G’olib Abduvoxidov Gulomovich,  
NamDU Lingvistika (nemis tili) magistratura talabasi*

### Аннотация:

В статье рассматриваются историческое развитие лингвистики текста, исследования в лингвистике текста. Анализируются текстовые вопросы по разным направлениям. Говорят о влиянии лингвистических школ на лингвистику текста.

**Ключевые слова:** текстология, структурализм, лингвистические школы, лингвистические исследования, лингвистическая движение, отличительная черта текстологии, типы текста.

### Annotation:

This article deals with the historical development of text linguistics, research in text linguistics. Text questions are analyzed in different directions. They talk about the influence of linguistic schools on the linguistics of the text.

**Keywords:** textual criticism, structuralism, linguistic schools, linguistic research, linguistic movement, a distinctive feature of textual criticism, types of text.

Strukturalizm deb ataluvchi til oqimida uzoq vaqtgacha gap shajaraviy yuqori birlik sanalgan va matn e'tibordan chetda qolgan bo'lsada, zamonaviy matnshunoslik asoslarining kelib chiqishi Praga strukturalistik mакtabiga borib taqaladi. Tilning vazifalari masalasi ko'tarilishi orqali an'anaviy statistik tizimli tasvirlash ko'p ham diqqat markazda bo'lmay qoldi: Tilning jarayon va vazifaviy miqyosidan kelib chiqib V. Mathesius gapning kommunikativ shakllanishini tasvirlaydigan va keyinchalik F. Danesning mavzuviy yuksalishlar shakli asariga ko'chirilgan gap perspektivining vazifalari tushunchasini rivojlantirdi [4, 28].

Matnshunoslikning tarixiy rivojlanishi matn tadqiqotidagi turli yondashuvlar uchun muhim asoslarni yaratib beradi. Yangi tadqiqod predmeti bo'lган „matn“ boshida ko'proq shakliy-tizimli ko'rinishda sharhlanib yurilishi davomida 70-yillardan tilshunoslikda paydo bo'la boshlagan *pragmatik burilish* deb ataluvchi yangi funktional yo'nalish kuchayib ketdi va shuning bilan birgalikda matn tilshunosligidagi tadqiqotlarda uzul-kesil o'zgarishlarga olib keldi. Matn endi til tizimining shajaraviy pog'onasi sifatida qaralmasdan, balki „Alovida holda doimo ma'lum bir matn bo'lган, aniq haqqoniy-daliliy matn yasalishining ko'rinishi [...] mustaqil til belgisi sifatida kuzatiladigan bo'lди“ [3,11].

Yangi pragmatik matn masalalari lisoniy harakat ma'nosida matnning *kontekstlashuvi* va *holatliligini* old o'ringa qo'yadi: Huddi oldin Praga tilshunoslarida tilning *vazifaviyligiga* urg'u berilganidek, eng avvalo kommunikativ maqsad, jumladan ma'lum bir tildan tashqari harakatlar bog'liqligida lisoniy ifodalinishning tilga aloqadorligini maqsad qilib qo'yish.

Matnning lisoniy ifodasi va o'zaro bog'liqligi matn qurilishi qoidalariiga ta'sir o'tkazadi. Matn qurilish qoidalari gap sathidan mustaqil holda bo'lган matn shaklini tuzilish jihatdan himoyalaydi va o'zi vazifaviy jihatdan ma'lum matn turi ko'rinishida namoyon bo'ladi“ [2,73].

Lisoniy harakat nazariyasi pragmatik matn tilshunosligi uchun o'ziga hos ahamiyatga ega, lekin boshqa nazariy yondashuvlar ham o'z ta'sirini o'tkazadi. Praga mакtabining mavzu-qofiya-modeliga tayanib K.Brinker ham mavzuviy matnning rivojlanishining hilma-hil turlarini muhim *kommunikativ* va *hodisaviy* omillar orqali boshqariladi, - deb fikr yuritadi [1,61].

Turli hil lisoniy darajalarning o'zaro bog'liqligi jumladan ba'zida hilma-hil lisoniy yondashuvlarning ko'p tomonlama kirishuvi ham yangi pragmatik va kognitiv matnshunoslik tadqiqotlari uchun hosdir. Shunga ko'ra asosida yotgan bilish kerak bo'lган narsa shuki, matn darajasidagi ham strukturaviy hamda mavzuviy-mantiqiy va amaliy omillar bir hil ahamiyatga ega. Shunga mos ravishda ularni bir-biridan ajratib emas, balki ularning birgalikdagi ta'siridan kelib chiqib

o'rganish kerak bo'ladi. Umumiy olganda matnshunoslikning rivojlanishi bilan mustaqil fan sifatida tadqiqotga bo'lgan qiziqish, hamda o'zlarining amaliy maqsadi orqali „har qanday lisoniy aloqaning bazaviy birligi” sifatida ko'riliши mumkin bo'lgan matnlarning sinflashishi ham oshdi [5,252].

Yangi pragmatik oqimdag'i ko'pincha uchraydigan tanqid nuqtasi shundaki, dastlabki nazariyotchi yetakchilarga kamroq e'tibor qaratilgan va umuman olganda pragmatikaning alohida aspektlari(sabablari), eng avvalo lisoniy harakatlar jumladan kommunikativ harakatlar tadqiq qilinganligidir [2,66].

Matnshunoslikning alohida belgisi asosan tilning ichki va tashqi belgilarini matnga oid bog'liqliklarning izlanishi uchun jalb qilishidir. Har bir belgiga mos ravishda matnli tuzulmalar tasvirlanishi va sinflashtirilishi mumkin bo'ladi: O'zini „belgilarning ma'lum yig'indisi“ orqali ifodalovchi matn guruuhlarini umumlashtirib matn turlari deb ataladi [6,278]. Alohida matn turlarining aniq ihtisoslashuvi ommaviy axborot vositalari yoki mavzular orqali amalga oshsa, matn sinflashishi o'zini ko'pincha pragmatik matn vazifasiga yo'naltiradi [6,282].

K. Brinker matn turlarini „Tarixiy-ijtimoiy rivojlanishlar davomida til jamoasidagi kommunikativ ehtiyoj asosida paydo bo'lgan lisoniy muloqotning mujassam na'munasi“ deb sharhlaydi [1,129].

Lisoniy matn turlari tadqiqotining vazifasi sinflashtirish uchun mo'ljallangan belgilarni ishlab chiqish va ularni mulohaza qilishdir. Ularning asosida yotgan matniy strukturaviy tahlillar amalga oshishi, matn turlarining belgilari ko'p marta bahs-munozarada bo'lgan va hozirgacha bir to'htamga kelinmagan. Asosan ko'p sonli yondashuvlarning ko'pi matn ichiga, lisoniy jumladan mavzuviy-tuzilmaviy yoki matnning tashqarisiga, vazifaviy jumladan holat sabablariga tayanganganligiga qarab turlarga ajratadi [6, 243; 280].

Umuman olganda matnshunoslik tadqiqotlariga ko'ra matn chinakam *matn ko'rinishiga kelish* uchun quyidagi talablarga mos kelishi kerak:

1. Matnning sirtqi birligi grammatik tobeklikka tayangan holda tuzilmaviy jihatdan o'zaro bog'langan bo'lishi lozim. Bog'lovchi vositalar bular: matnning shakli, intonatsiyasi, parafraza va hakozolar.

2. Dunyoviy bilim va matn dunyosiga suyangan holda matn dunyosidagi tushunchalarni ichki mantiqiy bog'liqligi hamda ularning ma'zmuniy davomiyligini ta'minlash. Qayta yaratilishidagi ehtimoliy boshqaruv markaziy nuqtasi boshlang'ich tushunchalari - ob'ekt, holat, natija va ish harakat hisoblanadi. Bunga qo'shimcha ravishda boshqa tushunchalar ham qo'shiladi. „Matndagi bog'liqlik matn tuzuvchining aqliy jarayoni natijasidir“ [7].

3. Ma'lum maqsadga yo'naltirilgan bo'lishi.

„Tor ma'noda matnning yaratuvchisi o'zining mahsulini (matnini) tuzilmaviy va mazmuniy jihatdan matn sifatida tuzishni maqsad qiladi“ [7]. Matnni qabul qiluvchi matn egasining asl maqsadini bila olmasligi mumkin, balki unga ma'lum bir maqsadgina yetib keladi holos. Shu o'rinda matnning maqsadga yo'naltirishiga qarama-qarshi bo'lgan „moslik“ tushunchasi o'zini namayon qiladi.

4. Moslik.

“Matn qabul qiluvchining o’ziga mo’ljallangan va unga foydali bo’lgan matnni kutishga bo’lgan qarashi” [7]. Bu albatta gramatik jihatdan to’liq bo’lishi shart emas.

5. Axborotlilik.

Berilayotgan matnning kutilayotgan yoki kutilmayotgan, tanish yoki notanish narsalar to’g’risidagi axborot hajmi.

6. Vaziyatga moslik.

Omillarning jamlanmasi matnni muloqotbob qilishga mo’ljallangan bo’ladi. Matnlar mazmuniga ko’ra, faqatgina kontekstdagi o’zaro munosabatlardagina (vaziyatga qarab) matnni tuzuvchi va uni qabul qiluvchi tomonidan matn sifatida ishlab chiqiladi va qabul qilinadi. Matnning mazmuni kontekstga qarab belgilanadi.

7. Matnlararo bog’liqlik.

Bir matn boshqa bir matn bilan bog’langanmi yoki yo’q.

Hulosa qilib aytganda matnni matn ekanligini yuqoridagi shartlar asosida belgilanadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati:**

1. BRINKER, Klaus (2001): Linguistische Textanalyse. Eine Einführung in Grundbegriffe und Methoden (= Grundlagen der Germanistik; Bd. 29), Berlin.
2. FEILKE, Helmuth (2000): Die pragmatische Wende in der Textlinguistik, in: BRINKER, Klaus et al
3. . (Hrsg.): Text- und Gesprächslinguistik. Ein internationales Handbuch zeitgenössischer Forschung. 1. Halbband (= HSK; Bd. 16), Berlin, 64 – 82.
4. HARTMANN, Peter (1971): Texte als linguistisches Objekt, in: STEMPFL, Wolf Dieter (Hrsg.): Beiträge zur Textlinguistik (= Internationale Bibliothek für Allgemeine Linguistik; Bd. 1), München, 9 – 29.
5. HARWEG, Roland (2000): Strukturalistische Linguistik und Textanalyse, in: BRINKER, Klaus et al. (Hrsg.): Text- und Gesprächslinguistik. Ein internationales Handbuch zeitgenössischer Forschung. 1. Halbband (= HSK; Bd. 16), Berlin, 28 – 36
6. HEINEMANN, Wolfgang (2000a): Aspekte der Textsortendifferenzierung, in: BRINKER, Klaus et al. (Hrsg.): Text- und Gesprächslinguistik. Ein internationales Handbuch zeitgenössischer Forschung. 1. Halbband (= HSK; Bd. 16), Berlin, 523 – 546.
7. LINKE, Angelika/ NUSSBAUMER, Markus/ PORTMANN, Paul (2004): Studienbuch Linguistik (= RGL. Kollegbuch; Bd. 121), Tübingen.

## MODEL VA MODELLASHTIRISH

Dilshod Tulanov,

## *Namangan Muhandislik Qurilish Instituti akademik litseyi informatika fani o'qituvchisi*

## Annotatsiya:

Hozirgi zamonda har qanday masalani kompyuterda yechish usullarini topish mumkin. Biroq uni yechimlarini olishning turlicha usullari bo'lishi mumkin. Shuning uchun har qanday masalani modelini tuzib olish kerak bo'ladi. Model yordamida masala yechimlari osongina topiladi.

**Kalit so'zlar:** masala, model, modellashtirish, algoritmlash, dasturlash, matematik model, abstrakt model, fizik model, biologik model, iqtisodiy model.

## **Аннотация:**

Сегодня можно найти способы решить любую проблему на компьютере. Но есть разные способы решить эту проблему. Поэтому вам нужно моделировать каждую проблему. Решения проблем легко найти с помощью модели.

**Ключевые слова:** проблема, модель, моделирование, алгоритм, программирование, математическая модель, абстрактная модель, физическая модель, биологическая модель, экономическая модель.

Inson amaliy ish jarayonida ko‘plab masalalarini hal etishiga to‘g‘ri keladi. Bu masalalarning ba’zilari osongina, ba’zilari esa murakkab hisob-kitoblar orqali hal etiladi. Ba’zi masalalarni yechishda esa qandaydir amallar guruhini minglab marta bajarishga to‘g‘ri kelishi mumkin. Shuning uchun beminnat va o‘ta tez ishlaydigan yordamchimiz bo‘lmish kompyuter bizga yaqindan yordam bera oladimi, agar yordam bera olsa, ularni kompyuterda hal etish qanday tashkil etiladi, degan savollar tug‘ilishi tabiiy hol. Aslida esa kompyuter masalalarni tez hal qilish va ma’lumotlarni qayta ishlash uchun yaratilgan. Kompyuter yordamida har qanday muammoni hal qilish quyidagi bosqichlarni o‘z ichiga oladi:

- 1-bosqich: masalaning qo‘yilishi;
  - 2-bosqich: masalaning matematik modelini tuzish;
  - 3-bosqich: algoritmlash;
  - 4-bosqich: dasturlash;
  - 5-bosqich: dasturni kompyuter xotirasiga kiritish;
  - 6-bosqich: natija olish va tahlil etish.

1-bosqichda masalaning to‘g‘ri qo‘yilganligi, maqsadi va mazmuni aniqlanadi. Barcha ko‘rsatkichlar, ularning xususiyatlari o‘rganib chiqiladi. Qanday natija olinishi kerakligi hamda masalaga mos boshlang‘ich hamda natijaviy kattaliklar aniqlanadi. Masalaning aniq, to‘liq va tushunarli bo‘lishi muammoga to‘liq yechim topish imkonini beradi. 2-bosqichda masala ko‘rilayotgan sohaning ilmiy yutuqlaridan kelib chiqqan holda matematik munosabatlar orqali ifodalanadi, ya’ni barcha kattaliklar, ularning o‘zaro

bog'lanishi amalga oshiriladi va matematik model yaratiladi. Qo'yilgan masalani aniq va tushunarli hal qilish uchun kerakli matematik usul tanlanadi. Muammoni hal qilishda matematik usullarning turli xillaridan foydalanish mumkin hamda tanlangan usul, albatta, aniq yechimga olib borishi zarur. 3-bosqichda masalaning modelidan foydalanib, hal etishning algoritmi tuziladi. Muayyan ko'rsatmalarining ketma-ketligi algoritmni tasvirlash usullaridan biri orqali tasvirlanadi. Masalan, blok-sxema yoki so'zlar ko'rinishida ifodalash mumkin. Algoritm tayyor holatga keltirilgandan so'ng navbatdagi bosqichga o'tiladi. 4-bosqichda algoritmdagi ko'rsatmalarining ketma-ketligi tayyor holatga keltirilganidan keyin, uning asosida kompyuter bajara oladigan tilga o'tkaziladi. 5-bosqichda dasturlash tili yordamida tuzilgan dastur kompyuter xotirasiga kiritiladi. 6-bosqichda dastur ishga tushiriladi, natijasi tahlil qilinadi. Dasturning to'g'riligini tekshirish testlar yordamida amalga oshiriladi. Agar dasturda xato va kamchiliklar aniqlansa, ular bartaraf etiladi. Xatolar muayyan dasturlash tilida dastur yozish qoidalarini buzish bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Jarayon boshlang'ich ma'lumotlar bilan solishtirilib, to'g'ri natija olingandan keyin to'xtatiladi. Bunda modellashtirish bizga yordam beradi [1.47].

Model bu - lotincha modulus so'zidan olingen bo'lib – o'lchov, me'yor degan ma'noni bildiradi. Model - biror obyekt yoki obyektlar tizimining obrazi yoki namunasidir. Masalan, yerning modeli - globus, binoning modeli – uning qogo'zdagi chizmasi, pasportdagi suratni shu pasport egasining modeli deyish mumkin. Insoniyatni farovon hayot shart sharoitlarini yaratish, tabiiy ofatlarni oldindan aniqlash muammolari qadimdan qiziqtirib kelgan. Shuning uchun ham insoniyat tashqi dunyoning turli hodisalarini o'rganishi tabiiy holdir. Aniq fan sohasi mutaxassislari u yoki bu jarayonning faqat ularni qiziqtirgan xossalariiniga o'rganadi[2.53]. Masalan, geologlar yerning rivojlanish tarixini, ya'ni qachon, qayerda va qanday hayvonlar yashaganligi, o'simliklar o'sganligi, iqlim qanday o'zgarganligini o'rganadi. Bu ularga foydali qazilma konlarini topishlarida yordam beradi. Lekin ular yerda kishilik jamiyatining rivojlanish tarixini o'rganishmaydi bu bilan tarixchilar shug'ullanadi. Atrofimizdagi dunyoni o'rganish natijasida noaniq, va to'liq bo'lмаган ma'lumotlar olinishi mumkin. Lekin bu koinotga uchish, atom yadrosining sirini aniqlash, jamiyatning rivojlanish qonunlarini egallash va boshqalarga xalaqit etmaydi. Ular asosida o'rganilayotgan hodisa va jarayonning modeli yaratiladi. Model ularning xususiyatlarini mumkin qadar to'laroq akslantirishi zarur. Modelning taqrifiylilik xarakteri turli ko'rinishda namoyon bo'lishi mumkin. Masalan, tajriba o'tkazish mobaynida foydalaniladigan asboblarning aniqdigi olinayotgan natijaning aniqligiga ta'sir etadi[3.63].

Modellashtirish - bilish obyektlari (fizik hodisa va jarayonlar)ni ularning modellarini yordamida tadqiq, qilish mavjud predmet va hodisalarining modellarini yasash va o'rganishdir. Modellash uslubidan hozirgi zamon fanida keng foydalanilmoqda. U ilmiy tadqiqot jarayonini yengillashtiradi, ba'zi hollarda esa murakkab obyektlarni o'rganishning yagona vositasiga aylanadi. Mavhum obyekt, olisda joylashgan obyektlar, juda kichik hajmdagi obyektlarni o'rganishda modellashtirishning ahamiyati katta. Modellashtirish uslubidan fizika, astronomiya, biologiya, iqtisod fanlarida obyektning faqat ma'lum xususiyat va

munosabatlarini aniqlashda ham foydalaniladi. Modellarni tanlash vositalariga qarab uni uch guruhgaga ajratish mumkin. Bular abstrakt, fizik va biologik guruhlar. Abstrakt modellar qatoriga. matematik, matematik-mantiqiy va shu kabi modellar kiradi. Fizik modellar qatoriga kichiklashtirilgan maketlar, turli asbob va qurilmalar, trenajyorlar va shu kabilar kiritiladi[4.1]. Modellarning mazmuni bilan qisqacha tanishib chiqamiz.

1. Fizik model. Tekshirilayotgan jarayonning tabiatini va geometrik tuzilishi asl nusxadagidek, ammo undan miqdor (o'lchami, tezligi, ko'lami) jihatidan farq qiladigan modellar, masalan, samolyot, kema, avtomobil, poyezd, gidro elektro stansiya va boshqalarning modellari fizik modelga misol bo'ladi.

2. Matematik modellar tirik organizmlarning tuzilishi, o'zaro aloqasi, vazifasiga oid qonuniyatlarning matematik va mantiqiy-matematik tavsifidan iborat bo'lib, tajriba ma'lumotlariga ko'ra yoki mantiqiy asosda tuziladi, so'ngra tajriba yo'li bilan tekshirib ko'rildi. Biologik hodisalarning matematik modellarini kompyuterda o'rganish tekshirilayotgan biologik jarayonning o'zgarish xarakterini oldindan bilish imkonini beradi. Shuni ta'kidlash kerakki, bunday jarayonlarni tajriba yo'li bilan tashkil qilish va o'tkazish ba'zan juda qiyin kechadi. Matematik va matematik-mantiqiy modelning yaratilishi, takomillashishi va ulardan foydalanish matematik hamda nazariy biologyaning rivojlanishiga qulay sharoit tug'diradi.

3. Biologik model turli tirik obyektlar va ularning qismlari - molekula, hujayra, organizm va shu kabilarga xos biologik tuzilish, funksia va jarayonlarni modellashda qo'llaniladi. Biologiyada, asosan, uch xil modeldan foydalaniladi. Ular biologik, fizik va matematik modellardir. Biologik model - odam va hayvonlarda uchraydigan ma'lum bir holat yoki kasallikni laboratoriya da hayvonlarda sinab ko'rish imkonini beradi. Bunda shu holat yoki kasallikning kelib chiqish mexanizmi, kechishi, oqibati kabilar tajriba asosida o'rganiladi. Biologik modelda har xil usullar: genetik apparatga ta'sir qilish, mikroblar yuqtirish, ba'zi organlarni olib tashlash yoki ular faoliyati mahsuli bo'lgan garmonlarni kiritish va bosha usullar qo'llaniladi. Bunday modellarda genetika, fiziologiya, farmokologiya sohasidagi bilimlar tadqiq qilinadi.

4. Fizik-kimyoviy modellar biologik tuzilish, funksiya yoki jarayonlarni fizik yoki kimyoviy vositalar bilan qaytdan hosil qilishdir.

5. Iqtisodiy modellar taxminan XVIII asrdan qo'llanila boshlandi[5.1]. F.Kenening "Iqtisodiy jadvallar"ida birinchi marta butun ijtimoiy takror ishlab chiqdrish jarayonining shakllanishini ko'rsatishga harakat qilingan. Iqtisodiy tizimlarning turli faoliyat yo'nalishlarini o'rganish uchun har xil modellardan foydalaniladi. Iqtisodiy taraqqiyotning eng umumiyligi qonuniyatlarini xalq xo'jaligi modellari yordamida tekshiriladi. Turli murakkab ko'rsatkichlar, jumladan, milliy daromad, ish bilan bandlik, iste'mol, jamg'armalar, investitsiya ko'rsatkichlarining dinamikasi va nisbatini tahlil qilish, uni oldindan aytib berish uchun katta iqtisodiy modellar qo'llaniladi. Aniq xo'jalik vaziyatlarini tekshirishda kichik iqtisodiy tizimlardan, murakkab iqtisodiy tizimlarni tekshirishda, asosan, matematik modellardan foydalaniladi. Natija shundan iboratki har qanday muammoli masala

model yordamida yechimlarini topish hamda uni tahlil qilish jamiyatga foyda keltiradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:**

1. Karimov P., Irisqulov S., Isabayev A. Dasturlash (kasb-hunar kollejlari uchun o'quv qo'llanma) –Toshkent. 2013.
2. Gaipnazarov T. Ma'lumotlar ombori. –T.: 2016.
3. Fayziyeva M.R. Informatika. –Toshkent. 2020.
4. <https://qomus.info/oz/encyclopedia/m/model>
5. <https://bumotors.ru/uz/model.html>

## **O'QUVCHILARINING JISMONIY SIFATLARINI TARBIYALASH VA CHINIQTIRISH USULLARI**

**Abdullomirzo Irisov**

*Namangan davlat universiteti magistranti*

**Annotatsiya:**

Ta'lim tizimidagi umumiylar jismoniy tayyorgarlikning asosiy vazifalaridan biri o'quvchilarning jismoniy sifatlarini rivojlantirishdir.

Jismoniy tarbiya jarayonida o'quvchilarni har tomonlama jismoniy rivojlantirish tamoyili muhim ahamiyat kasb etadi. O'rta ta'lim mакtablarida o'quvchilarning ta'lim olish davrida o'smirlilik chog'ida ularga maqsadli ta'sir ko'rsatish zarur.

**Kalit so'zlar:** Jimoniylar, rivojlantirish. jismoniy sifatlar. chidamlilik .

**Annotation:**

One of the main tasks of general physical training in the education system is to develop the physical qualities of students.

The principle of comprehensive physical development of students plays an important role in the process of physical education. In high school, students need to be targeted during their adolescence

**Keywords:** "Physical education, development. Physical qualities. Endurance.

Ta'lim tizimidagi umumiylar jismoniy tayyorgarlikning asosiy vazifalaridan biri o'quvchilarning jismoniy sifatlarini rivojlantirishdir. Fiziologiya nuqtai nazaridan har tomonlama tayyorgarlik soha mutaxassisni I.P.Pavlovning ta'limotiga asoslanadi. U organizmni yaxlit sifatda ko'rib chiqadi, unda insonning barcha sifatlari o'zaro bir – biriga bog'liq, harakat sifatlaridan birining rivojlanishi boshqalarining rivojlanishiga ijobiy ta'sir qiladi yoki uning teskarisi, rivojlanishning kechikishi boshqalarini ham rivojlanishdan to'xtatadi.

Jismoniy tarbiya jarayonida o'quvchilarni har tomonlama jismoniy rivojlantirish tamoyili muhim ahamiyat kasb etadi. O'rta ta'lim mакtablarida

o‘quvchilarning ta‘lim olish davrida o‘smirlilik chog‘ida ularga maqsadli ta‘sir ko‘rsatishzarur.

Yoshga xos xususiyatlarni hisobga olgan holda jismoniy mashqlarga o‘rgatishni u yoki bu jismoniy sifatlarni namoyonqilishsamaradorligiga yo‘naltirish lozim. Ularni rivojlantirish uchun yoshga xos qulay shart – sharoitlar bo‘lishi kerak. Pedagogik tajribalar shunga guvohlik beradiki, hatto jismoniy tarbiya darsi haftada ikki marta bo‘lgan sharoitda ham o‘quvchilarda asosiy jismoniy sifatlarni rivojlantirishda ijobjiy natijalarga erishish mumkin va asosiy e‘tiborni tezkorlik, tezkor – kuch, egiluvchanlik, chaqqonlik va umumiyligini chidamlilik sifatlarini rivojlantirishga qaratish lozim.

Ma’lumki, jismoniy mashqlar barcha harakat sifatlarini, ba‘zilari esa faqat ayrim jismoniy sifatlarni rivojlantiradi.

Masalan, 30 metrga past startdan yugurish asosan tezkorlikni rivojlantirsa, shtanga bilan mashq qilish mushak kuchini rivojlantirishga yordam beradi.

Jismoniy mashqning jismoniy sifatlarni rivojlantirishga ta‘sir ko‘rsatish samarasi uning qo‘llanilish usuliyati bilan belgilanadi.

Masalan, shtanga bilan bir marotaba mashq bajarish asosan mushak kuchini va tezkor – kuch sifatlarini rivojlantiradi, shu mashqni ko‘p marotaba, lekin kamroq og‘irlik bilan bajarish kuch chidamliligini rivojlantiradi.

Harakat tezligini rivojlantirishda ma‘lum bir ijobjiy natijalarga erishish uchun ko‘proq tezkor – kuch va kuch talab qilinadigan mashqlardan foydalanish maqsadga muvofiq. Tezkorlikni rivojlantirishning asosiy vositasi – maksimal tezlikda bajariladigan mashqlardir.

Masalan, uncha katta bo‘lmagan masofalarni yugurib o‘tish, 50 – 60 metrga keskin yugurish, (startdan turib yoki turgan joyidan), 60, 100 va 200 metrga yugurish, estafeta yugurishlari, maxsus yugurish mashqlari, qumli yerda yugurish; toqqa yugurib chiqish va boshqalar.

15 – 17 yoshlilarda nisbatan qisqa muddat ichida hajmiga ko‘ra optimal bo‘lgan kuch yuklamalarining qo‘llanishi mushak kuchini 18 – 20% ga, kuch chidamliligini esa 35 – 45% ga oshirishga imkon yaratadi.

Mushak kuchini rivojlantirishning asosiy uslublari quyidagilar hisoblanadi:  
- o‘rtacha vazndagi og‘irlik bilan takroriy bajarish uslubi;

- maksimal kuchlanishlar uslubi (cheagaraga yaqin va chegaradagi vaznli og‘irliklar bilan);

- dinamik kuchlanishlar (tezkor – kuch mashqini takroriy bajarish) uslubi;

Mushak kuchi va kuch chidamliligini rivojlantirish uchun «aylanma mashg‘ulot» tavsiya qilinadi.

Umumiyligini chidamlilikni rivojlantirish o‘quvchilarning har tomonlama jismoniy tayyorgarligida muhim ahamiyatga ega.

Umumiyligini chidamlilikni rivojlantirishning asosiy vositasi uzoq davom etadigan, kam shiddatli yugurish hisoblanadi. U hamma organlar va tizimlarning funksional —chegarasini oshirish uchun ijobjiy shart – sharoitlar yaratadi va ularning yuqori darajada uyushqoqlik bilan ishlashini ta‘minlaydi. Bitta mashg‘ulotda yugurishda yo‘l qo‘yiladigan yuklamalar 15 – 16 yoshdagicha

o'smirlarda 10 km gacha masofani, 17 – 18 yoshdagilar uchun esa 12 km. gacha masofani tashkil etadi.

Chidamlilikni rivojlantirishning boshqa samarali vositalari – turli xil siklik mashqlar va harakatli sport o'yinlaridir. Umumiy chidamlilikni rivojlantirishning samarali uslubi masofani bir maromda, turli xildagi variantlarda bosib o'tish, o'yin va aylanma mashg'ulot uslublari hisoblanadi.

Maxsus chidamlilik ikki yo'nalishda rivojlantiriladi. Agar umumiy chidamlilik ko'proq siklik xususiyatga ega mashqlarni qo'llash yo'li bilan rivojlantirilsa, maxsus chidamlilik o'quvchi ixtisoslashayotgan mashq turlari vositasi orqali rivojlantiriladi. Boshqa xususiyati shundan iboratki, maxsus chidamlilikni rivojlantirish mashqlari musobaqa yoki unga yaqin bo'lgan shiddat bilan bajariladi.

Xalqimizda —Sog'lom tanda – sog'lom aql, degan ibratli maqol bor. Bu bejizga emasligi hammamizga ma'lum. Tana soğlom va chiniqqan bolsagina, odamzod ma'nан yetuk bo'ladi.

Bu fikrlarni tastig'i sifatida birinchi Prezidentimiz Islom Karimovning "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" asarida berilgan mulohazalari bilan tasdiqlash mumkin. U kishi insonning ma'naviy va moddiy holatini qushning ikki qanotiga qiyoslagandi.

Qush bir qanoti bilan yoki yaralangan qanot bilan ucholmaganidek , inson ham aqli nosoglom bolib ham, tani nosoglom bolib ham bir ishni kongildagidek qilolmasligi yaxshi misollar bilan keltirilgan .

Ilm olamida shunday fikr bor "Yoshlikda olingan bilim, toshga oyilgan naqshlar kabitidir". Tibbiyotda ham shu mulohaza oz aksini topgan. Ya'ni bolangizni qancha yoshlikdan chiniqtirsangiz, u shuncha kuchli va baquvvat boladi. Shuni hisobga olib biz bolani qanday chiniqtirish mumkin bolgan yollarni korib chiqamiz.

**Suv.** Suv bu yoshlik va yasharish belgisi. Inson tanasi qancha suvsizlansa, qarish jarayoni ham shuncha tezlashadi. Odam bir kunda ortacha 1.5 litr suv ichishi kerak. Bundan tashqari suvda olib boriladigan har xil turdagи mashqlar o'ta samarali bolib boshqa mashqlarga qaraganda samarasи ancha katta hisoblanadi. Suzishga qaratilgan mashqlardan foydalanish yoki bunga uyda sharoitingiz bolmasa, vannadan foydalanishingiz mumkin. Xullas, suvda olib boriladigan har qanday chiniqtiruvchi mashqlar foydali. Suv bilan chiniqtirishga uning haroratiga alohida e'tibor berishimiz kerak va albatta tozaligiga ham. Gigiyena qoidalariga va talablariga javob beradigan suv havzalarida cho'miltirishimiz kerak.

**Harakat.** Bola qancha kop toza havoda va harakatda bolsa, shunchalik unga foydalidir. Masalan, bogchaga yoki maktabga avtobusda yoki mashinada emas, balki piyoda borgani ma'qul. Uyda televizor qarshisida kop kino korgandan kora, kochaga chiqib fudbol oynagani yoki bolmasa tengqurlari bilan biror bir mashgulot o'ynagani ma'qul. Yakshanba kuni uy yumushlari bilan bir qatorda toza havoda, tabiat qoynidagi sayr hammasidan kora foydali. Eng asosiysi tort devor orasida emas, balki ochiq havoda kunini otkazishi kerak. Har qanday havoda ham xonani shamollatishni ham unutmang.

**Kiyim.** Kogina shamollashlarga sovuqqotishdan kora, terlash sabab boladi. Bolaning kiyimi terlatmaydigan bolishi shart. Ob – havoga moslab, tabiiy matolardan tikilgan kiyimlar bilan kiyintirsangiz ayni muddao.

**Ovqatlanish.** Bolalarda ishtaha bolgandagina ovqatlantirish lozim. Ularga majburlab ovqat yedirish yaramaydi. Ovqatning kalloriyasiga, tarkibiga, haroratiga ham alohida e'tibor bilan qarang. Vaqtida, rejim bilan besh mahal yengil va toyimli ovqatlantsangiz, sizda va ayniqsa bolangizda muammo bolmaydi. Agar farzandingiz tabiiy ravishda chiniqqan bolishini istasangiz, quyidagilarga amal qiling:

1. Bolani har qanday ob – havoga kochaga sayrga olib chiqing.
2. Bolani harakatchanlikka, harakatchan oyinlarga jalb qiling.
3. Bolani terlash darajasida kiyintirmang.
4. Vaqtida ovqatlantirish, kuch bilan ovqatlantsanggiz
5. Agar kop kasal bolayotgan bolsa, uni mashgulotlardan bo'shashtiring (chet tili, musiqa) reja bilan kun tartibini tuzib bering.
6. Bolani xonasini changdan xoli saqlashga harakat qiling .
7. Ochiq tabiat qoyniga, dengizga, ormonga dam olishga eltib turing.

Xullas, chiniqtirish davomida siz quyidaga e'tibor bering: Agar muntazam chiniqtirishni boshlagan bo`lsangiz, har kuni erinmasdan davom eting.

Davomiyligini asta – sekinlik bilan oshirib boring. Albatta shaxsiy xususiyatlarini hisobga oling, vazni, yoshi, imkoniyati, bo'yi, psixologik yondashuvibolaning mavjud bolgan kasalliklari va boshqalar.

Yuqoridagilarga e'tibor bersangiz, albatta, sizning farzandingiz sog'lom bòlib osadi. Bular esa sportchi bo'lishida, sportning ma'lum bir turi bilan doimiy shug'ullanib yurishiga imkon yaratadi.

## NEMIS TILIDAGI MATNLARDA ARTIKELNING AHAMIYATI

*Abduvoxidov G'olib Gulomovich,  
NamDU Lingvistika (nemis tili) magistratura talabasi*

### Аннотация:

В статье рассматриваются функция артикли в немецких текстах, порядок и условия ее использования в различных текстах. Освещены проблемы взаимосвязи текстов и роль артикли во взаимосвязи текстов.

**Ключевые слова:** функция артикли в тексте, грамматическая структура текста, порядок использования, традиционный подход, разные взгляды на систему артиклей, текстграмматические концепции, общие особенности предложений.

### Annotation:

This article discusses the function of the article in German texts, the procedure and conditions for its use in various texts. The problems of interrelation of texts and the role of an article in interrelation of texts are highlighted.

**Keywords:** function of the article in the text, grammatical structure of the text, order of use, traditional approach, different views on the system of articles, textgrammatical concepts, general features of sentences.

So'ngi yillarda tilshunoslik tadqiqotlarida matnga bo'lган qiziqish tobora ortib borayotganini aniqlash mumkin. Bundan o'ttiz yillar oldin ham tilshunoslari asosan gap va gap tuzilishlari bilan shug'ullangan bo'lsalar, bugunga kelib matnga ko'proq e'tibor qaratmoqdalar. Ular matnni har taraflama eng avvalo tilshunoslik jihatidan sharhlashga, tahlil qilishga harakat qilmoqdalar.

Matnlar to'g'risidagi fan hisoblangan, matnlarning ko'p sonli alohida sabablarini o'rganishi kerak bo'lган matnshunoslik ko'pgina ilmiy kitoblarda va manbalarda turli maqsadlar va nazariy yondashuvlar orqali taqdim qilinadi.

Quyidagi maqolada matnning grammatik tuzilishi, jumladan artikelning matndagi vazifasi va uning turli hil matnlardagi qo'llanish tartibi, shartlari haqida so'z boradi.

Nemis tilida artikel masalasi tilni o'rganuvchilar uchun juda muammoli masala hisoblanadi. Quyidagi maqolada dastavval artikeli matnlarda qo'llanilishi bilan tanishtiriladi va tahlil qilinadi. So'ogra matnlarning o'zaro bog'liqligidagi muammolari va artikeli matnlarning o'zaro bog'lanishidagi roli haqida so'z yuritiladi.

XX asrning 60-yillari o'rtalariga qadar tilshunoslikdagi ko'pgina nazariyalar yangi talqinlarda ko'proq an'anaviy tilshunoslik sifatida tasvirlanar edi. Bunda gap lisoniy tadqiqotning asosiy birligi deb qaraladigan tizimga qaratilgan tilshunoslik (De Saussure dan Xomskiyga qadar) tushiniladi.

An'anaviy yondashuvlarda artikel otning matnlardagi hamrohi sifatida ko'rildi va quyidagicha formula yordamida bayon qilinadi:

**aniq artikel**

**der** + birlik die + ko'plik

**die** + birlik

**das** + birlik

**noaniq artikel**

**ein** + birlik. Ko'plik mavjud emas

**eine** + birlik

**ein** + birlik

Ushbu misolda ikki hil ko'rinishni jins va sonni mavjud ekanligini bilib olish mumkin.

Jins masalasida gap borar ekan, artikel berilayotgan otning grammatik jinsini ko'rsatib berishiga urg'u beriladi. Ba'zan nemis tilida otning tugash qismidan uning jinsini aniqlab olsa bo'ladi, shunga qaramasdan artikel ko'p hollarda otning jinsini aniqlovchi yagona vosita hisoblanadi:

**der Ritter** (ritsar)

**der Käse** (pishloq)

**der Baum** (daraht)

**die Schwester** (opa,singil)

**die Dose** (idish)

**die Maus** (sichqon)

**das Wetter** (ob-havo)

**das Auge** (ko'z)

**das Haus** (uy)

So'nggi matnga yo'naltirilgan qarashlarda artikelga til tizimidagi boshqa vazifalar ham yuklatiladi, lekin artikel tizimida jinsni birga tasvirlashga tabiiy muhtojlik

yo'qligi qayd etiladi. Masalan, ingliz tilida Artikel tizimida jins munosabati mavjud emas. Rus tilida esa artikel degan tushunchani o'zi mavjud emas. Nemis tilining o'zida ham ko'plikda artikel masalasi neytrallashtirilgan va bu tilning vazifaviyligiga halaqit bermaydi. Sanoq masalasida ham huddi shunday hisoblanadi. Nemis tilida ko'plik **die** articeli shaklida, shu jumladan artikel ishlatmaslik orqali birlikdan farqi ajratib qo'yiladi. Boshqa tillarda, masalan rus yoki slavyan tillarida son munosabati mavjud, artikel shaklining yo'qligi muloqotda hech qanday muammolarni keltirib chiqarmaydi.

Nemis tilidagi artikel tiziminig boshqa ko'rinishlari kelishiklar orqali yasaladi; aniq artikelda der: des:dem:den, noaniq artikelda ein:eines:einem:einen ko'rinishda bo'ladi.

Tahlillardan kelib chiqib savol tug'iladi, yuqorida keltirilgan artikelning vazifalari, jumladan otlarning grammatik tasvirlanishi tilda, gapda, keyingi yondashuvlarda va matnda ahamiyat kasb etadimi yoki yo'qmi?!

Artikelni ifodalashda otlarning grammatik jihatdan aniq va noaniq munosabatlari nemis tilli bo'limgan olimlarning ishlarida o'z ifodasini topadi. Masalan rus olimlari V. Admoni, V. Jarnatovskaja, O. Maskalskaja o'zlarining ilmiy yondashuvlarida artikel muammosini yechimini topishga harakat qiladilar.

Ona tili nemis tili bo'limganlar uchun qayerda aniq va qayerda noaniq artikelni ishlatish yetaricha muammo keltirib chiqarishi haqida uqtirib o'tadilar. Mana shunday qarashlar bilan nazariy va didaktik asos qo'yiladi. Matndagi artikel ta'sirining doimiyligi qisqa shaklda tasvirlab beriladi [1].

Bu qarashlarga ko'ra ot turli ko'rinishda aniqlik yoki noaniqlik munosabatda ishlatilishi mumkin. Miqdoriy munosabatlardan kelib chiqib tilshunos rus olimi V: Propp aniq va noaniq artikellarni qo'llanishini kuzatadi[1,56]. Bu nazariyaga ko'ra otlardagi noaniq artikelning qo'llanilishi vazn jihatdan o'ziga o'hshash narsalardan farq qilmaydigan, ajralmaydigan, shu orqali grammatik jihatdan noaniq deb belgilanadigan narsaga bog'liq bo'ladi. Aniq artikellar esa ot so'z turkumi deb aniqlangan predmetni yagona va grammatik aniq tarzda ifodalaydi.

Ushbu nazariyaning o'ziga hos qiziqarli tarafi shundaki, barcha orqa fondan ajratib ko'rsatilgan predmet ya'ni ot aniq artikel bilan ifodalanadi va shu paytdan boshlab boshqa o'hshash predmetlarga bog'liq munosabatda bo'lmaydi.

Shu orqali bu yondashuv otlarning tabiatan ma'no jihatidan mutloq ajratib bo'lmasligini inkor etadi. Ya'ni garchi har bir so'z aniq ma'noni ifodalab kelsa ham, matnda umumlashtiruvchi harakterga ega bo'ladi. Shu taqlidda so'zning umumiyligi va o'ziga hoslik birliklari e'tibordan chetda qolib ketadi.

Boshqa bir qarashda artikelning asosiy vazifasi sifatida otlarning boshqa ularni belgilovchi predmetlarga, ko'rinishlarga turli hil bog'liqlilikni ifodalash deb qaraladi. Bu yondashuvga binoan otlar tushunchasida bog'liqlilik va bog'liq bo'limganlik sifatlari ajratiladi[2,44].

Artikelning qo'llanmagan shakli otni o'zining umumlashtirilgan ma'nosiga bog'liqlilik munosabatini ifodalaydi:

*Mensch sein heisst denken (inson bo'lmoq, tafakkur qilmoq degani).*

Aniq artikel ma'lum bir holatdagi aniq munosabatni amalga oshiradi:

*Der Tisch in meinem Zimmer steht am Fenster (Honamdagি stol deraza yonida turibdi).*

Noaniq artikel noaniq munosabatga ishora qiladi, ya’ni ot matnda mavjud bo’lgan har bir predmetga bog’liq bo’lishi mumkin.

Ushbu nazariyalarda artikel ma’lum bir lisoniy holatlarda sinonim bo’lishi mumkin bo’lgani holatda, artikelning qo’llanilish holatlari aniq tarzda bir-biridan chegaralab qo’yiladi.

Boshqa bir nazariyalarga ko’ra matnda yangi ko’rinish bergen va tinglovchiga notanish bo’lgan ot bo’lsa, grammatic noaniqlik bo’ladi. Grammatic aniqlik esa matnda oldin qo’llanilgan ot tomonidan ishlataladi va aniq artikel orqali ifoda qilinadi. Bu holat ko’pincha tinglovchi va so’zlovchining habardorligi, jumladan tinglovchining behabarligi sifatida ifodalaniladi[3,78].

Bunda otlardagi aniq artikel quyidagilarni habar qilishi kerakligi haqida so’z boradi, ya’ni so’zlovchi/yozuvchi va tinglovchi o’quvchi bir va oldindan ma’lum darajada habari bor narsa haqida fikr yuritadilar. Noaniq artikellar qo’llanishida predmet so’zlovchi va tinglovchiga noma’lum holda tasvirlanadi[4,21].

Bunday yondashuvlarda grammatic aniqlik otlar tomonidan matnning o’zida va kontekstlar orqali ishlatalishiga urg’u beriladi. Bu ma’lum ma’noda matnshunoslikka, matngrammatikasiga yaqinlashishga ishora deb tushuniladi.

Matn grammaticasi ko’pgina gaplarning grammaticasi sifatida tushunilgan. Matngrammatik tushunchalar “matnlar asosida o’zaro bir-biriga uzbek munosabatlarda bo’lgan gaplarning oddiy bog’lanishi” degan qarshdan kelib chiqadi. Bu nazariy asosdan oldin “gaplarning yig’indisi” va “gap qatorlari ichidagi o’zaro bog’lanish” matnlarni muhim harakteristikasi deb qaralgan[4,28]. Shundan kelib chiqib gaplarning bog’lanish muammosi matn tuzish jarayonining asosi va sharti sifatida qaraldi. Shunga mutanosib ravishda umumiyligi matn belgilari yahshi shakllanganligi ham ma’lum prinsiplarga ko’ra bir-biriga birikkan lisoniy birlikning o’zaro bog’langan qismi sifatida ko’rildi[4,47-146]. Yaxshi shakllangan matnning tuzilish prinsiplarini tushuntirish uchun turli yondashuvlar tarafidan turlicha matnning tuzilishiga oid g’oyalar o’rtaga tashlandi, turlicha fikrlar bildirildi.

Matn grammaticasiga oid izlanishlarning markazida alohida bo’lgan grammatic birliklar matn turlarining tuzilishiga va shu bilan matnlarning bog’lanishiga hissa qo’sha oladimi degan savol turadi[5,34].

Gaplarning global hususiyatlari (ohang, gap aktsenti, urg’u va lisoniy birliklar o’rtasidagi qarama-qarshilik, gap bo’laklari joylashuvi, tanish va notanish axborotlarning ifodasi, gap qismlarining qoldirib ketilishi) bilan birkalikda alohida bo’lgan elementlar masalan, bog’lovchilar, olmoshlar ravishlar, savol va javob yuklamalari, shularning orasida artikellar ham shunday matn tuzuvchi elementlar yoki matn tuzuvchi vosita sifatida qaraladi[6,28]. Bunday kuzatuvlarda artikel ko’plab gaplarga yoki butun bir matnga ta’sir qiluvchi va matnlarning ichki mutanosib bog’liqligini tashkil qiluvchi grammatic fenomenlarga tegishli deb hisoblaniladi.

Matnshunoslik yondashuvlarida artikel kommunikatsiyani boshqarish vazifasini oladi[7,47]. Bunda matnni qabul qiluvchi (eshituvchi yoki o'quvchi) matnni qabul qilishda matndagi kelgusi axborotlarning qayerda joylashishini ko'rsatadi. Kuzatuvlarda bog'liqlilik va mazmunan aloqadorlik matnning ikki asosiy belgilari sifatida, lisoniy belgilarning munosabatlari va lisoniy belgilarga aloqador munosabatlar bog'lovchi, jumladan matndagi mantiqiy bog'liqlik munosabati sifatida aniq bo'ladi, artikel har ikkala munosabatlarni ifoda etuvchi vosita sifatida haddan ortiq ahamiyatga ega[7,63]. Olib borilgan izlanishlar artikellarni bexato ishlatish kerakligini tasdiqladi, chunki u matnning mazmunan hamda lisoniy bog'liq bo'lgan matnning kelib chiqishi uchun katta ahamiyatga ega. Shuning uchun ham nemis tillik bo'limganlar uchun mo'ljallangan nemis tili darslarida artikelni qo'llash muammosiga ko'proq e'tibor qaratish lozim bo'ladi. Buning uchun albatta yahshigina nazariy asos kerak bo'ladi.

.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:**

1. Bußmann, Hadumod. Lexikon der Sprachwissenschaft. 2. Aufl. Stuttgart. Kröner. DUDEN. Grammatik der deutschen Gegenwartssprache. Dudenverlag (= Duden 4), Mannheim/ Wien/ Zürich, 1984.
2. Heinemann, Wolfgang/ Viehweger, Dieter. Textlinguistik: eine Einführung. Niemeyer, Tübingen, 1991.
3. Isenberg, H. Einige Grundbegriffe für eine linguistische Texttheorie. Probleme der Textgrammatik. In. F. Danes u. D. Viehweger (Hrsg.). Berlin, 1976.
4. Jarnatovskaja, V. E. Das Substantiv. Wisschaja schkola. Moskau, 1981.
5. Moskalskaja, O.I. Textgrammatik(Grammatika teksta). Übers. U. hrsg. Von H. Zikmund. Leipzig, 1984.
6. Vater, Heinz. Einführung in die Textlinguistik. Struktur, Thema und Referenz in Texten. 2., überarb. Aufl. Fink. München, 1994.
7. Weinrich, Harald. Textlinguistik. zur Syntax des Artikels in der deutschen Sprache. In. Jahrbuch für Internationale Germanistik H. München, 1969.

## O'QUVCHI-YOSHLARNI VOLEYBOL SPORT TURIGA TANLAB OLISHNING METODIK XUSUSIYATLARI

*Zafar Mavlonov G'ulomovich,*

*Sodiq Turg'unov Sobirovich*

*Namangan muhandislik-qurilish instituti*

*akademik litseyi o'qituvchilarini*

*Obida Mavlonova Dedaxonovna*

*Namangan davlat universiteti Maktabgacha*

*va boshlang'ich ta'lim fakulteti o'qituvchisi*

### **Annotatsiya:**

Mazkur makolada jismoniy tarbiya darslari va sinfdan tashkari mashg'ulotlarda umumta'lim maktablari o'quvchilari orasidan iste'dodli yoshlarni voleybol sport turiga tanlab olish yuzasidan ko'rsatma va takliflar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** jismoniy tarbiya, o'quvchi, saralash, usul, vaqt, sinf, yosh, sport, voleybol, rivojlanish, tanlash, mashg'ulot, natija, sifat.

### **Annotation:**

In this article, the suggestions to select the talented students to volleyball game among the secondary school children are presented.

**Keywords:** Physical education, pupil, selection, time, class, age, sport, volleyball, development, choose, the result of training.

Yosh sportchilarni sportning o'yin turlariga tanlash va mo'ljallashda ma'lumki maktablarda jismoniy tarbiya darslari asos bo'lib xizmat qiladi va yangi samarali uslublardan foydalanishni takazo etadi. Ayniqsa, voleybol sport turi hozirgi kunda yildan-yilga raqobatning jadal keskinlashuvi bilan muhim o'ringa ega. Bu o'yinlar paydo bo'lishidan to hozirgi kungacha takomillashib xalqaro musobaqalar davlat reytingini belgilab berish darajasida e'tirof etiladi. Voleybol sport turi buyicha o'tkazib kelinayotgan milliy championatlar va o'ta nufuzli xalqaro musobaqalarda yuksak natijaga erishish uchun jismoniy potensial zaxirasini kuchaytirish va kengaytirish, eng asosiysi sportchilarni saralab olishda muhim o'rinn tutadi. Bu omil jismoniy tarbiya mashg'ulotlarida maktab o'quvchilarni voleybol sport musobaqasiga tanlab olishda muhim manba hisoblanadi.

Butun jahon mamlakatlarida nafaqat voleybol, shuningdek sport turlariga ham saralab olish amaliyotida maktab o'quvchilari ushbu jarayonning asosini tashqil qiladi va boshlang'ich tayyorgarlik davrida o'smirlarning jismoniy tayyorgarlik darajasini oshirish mexanizmlaridan foydalanib yosh o'quvchilar ichidan iqtidorli sportchilarni saralab olish va voleybol sport turini o'rgatishning samarali usullarini tatbiq qilish eng muhim vazifadan hisoblanadi. Rivojlangan davlatlar orasida shunday klublar borki, o'smirlarni hatto 4-5 yoshidan boshlab mashg'ulotga qobiliyati borligini va genetik prognoz orqali saralab olish jarayonlari amalga oshiriladi. Shuningdek, bu jarayonga kompleks tarzda zamонавија yondashish zarurati yuzaga kelmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 3-iyundagi “Jismoniy tarbiya va sportni yanada rivojlantirish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi PK-3031 son qarorida belgilangan vazifalarni muayyan darajada bajarish shuningdek, Respublikamizda sport o‘yinlari (voleybol, futbol, basketbol, gandbol) sport turlari tizimida sportchilarni saralash eng dolzarb muammolardan biri sifatida qaraladi. Shu jumladan bolalarning har tomonlama intellektual rivojlanishida yosh avlodni shakllantirish, jamiyat rivojiga mos barkamol shaxsni voyaga yetkazishga barcha imkoniyatlар yaratilmokda. Ayniqsa, umumta’lim maktablari o‘quvchilari orasidan iste’dodli yoshlarni saralab olish maqsadida sport to‘garaklari va seksiya mashg‘ulotlarini tashqil etish, sportga ixtisoslashtirilgan (voleybol, futbol, gandbol, basketbol va xakazo) sport maktablariga, ta’lim muassasalari va sport klublariga iqtidorli yosh avlodni tizimli ravishda tanlab olish chora tadbirlari qisman darajada ishlab chiqilgan. Shu boisdan umumta’lim maktablari orasidan iste’dodli yoshlarni saralab olish BO‘SM zaxirasini shakllantirish maqsadida maktablarda sport to‘garaklari va seksiya mashg‘ulotlarini tashqil etish, sportga ixtisoslashtirilgan sport maktablariga, ta’lim muassasalari va sport klublariga iqtidorli sportchilarni qabul qilish jarayonlarining shaffofligini va xolisligini ta’minalash yuzasidan doimiy ravishda ta’sirchan choralar ko‘rish hamda choraklar yakunlari bo‘yicha tanqidiy taxliliy muhokamadan o‘tkazish vazifalari yechilish tizimi amalda bajarilishi lozim.

Jismoniy tarbiya jarayonida o‘quvchilarni saralashning pedagogik jihatdan tashqil etilishi va yo‘naltirilishi dolzarb ijtimoiy-pedagogik muammo hisoblanadi. Masalan:

- jismoniy tarbiya mashg‘uloti jarayonida o‘quvchilarni saralab olish metodlarining to‘g‘ri shakllantirilmaganligi;
- maktab o‘quvchilarining voleybol sport mashg‘ulotlarida bolalarning bazaviy saralab olinishiga doir nazariy va amaliy ishlar jarayonining amalga oshirilmaganligi;
- o‘quvchilarni alohida voleybol sport turi bo‘yicha mashg‘ulotlarga qobiliyatli bolalarni saralab olishning takomillashtirilmaganligi;
- maktab o‘quvchilari ichidan voleybol sport turi bo‘yicha saralashning turli bosqichlarida yosh xususiyatlariga mos xarakatli o‘yinlar tizimi ishlab chiqilmaganligi;
- voleybol sport turida saralash mezonlari va uni tashkil etish monitoringining tizimlashtirilmaganligi shular jumlasidandir.

Yosh voleybolchilar jamoasini shakllantirishning dastlabki bosqichida o‘yinli harakatlar, mehnat va ayni paytda o‘quvchilarning mashg‘ulotga moyilligi yuqori bo‘ladi. Ularning har birini mukammallik, harakat uyg‘unligi, sportning u yoki bu turining negizi deb hisoblaymiz. Biroq jismoniy tarbiya va sport musobaqalarda ko‘rsatkichlarni, sport maxoratining natijasini to‘laligicha namayon qila olishi uchun o‘quvchilarni jismoniy tarbiya darslarida va mashg‘ulotlar jarayonida psixologik va pedagogik tarbiyalashda jismoniy tarbiyaning metod va vositalaridan to‘g‘ri foydalanish asosida tashqil etish maqsadga muvofikdir. Shuningdek, maktab jismoniy tarbiya mashg‘ulotlari

jarayonida o‘quvchilarni voleybol sport turiga tanlab olishda kuyidagi mezonlarga e’tibor berish muhim masalalar sirasiga kiradi:

- jismoniy tarbiya mashg‘uloti jarayonida o‘quvchilarni saralab olish metodlarini to‘g‘ri shakllantirishda maktablarda jismoniy tarbiya darslari va darsdan tashkari mashg‘ulotlar o‘quvchilarni sport turlariga saralab olishning asosiy negizi hisoblanadi. Chunki har bir o‘quvchi o‘z qobiliyatlarini ushbu jarayonlarda namoyon etadi. Zamonaviy yosh voleybolchilarni tanlab olishda tezkor, harakatchan, texnik sezgiga va birgalikda harakatlar bajarishda yuksak rivojlangan qobiliyatga ega bo‘lgan shuningdek, mashg‘ulot jarayonida dastlabki harakatni to‘g‘ri boxolash muhim axamiyatga ega. Sport turini tanlashda nasliy va muxit omillarini hisobga olish hamda harakatlanish, harakatlarga o‘rgatishning konuniyatlarini hisobga olish zarur;

- maktab o‘quvchilarining voleybol sport mashg‘ulotlarida bazaviy saralab olinishiga doir nazariy va amaliy ishlar jarayoni mexanizmi nuqtai nazardan qaraydigan bo‘lsak, yosh voleybolchilarni keyingi bosqichma-bosqich tanlash va tayyorlash bo‘lajak jarayonga tayyorgarlik kabi muhim ma’suliyatli vazifa hisobga olinishini ko‘rsatadi. Ko‘p yillik bosqichma-bosqich reja asosida tayyorlash davomida yosh sportchilar individual layoqatlarini rivojlantirish, hayotiy muhim qobiliyatlarini ko‘p yillik tayyorgarlikning keyingi davrlarini tanlashda muhim omil hisoblangan organizmning rezerv imkoniyatlarini maksimal namoyon etish uchun sharoit yaratish lozim;

- maktab o‘quvchilarini alohida voleybol sport turi bo‘yicha mashg‘ulotlarga qobiliyatli bolalarni saralab olish va tayyorlashning uzaro bo‘flikligi shu fullanuvchilarni bosqichma-bosqich tanlashni va ularning jismoniy sifatlarini rivojlantirish, tanlangan sport turida texnik va taktik maxoratini egallash va takomillashtirishni kuzda to‘tadi. Vazifalar bo‘yicha yosh voleybolchilarni tayyorlash boshlayetich davri mazmuni muhim axamiyatga ega. Dastlabki tayyorlov davrida tayyorlash jarayoni bolalarning jismoniy rivojlanishlariga, tayanch harakatlanish apparati mustaxkamlanishiga, jismoniy sifatlari tarbiyalanishiga (tezligi, kordinatsion qobiliyatları, chakkonligi va boshkalar), shu jumladan, voleybol o‘yinida texnika asoslarini egallahda zarur bo‘lgan maxsus jismoniy sifatlarni va qobiliyatlarini tarbiyalashga yordam beruvchi vositalardan foydalananishdan iborat bo‘ladi;

- maktab o‘quvchilari orasidan voleybol sport turida saralash mezonlari va uni tashqil etish monitoringi tajriba-sinov va matematik statistik tahlillashda asosan yosh voleybolchilarning bo‘yi balandligi, sakrovchanligi, harakatchanligi, tirishqoqligi, intizomliligi, jismoniy, texnik hamda taktik tayyorgarliklari darajasini, koordinatsion qobiliyati, aqliy, psixologik, intellektual sifatlari, tezkor fikrashi, ijodkorligi, vaziyatni oldindan ko‘ra bilish, mustahkam diqqatlichkeit qobiliyatlarini ifodalovchi ko‘rsatkichlarni o‘lchash orqali amalga oshiriladi. Bunday yondashishning to‘g‘rililagini amalda bajarishda har bir yildan so‘ng yosh voleybolchilarni tayyorlashda kamchiliklarni to‘g‘rilab borish, tuzatishlar kiritish mashqlar komponentlari hajmini to‘g‘ri taqsimlash, o‘rganilayotgan texnik uslublar va taktik harakatlar to‘plamini kengaytirish masalasi hal etilishi lozimdir.

Mana shunday mazmunda ko'p yillik kuzatishlar va tajribalar asosida har tomonlama o'rghanish va aniqlash orqali natijali voleybolchilar yuzaga kelish sifatlari yangilanib boradi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, yosh avlodning ya'ni shaxsning ijobiy va ijodiy sifatlarini hosil qilish va tarbiyalashga bo'lgan talablar ushbu ko'rsatilgan samarali usullarni qo'llash bilan erishiladi. Shuni ta'kidlab o'tish joizki, umumiy o'rta ta'lim maktab o'quvchilari orasidan voleybol sport turiga tanlab olishda va tarbiyalashda jismoniy tarbiya darslari hamda sinfdan tashqari mashg'ulotlarda yuqorida keltirilgan mezonlari asos bo'lib xizmat qiladi.

## **O'RTA MAKTAB O'QUVCHILARINING INGLIZ TILI O'RGANISHDA DUCH KELADIGAN QIYINCHILIKLARI**

*Adiba Abdurahimova Qodirjanovna,  
Namangan viloyati To'raqo'rg'on tumani  
17-sonli Davlat ixtisoslashtirilgan maktab-internati  
o'qituvchisi va direktor o'rinnbosari*

2012-yil 12-dekabrdagi “Chet tillarni o'rghanish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari” to'g'risidagi Prezident qaroriga muvofiq yurtimizda yosh avlodga xorijiy til o'rgatish yanada kuchaytirildi. Biroq chet til o'rgatish juda mas'uliyatli kasbdir. O'qituvchilar juda bilimli va shu bilan bir qatorda sabrli bo'lislari lozim. Chunki bolalar til o'rghanish davomida ko'plab qiyinchiliklarga duch kelishlari tabiiydir.

Ma'lumki, ingliz va o'zbek tillari turli til oilalariga mansub. Bu esa til o'rghanuvchilariga fonetik, leksik va grammatik qiyinchiliklarga sabab bo'lishi mumkin. O'rta maktablarda talaffuzni o'rghanishda o'quvchilar talaygina qiyinchiliklarga duch keladilar.

Jumladan: [θ] va [ð] tovushlarini o'rghanishda deyarli barcha o'quvchilar qiynaladilar. Bunga sabab o'zbek tilida tish oralig'i tovushlarining yo'qligi. Bizning bolalarimiz tili bu tovushlarning talaffuziga ko'nikma hosil qilmagan. [r] tovushining ingliz tilidagi talaffuzi o'zbek tilidagi r dan farq qilgani uchun o'quvchilar bu tovush talaffuzida ham qiynaladilar. [t, d] tovushlarining talaffuzi ham ikkala tilda bir xil emas. Shuning uchun ularning talaffuz etilshi ham ba'zi o'quvchilarga qiyinchilik tug'diradi. [w] tovushi ham o'zbek tilida mavjud emas. Bu tovushni to'g'ri talaffuz qilishda ham o'quvchilar bir oz qiyinchiliklarga duch keladilar. Uni talaffuz etishda o'zbek tilidagi [v] bilan adashtiradilar. Yuqorida keltirilgan tovushlarni to'g'ri talaffuz qilishni o'rgatish uchun o'qituvchi tilning joylashuvini imkon qadar amalda ko'rsatib bolalarga aniq tushuntirib berib, takrorlash mashqlari orqali mutazam tekshirib, o'quvchilarning talaffuziga har dars alohida e'tibor berib borsa, mazkur tovushlardagi qiyinchiliklar ham bartaraf etiladi. Bundan tashqari quyidagi holatlar ham o'quvchilar uchun fonetik qiyinchiliklarni yaratadi: e harfining so'z ohirida talaffuz etilmasligi — apple, Pete; gh harf birikmasining so'z o'rtasida o'qilmasligi — eight, night; k harfining so'z boshida n dan oldin talaffuz etilmasligi — knock, knee va bir qator boshqa

qiyinchiliklarni kuzatish mumkin. Tajribamga tayanib shuni ayta olamanki, o'zbek o'quvchilarning aksariyat qismiga xos bo'lgan qiyinchilik bu ko'plik yoki zamon yasovchi qo'shimchalar qo'shilgandagi talaffuzida suffikslardan oldin [θ] tovushini qoshib talaffuz etishlaridir: books [bu'kθs], happened [hæpθ'nθd]. Ko'rinib turibdiki, bunday keraksiz tovushni qo'shish orqali ular so'z urg'usining ham o'rnini o'zgartirmoqdalar. O'quvchilarning transkripsiyanı o'qiy olmasliklari ham alohida bir muammodir. So'zlarning to'g'ri talaffuzini o'rgatish tovushlarni ifodalovchi belgilarni ham o'rgatish lozim. O'rta maktablarda ingliz tili o'rgatishda uchraydigan grammatik qiyinchiliklar xususida gapirilganda, o'quvchilar ko'plab qiyinchiliklarga duch kelishlarini aytish joiz. Kishi tilidagi hamma so'zлarni bilsayu, gaplar, so'zlar o'rtasidagi bog'lanishlarni bilmasa, u nutqning mazmunini tushunishga qiynaladi. Shuning uchun o'rta maktablarda o'quvchilarga grammatikani o'rgatish judayam muhimdir. Agar o'quvchi grammatik ko'nikmalarни yaxshi egallamagan bo'lsa, u o'z fikrini to'g'ri bayon eta olmaydi. Gapirishda, yozishda va tarjimada qiynaladi. Til grammatikasi o'ziga xos murakkab sistemadir. Shuning uchun ham uni o'zlashtirish oson emas. Maktab o'quvchilari quyidagi qiyinchiliklarga odatda duch keladilar: Artikl muammosi. Buni grammatika o'rganishdagi eng katta muammo desa ham bo'ladi. Ko'pchilik ingliz tili o'rganuvchilar bilan suhbatlashib ko'rganimizda, deyarli hammalari ingliz tili grammatikasini o'zlashtirishlarida asosan artikl va zamonlar qiyinchilik tug'dirishini aytganlar. Darhaqiqat, o'zbek tilida aynan artikl so'z turkumi bo'limgani uchun uni qo'llashda va tarjima qilishda qiynaladilar. Artikl qoidalarni yod olish kerak. Biroq qoidalardagi talaygina istisno holatlari o'rganuvchilarga, ayniqsa maktab yoshdagilarga, uni o'zlashtirishni murakkablashtiradi. Tarjimasi aniqroq qilib o'rgatilsa, o'quvchilar artiklni qo'llashda ko'p qiyinchiliklarga uchramaydilar. Masalan: noaniq artikl bir, qandaydir bir deb, aniq artikl esa o'sha, haligi deb tarjima qilinadi deb o'rgatish mumkin. Bir so'z bilan aytganda, artiklning ishlatilish holatlarini bolalarga misollar yordamida qayta-qayta tushuntirilsa, ingliz tilidagi bu yordamchi so'z turkumini o'zlashtirishdagi qiyinchiliklarni kamaytirib bartaraf etsa bo'ladi. Ingliz tili grammatikasini o'zlashtirishdagi qiyinchiliklardan yana biri predloglardir. O'zbek tilida predloglar kelishik qo'shimchalari bilan ifodalanadi. Ingliz tilida esa kelishik qo'shimchalari predloglar orqali ifodalanadi. Jumladan, o'zbek tilidagi o'rin-payt kelishigi, ingliz tilida in, on, at predloglari bilan ifodalanishi mumkin. Masalan: in — in January, in 2015, in a week on — on Monday, on January 15, on birthday at — at the weekend, at 10 o'clock O'rin payt kelishigining qo'shimchasi, o'rin joyni bildirganda ham ingliz tilida yuqoridagi predloglardan foydalanamiz. Masalan: in — in Uzbekistan, in Madrid, in our week on — on the sofa, on the table at — at the station, at school ingliz va o'zbek tillarida so'z tartibining o'xshash emasligi. Ma'lumki, ingliz tilida so'z tartibi qat'iydir, aksariyat hollarda darak gap boshida doim ega turadi ketidan esa kesim keladi. O'zbek tilida esa gap bo'laklari o'rnini almashtirsak ham ma'nosi o'zgarmaydi. Tarjimada esa o'quvchilar qiyinchiliklarga uchraydilar. Metodistlar fikriga ko'ra, ingliz tili grammatikasini o'rgatishda, avvalambor, grammatika minimumini to'g'ri tanlash va ingliz tili grammatikasini

o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olish taqozo etiladi. Ingiliz tili grmmatikasini o'ziga xos qiyinchliklari va xususiyatlari quydagilar: ingiliz tilidagi noto'g'ri fe'llar mavjudligi, ingliz tilidagi gap qurilishni qat'iyligi, ingliz tilidagi artikillar, predlog va zamonlarning ko'pligidir. Shu kabi xususiyatlar ingliz tili grmmatikasini o'zbek tili grammtikasidan farqlaydi. J. Jalolov fikriga ko'ra, grmmatikani o'quvchilarga o'rgatishda asosan ikkita yo'ldan foydalanishimiz mumkin: 1. Induktiv. 2. Diduktiv. Induktiv usulda o'quvchilarga avval qoida so'ngra esa misol beriladi. Diduktiv usulda esa avval misol so'ngra qoida beriladi. Maktab yoshidagi bolalarga ingliz tilini o'rgatishda avvalo bolalar uchun rang-baranglikka e'tibor berishimiz zarur. Rasmlar asosida yoki qo'shiq va she'rlar orqali ham ingliz tili grmmatikasini o'rgatishimiz mumkin. Maktablarda kuzatilayotgan muammolar qatorida o'quvchida darsga nisbatan passivlik, zerikish, diqqatni jamlay olmaslik kabi jihatlar ham mavjud. Ingliz tilini o'rgatishdagi leksik qiyinchiliklarga kelsak, ular quyidagilar: ingliz tilidagi deyarli barcha so'zlar turli ma'nolarni anglatadi. Ya'ni bir so'z birdan oshiq ma'noni anglatadi. M. Norovaning ta'kidlashicha, ingliz tilida bitta so'z maksimal 23ta ma'noni berar ekan. Ingliz tili lug'atining ma'lum qismi boshqa tillardan kirib kelganligi; Ingliz tilining idiomalarga boyligi hamda bir qancha boshqalar Xulosa qilib aytganda, chet til o'rganishda qiyinchiliklarga duch kelish tabiiy, albatta. O'qituvchilar o'quvchilarning qayerda qanday qiyinchiliklarga uchrayotganliklarini kuzatib borib uni bartaraf etish yollarini topib o'quvchilarga yengillik yaratib borishlari darkor. Zero, til materiallarini o'zlashtirishdagi qiyinchiliklar nutq faoliyatlarining barcha turlarida ko'nikma hosil qilishlariga to'sqinlik qiladi.

## TRANSLATIONAL AMBIGUITIES OF THE PROVERBS IN THE FIRST VOLUME OF «THE COMPENDIUM OF THE TURKIC DIALECTS» BY SALIKH MUTALLIBOV AND THEIR COMPARATIVE ANALYSES

*Ilhomjon Jo'raboyev*

*Postgraduate in NamSU*

*Plato is dear, but the truth is much dearer (by Aristotle)*

### **Annotation:**

This brief article is dedicated to elucidate and revise the original meaning of the proverb by analysing the ambiguities which was allowed in the first volume of «The Compendium of The Turkic Dialects» especially by Salikh Mutallibov and their equivalents in other Arabists' works. One can be sure by reading this article that the accuracy in the translations of «The Compendium» has been improved over the decades.

**Keywords:** accurasy, arabists,critical approach,emotiveness, entry, explanation,grammatical structure,phrases,proverb,sayings, stylistical devices.

To have the exact numbers of proverbs in «The Compendium of Turkic Dialects» I calculated and studied the proverbs in the first volume of the book

which was translated by Salikh Mutallibov. Why did I have to study the proverb? Because the following modern translators and Arabists do not consider some of the proverbs in «The Compendium» as a proverb which are considered as a proverb in Salikh Mutallibov vice versa. Alibek Rustamov Rustamovich and Qosimjon Sodiqov hold the same opinion that some of the proverbs should be considered as sayings in «The Compendium». Nobody (no linguists) can exactly tell the difference between proverbs and sayings. We will cast a light on this matter in the next articles. I came across other problems while I was studying and examining the translation of Salikh Mutallibov. He did not give further explanation or information about only one proverb whether it is a proverb, saying or a poem in the first volume and he named one example as a fable. These facts also arouses ambiguity about the usage of linguistic terms. Hard as it was I managed to calculate and estimate the number of the proverbs (one can say sayings) in the first volume. We should bear in mind that these dates are based on the translation of Salikh Mutallibov. The first volume holds 159 proverbs in total, 8 of them are used twice.

«The Compendium of the Turkic Dialects» is the masterpiece of Mahmud Kashgari and sole priceless etymological dictionary of the world which was written by the scientist (linguist and ethnographer) whose origin is Turk. Last century the interest increased about this masterpiece and the translation was proved to be the only and necessary way to reach the charm of this book and pleasure comes from its meaning. The translation of the masterpiece was a considerable task and Salikh Mutallibov experienced it first. Being Arabist, he achieved successes and fame in this sphere and made a major contribution to the introduction of the masterpiece to the Uzbek people. Certainly, but for his translation and explanation, we could not give our personal opinion about the masterpiece. However Salikh Mutallibov failed to give a clear translation of some proverbs in «the Compendium of the Turkic Dialects» or to give a clear definition from those of that. As Robert Dankoff used the works of Salikh Mutallibov and Besim Atalay, he corrected the proverbs and definitions which Salikh Mutallibov misinterpreted or devalued. Let's analyze and compare some of the chosen proverbs from «the Compendium of the Turkic Dialects»:

Öd këchar kishi toymas, jalinuq ögli menu qolmas – Zamon o'tar kishi to'ymas, inson bolasi mangu qolmas [1. p.79].

Before analyzing the translation of Salikh Mutallibov, it is acceptable to define the accurate meaning or slightly accurate meaning (because we are unable to ask the author the meaning) of the verb which is being studied:

According to the Old Turkic Dictionary the definition of the verb «tuj» was given as [2]:

TUJ – Изамечать, чувствовать, догадываться; Пнаедаться, насыщаться

TUY – I notice, feel, know; II (be) full up, satiate

In the Old Turkic Dictionary «tuy» is given as the synonym of «toy» in the second meaning.

In his translation Salikh Mutallibov used the second meaning of the verb and tried to show the desire of a human being to possess something, especially something that belongs to another person.

If it is translated word by word, the result is taken as:

«Time passes, man doesn't satisfy (with the property), the son of human does not live forever»

Given in the text, «Adam» and «Inson» can be referred as synonyms. However in terms of syntax, the difference lies in the meaning of these two words. Having passed time affected the meaning of them. The word «Inson» is more literary and stylish, on the contrary «Adam» is typical to speech and considered neutral.

Robert Dankoff made an intelligent choice and studied each word in details, so he achieved a better result than Salikh Mutallibov:

Öd këchar kishi tuymas, jalinuq ögli menu qolmas – Time passes and man doesn't perceive it, the sons of Adam do not live forever [3. p.93].

As far as I am concerned, this translation shows perfection. He approached the translation correctly and kept the meaning what the author intended. The phrases of the second component of this proverb indicate the history of the human being and belief of the Muslim people. As stated in Koran, our holy and most trusted book, Adam is the first human being in the universe and the source of all intelligent creatures.

If we deduced only from the works of Robert Dankoff, it would be unwise to make a critical approach. Not only did we analyze Robert Dankoff, but also we compared the translation of Salikh Mutallibov with other translations of Arabists such as Alibek Rustamov Rustamovich (whose origin is Uzbek), Zaifa-Alua Muratovna Auezova ( whose origin is Kazakh) and Ramiz Askər (who is from Azerbaijan). They all followed the conception of Robert Dankoff while translating that proverb which was mentioned above.

For the first time this matter was aroused in the article of Tojiboyev Ilhomjon Usmonovich whose work was devoted «On some problems of translating the proverbs in «Divani Lugat it-Turk» by Mahmud Kashgari». He also favoured the translation of Robert Dankoff and held the opinion that it is not reasonable to draw a negative conclusion about Salikh Mutallibov [4].

Based on Tojiboyev Ilhomjon (a senior teacher in NamSU), if we consider the translation of Salikh Mutallibov to be correct, you will be requested to pay attention to the next proverb and its definition:

От тёсäағыз күймäс— Ўт деган билан оғиз күймас

It is so difficult a task or highly unlikely even for an unexperienced translator to make a mistake in translation. The structure and words of this proverb are so simple to tell itself the meaning. The translation of Salikh Mutallibov corresponds with the translation of Robert Dankoff in this respect. Yet Salikh Mutallibov made an unclear and incorrect explanation while opening the meaning. He states:

«This proverb is used for a man who is shy to speak to smb» [1. p.78].

Robert Dankoff gives his translation as:

«ôt têşä aýñz köymäş – If one says «Fire» doesn't catch fire» [1. p. 94] and takes another explanation in order to highlight the meaning as:

«This is coined about the someone who apologizes for something he said».

What encouraged Salikh Mutallibov to give this kind of explanation is mystery to us, but other Arabists have the same opinion with the explanation of Robert Dankoff in this respect too.

In most words, as well as, in proverbs Salikh Mutallibov planned to use euphemism to mild the meaning. The reason why he took this measure in his translation can be explained that he must not have wanted to see blunt and harsh words in his works. By giving another example of Uzbek proverbs (he changed the proverb to make equal to another popular one in meaning) he attempted to improve the appearance of the word, not the meaning. Perhaps he intended to keep influence of the proverb by providing the proverb which is live today. Let's see below:

ipcäkërgätögmäc,  v k v gt g m c – эркаккарабатли, эр учун шошилган хотин эрга ёлчимайди, шошма-шошар одам уйига етолмайди [1. p.129];

Before drawing a conclusion it is preferable to look true meaning up in the Old Turkic Dictionary (Древнотюркский словарь):

ERSÄK – распутная женщина (a prostitute, a lady of easy virtue)

Salikh Mutallibov translated ERSÄK as a girl, lady or a woman (who wants to marry a man as much as possible); in the Old Turkic Dictionary this proverb was given with its translation as:

 rs k rk  t g m c – распутная женщина не выйдет замуж (a prostitute doesn't marry a man because of what she is doing) [5].

Robert Dankoff's opinion is a bit different in this respect. He managed to translate the initial word correctly, but failed to translate the second word exactly. He translated the first word ÄRSÄK as a prostitute and the next word ÄRKÄ as a client who pays a prostitute to sell her body. What makes him (Robert Dankoff) to take this measure in this translation?

According to Robert Dankoff, he stressed that I must acknowledge our debt to the industry and judiciousness of Sir Gerard Clauson; but I must also note that in numerous instances we have departed from Clauson's interpretation. [1. p.3]; Based on this information above we may come to the conclusion that he used «An Etymological Dictionary of Pre-Thirteenth-Century Turkish» as a basic material for the translation of «The Compendium of The Turkic Dialects». When it comes to Sir Gerard Clauson he only gave the meaning of ÄRSÄK and ÄRKÄ in his etymological dictionary but further examples of proverbs which contain these two words were not given. For this reason Robert Dankoff had to translate the first component of the proverb as:

 rs k rk  t g m s,  w k k  t g m s – The hasty prostitute (al ‘ajul min al-bawayi) rarely finds men (because of her extreme haste which doesn't accord with her purposes; similarly); the hasty man doesn't get home (since he jades his riding animal in his haste) [6. p.134].

As respect to the grammar ÄRKÄ stands in singular, thus it only defines «to a man» not «plurality of man». Robert Dankoff may have forgotten to take it into account.

Alibek Rustamov Rustamovich continued to follow the concept of Robert Dankoff in translation and he may have found it better choice to copy from the translation of Robert Dankoff rather than to translate the original text of «The Compendium». Why did I come to this conclusion? Because a few pages above I reminded about the Old Turkic Dictionary. It was published in 1969, there is no doubt that Salikh Mutallibov was not able to use this dictionary to do the translation because he published his books as early as between 1961 and 1963. Perhaps it would be the reason why he translated the proverb in that way. However «The Old Turkic Dictionary» was given in the bibliography of Alibek's translation. It means that he used this dictionary while he was making his book or at least he must have opened it or flicked through the pages. Alibek's translation is presented here:

ärsäk ärkä tägmäs, eväkevkä tägmäs – торопливая распутница редко находит мужа из-за и не сбывается все так, как она хочет; подобно этому торопливый человек не доходит до дома, так как его верховоеживотное погибает от быстрого бега и он остается там в изнеможении [1. p.129];

To my surprise Ramiz Askər whose origin is Azerbaijani rejected Robert Dankoff and Alibek's offer in translation by following the instruction shown in The Old Turkic Dictionary. For all I know it is the most proper and exact translation among the publications. We can study the example below:

Ərsək ərgə təgməs, ewək əwgə təgməs – qəhbə ər tapmaz, tələsən evəçatmaz, gəlib çıxmaz, (ər axtaran pozğun qadınların bir qayda olaraq əli boşça çıxar, tələsən adam da evinə çatmaz, çünkü tələsdiyinə görə heyvani yorular, onun da əli boşda qalar) [1. p.167];

First of all we should find the concrete meaning of «qəhbə» which means «a fallen woman» (regarded as having lost her honour through engaging in a sexual relationship outside marriage) and «ər» means «a man». We have this result:

A fallen woman cannot marry a man, the hasty man cannot reach his home (a prostitute cannot find a man to marry wherever she goes, the hasty man cannot reach his home because he makes his horse tired so he does not achieve anything);

Salikh Mutallibov continued to support the wrong conclusion in this case which is relevant to the following proverb. He had a vague suspicion that Mahmud Kashgari may have committed an error or there must have been ambiguity in the manuscript. In fact he was not given the original manuscript and he used Basim Atalay's works and definitions for his translation. Yet being unaware of the true meaning of the proverb he had no authority to blame Mahmud Kashgari for misunderstanding. It should be kept in mind that he was a man of science and linguist, he planned each scheme before finishing his compilation.

On the other hand Mahmud Kashgari did not try to explain the meaning of this proverb. Probably it was possible that this proverb had caused no problem in understanding at that time. Let me introduce that example here:

Эндікумаәwlіkniағірлар – Befahm mehmon uy egasini hurmatlaydi. Bu yerdagı M. Qoshg‘ariy izohida bir oz aniqsizlik bor, biz o‘z aslicha berdik [1. p. 130];

Robert Dankoff was not influenced by the unreasonable decisions of Basim Atalay and Salikh Mutallibov. He asserted that this proverb should make sense and proved to the linguistists that neither Mahmud Kashgari nor the copyist had had a mistake by opening the meaning accurately. You can see his explanation here:

ändik ümä äwligni ayirlär – The simple-minded guest is one who entertains the host. This means that it is the guest who should be entertained [1. p.135];

Other Arabists showed no opposition and it seemed comfortable to them to go this way:

ändikuma ävlükniayırlar – «Глупый гость тот кто, оказывает почет хозяину дома», то есть почтение должно быть оказано гостю [1. p.130];

андик умә авликнй агирлар – «Простодушный гость оказывает почести хозяину дома». Почести следует оказывать гостю [volume 1 p.135];

əndikuma əwligniağırlar – çaşqinqonaqyiyəsini əzizlər, ağırlar. Bu məsəl ilə ağırlanmanın qonağı aid olduğu bildirilir [1. p.168];

Next proverb needs to be examined attentively. Salikh Mutallibov managed to keep the meaning of this proverb to some extent. Yet his decision on vocabulary choice is not well-taken. First and foremost, Salikh Mutallibov committed a typing error by beginning the initial word with «a» sound instead of «u» sound in the entry on page 72 in volume I and he presented this word at the beginning of the proverb with «u» sound on page 232 volume I. Given that, one example did not correspond to another. When it comes to the translation of «us», S. Mutallibov provided this: Karkas qushi (a kind of bird which make a living feeding on carrion; eagle); burgut (eagle). However he translated «us» in the proverb as **burgut qush** (an eagl-like bird). The reason why S. Mutallibov proposed «Karkas qushi» in his translation is that he compared The Diwan with Alisher Nawoi’s works. There is no doubt that Alisher Nawoi made a significant impact S. Mutallibov on the choice of this word. At present «**Karkas qushi**» does not exist in Modern Uzbek Language, it is highly impossible to come across itnot only in oral speech but also in written speech. It only exists in the old manuscripts and myths. Even in The Old Turkic Dictionay it was given only one meaning of «yc» concerning with zoology, as «гриф». You will be introduced with the original translation of the proverb here:

yc ўшкўрса ölyp – burgut qush birovning betiga qarab sayrasa, o‘shqirsa, o‘limning alomati deb hisoblaydilar [1 p.232];

It is apparent that «yc»is not an eagle or eagle-like bird, because on page 319 in volume I «**қара қүши**» was translated as an eagle, so «Karkas qushi» can be close translation of «yc». S. Mutallibov could find other alternatives of «yc» if he studied hard on glossary. Today Uzbek Explanatory Dictionary holds a few of them, such as «qumoy, tasqara, o‘laksaxo‘r or kalxat». The other elements of translation have no problem. If we translate S. Mutallibov word by word, the result is taken as: If an eagle-like bird shrieks or sings to somebody’s face, it signs death.

Robert Dankoff did an accurate translation of the proverb as usual. He must have not used Clauson for «us», because we could not find the meaning of «us» related to zoology in his dictionary. R. Dankoff translated «us» as vulture which is equal to «kalxat» in Modern Uzbek Language.«*Vulture*» was given in these senses in the Oxford Dictionary of English 2005:

*Order Accipitriformes: the Old World vultures (family Accipitridae, esp. Gyps and Aegypius) and the New World vultures (with the condors in the family Cathartidae);*

The reason why R. Dankoff chose vulture in his translation is that vulture is used commonly in oral and written speech, and vulture is an independent family of birds of prey. When it comes to the accurate meaning of «us» is «*Gyps*» which is considered as Old Word vultures. In any case the translation agrees with the original text. Then you can see the full translation of R. Dankoff below:

üs üskirsä olür – When the vulture shrieks (in a man's face, it is a sign that) he will die [1. p.209];

As respect to Zaifa-Alua Muratovna Avezova in this respect, she translated «yc» as *сторвятник* (Egyptian vulture) on page 75, but she changed her mind to translate «yc» orël (an eagle) in the proverb. This similarity shows the impact of Salikh Mutallibov over the translation of Z. Avezova below:

усушкурсāулұр – Когда орёл клекочет (человеку в лицо, считается, что) он умрет [1. p.239];

The Uzbek Arabist A. Rustamovich presented the most accurate translation of «yc» as *грифон* page 82 and he kept this meaning in the proverb too:

us üskürsa olür – Если гриф зашипит человеку, тот умрет [1. p.215];

Yet the word «üskir» next to «us» translated as «begin to hiss or begin to produce sound [sh]», which sounds not genuine (non-natural). This result came from The Old Turkic Dictionary (ДТС), «üsgür» was given in the second meaning in the dictionary as: шипет, свистеть (to hiss, whistle, whiss). The translation of the proverb was presented as: Если гриф зашипит [на человека], он умрет (page 628). Sir Gerard Clauson also represented «üskür» in this meaning and provided an example supporting his opinion that it could be used especially for snake: yila:n üskürdi – the snake hissed, but he suggested using «shriek» (not scream) when it comes to vulture.

Ramiz Askər showed only one meaning of «Us» in the entry as «*Kərkəs quşu* [kind of bird which eats the flesh of the dead animals]» and did not change in the proverb too. He used [fit çalmaq – to hiss or produce the sound (sh)] regarding «üsgür». The impact of S. Mutallibov and The Old Turkic Dictionary is known from his choice in his translation below:

uş üsgürsə, olür – kərkəs quşu bir adamin üzünə qarşı fit çalsa, bu, ugursuzluq sayilar, həmin adam olər [1. p.267];

## Bibliography:

1. G. Clauson. An Etymological Dictionary of Pre-thirteenth Century Turkish. Oxford, 1972.
2. Mahmud Kashgari. «Divanu lugat-it-turk». Dord cildde. I cild, Baki, “Ozan”, 2006, 512 seh.
3. Mahmud Qoshg‘ariy. Devonu lug‘ati turk – Turkiy so‘zlar devoni. Tarjimon va nashriyotga tayyorlovchi S. M. Mutallibov. I tom, Toshkent. 1960, 500 bet; II tom, 1961, 428 bet; III tom, 1963, 466 bet; IV tom (indeks), 1967, 543 bet.
4. Tojiboyev, Ilhomjon Usmonovich (2019) «ON SOME PROBLEMS OF TRANSLATING PROVERBS IN «DIVANI LUGAT IT-TURK» BY MAHMUD KASHGARI», Scientific Bulletin of Namangan State University. Vol 1: Iss. 3, Article 31.
5. Махмуд ал-Кашгари. Диван лугат-ат-турк (Свод тюркских слов): в 3 т./Пер. с араб. А. Р. Рустамова под ред. И.В. Кормушина, прим. И.В. Кормушина, Е. А. Поцелуевского, А. Р. Рустамова; Ин-т востоковедения РАН: Ин-т языкоznания РАН. – М.: Вост. лит., 2010 – . – (Памятники письменности Востока. СХХVIII/ редкол.: Г.М.Бонгард-Левин и др.). – ISBN 5-02-018202-8

## **“NAVOIY” ROMANINI O’QITISHDA YANGI PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARING QO’LLANISHI**

*Gulbahor Xatamova Maxammadaminovna  
NamDU akademik litseyi  
Ona tili va adabiyoti fani o’qituvchisi*

### **ANNOTATSIYA**

Bugungi kunda o’quv-tarbiya jarayoniga o’qitishning zamonaviy ilg’or usullari, ya’ni yangi pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy etish vazifasi qo’ylgan.Bundan asosiy maqsad mustaqil fikrlay oladigan, o’z dunyoqarashlariga ega bo’lgan hamda zarur paytda uni himoya qila oladigan, eng muhimi, o’z bilimlarini jamlab, ulardan foydalana oladigan ijodiy tafakkur sohibini shakllantirishdir. Bu vazifani bajarish o’qituvchilarga, ayniqsa, ona tili va adabiyoti muallimlariga juda katta mas’uliyat yuklaydi.

Kalit so’zlar: tarixiy-biografik roman, Navoiy- insonparvar, Navoiy-adolatparvar, Navoiy- adabiyot va san’at homiysi.

**“Kitob o’qimagan odamning ham, millatning ham kelajagi yo’q”.**  
(Sh. Mirziyoyev)

Akademik litseylarda Oybekning “Navoiy” romanini o’rganish uchun 4 soat ajratilgan. Birinchi juftlik darslarda “Navoiy“ romani haqida nazariy ma’lumotlar beriladi. O’qituvchi Oybek nasriy ijodining cho‘qqilaridan biri «Navoiy» tarixiy-biografik romani ekanligini, adib Navoiy hayoti va ijodi bilan 30-yillar arafasida faol qiziqa boshlaganligi va shu yillarda Yazdiy, Koshifiy, Qazviniy, Muhammad Tolib, Abdurazzoq Samarqandiy, Vosifiy, Mirxon singari tarixchi olimlarning asarlarini qunt bilan o‘rganishga kirishganligi haqida ma’lumotlar berib o’tadi.

So’ngra o’quvchilarga asar bilan tanishishni oxiriga yetkazish topshiriladi. Ikkinci juftlik darslarda asar o’quvchilar bilan birgalikda tahlil qilinadi. Dars musobaqa, taqdimot tarzida tashkil qilinadi. Bu usul o’quvchilarda fikriy bo’g’liklik, mantiqiy aloqadorlik va xotirani rivojlantirishga imkoniyat yaratadi. O’qituvchi dars mavzusi “Navoiy” romani haqida ekanligini e’lon qiladi va dars davomida o’quvchilar bilimini baholash tartibi bilan tanishtirib o’tadi. Har bir to’g’ri javob uchun rag’bat kartochkasi berilishini aytadi. Ekspert guruhi javoblarni kuzatib borib, eng yaxshi ishtirokchi va eng faol guruhni aniqlashini, g’olib guruh “Zukko kitobxon” nomiga ega bo’lishini aytadi. “Navoiy” romaniga tarbiyaviy, ilmiy jihatdan yondashmoqlari, o’zlarining mustaqil fikrlarini bildirmoqlari uqtiriladi.

Avvalo, o’qituvchi dars uchun shior tanlaydi va uni izohlaydi.

“Naf yeturmakka shior aylading ,

O’zingga ul nafni yor aylading”(A. Navoiy)

c) O’quvchilar uch guruhga bo’linadi va har bir guruh o’ziga nom tanlaydi.  
1-guruh: ”Insonparvar”: *Odamiy ersang demagil odami,*

*Onikim yo’q xalq g’amidin g’ami. (A. Navoiy)*

2- guruh: ”Adolatparvar”: *Nafing agar xalqqa beshak durur,*  
*Bilki, bu naf o’zingga ko’prak durur. (A. Navoiy)*

3- guruh: ”Xalqparvar”:

*Kimki bir ko’ngli buzug’ning xotirin shod aylagay,*  
*Oncha borkim, Ka’ba vayron bo’lsa, obod aylagay(A. Navoiy)*

O’quvchilar quyidagi shartlar asosida bahslashadilar.

## 1. Shart. “Aqliy hujum” (tezkor savol-javob)

1. Oybek ijodini qaysi janrda boshlagan? J: She’rlar yozish bilan.
2. Oybekning dastlabki to’plami qachon, qanday nom bilan chop etilgan? J: 1926-yilda «Tuyg‘ular» nomi bilan.
3. Oybekning dostonlari? J: «Dilbar – davr qizi» (1931), «O‘ch» (1932), «Baxtigul va Sog‘indiq» (1933).
4. Oybek romanlari? J: «Qutlug‘ qon» (1940), «Navoiy» (1944), «Quyosh qoraymas»
5. Oybekning ijodiy merosi necha tomni tashkil qiladi? J: 20 tomni.
6. Oybekning «Navoiy» romanini qachon nashr qilingan? J: 1944-yil.
7. Oybek kim bilan suhbatda «Navoiy» romanining yaratilish tarixi haqida so‘zlab, unga: “Yozishdan avval men qahramonlarimni aniq-tayin . ko‘rganman

ular, mening xayolimda, bir paytlar tarix shudgoriga tashlangan urugdan o'sib chiqanday edilar" – degan ekan? J: Shoir va tarjimon A. Naumov

**2. Shart.“Topqirlar bahsi.** (“Navoiy” asaridagi obrazlar ro'yxatini tuzish) Bilamizki, “Navoiy” romanida ko'plab tarixiy va to'qima obrazlar uchraydi. Shuning uchun asardagi personajlar nomini eslab qolish muhim. Masalan, Husayn Boyqaro, Jomiy, Behzod, Nizomulmulk, Majididdin, Xo'ja Afzal, To'g'onbek, Sultonmurod , Arslonqul, Dildor. v.b

**3. Shart. Taqdimot.** Har bir guruh romandagi Navoiy timsoliga tavsif beradi.

1-guruh “Navoiy- insonparvar” mavzusida, 2-guruh “Navoiy-adolatparvar”, 3-guruh esa “Navoiy” –adabiyot va san'at homisi” mavzusida taqdimot qiladi. Guruhlar o'rtasida o'zaro babs- munozara qilinadi.

Masalan: Shubhasiz, Oybekning asosiy maqsadi Navoiyning ulug‘ inson, shoir va davlat arbobi sifatidagi obrazini yaratishdir: Oybekning talqinicha, Navoiy siyemosining ana shu uchala qirrasini o'zaro birlashtirib turadigan «magnit maydoni» uning insonparvarligidir. Oybek Navoiyning insonparvar shoir va davlat arbobi sifatidagi obrazini yaratish uchun asarga tarixiy shaxslar obrazi bilan birga, badiiy to'qima mahsuli bo'lgan bir qator obrazlarri ham kiritgan.v.h

4-shart. O'yala, izla,top!

“Navoiy” videofilmidan parcha eshittiriladi. O'quvchilar qayerda, qanday vaziyatda va kimga aytilgani haqida ma'lumot berishadi.

**1-topshiriq** - “Inson barcha maxluqotning tojidir. - U sharafli, sof, go'zal yashamog'i kerak! Davlat arboblari aql va adolatni shoir qilsalar, xalqni parvarish etsalar hayotning zangini oltinga aylantirmoq mumkin. - Har yerda jabrning tagini sindirmoq zarur”. *Javob:Ushbu fikrlarni Navoiy do'sti Xo'ja Afzalga aytgan.*

**2-topshiriq.** - Biz shunday kutubxona bino qilaylik, - butun el qoshida manzur va mo'tabar bo'lsin. - Jamiki ulum va funundaki, azmanaiy qadimdan to shu damgacha odamzodning fikr gavhariy ijod etmishdir va kitob suratiga chekilmishdir, barchasi bizning kutubxona xazinasida ziynatlasin”.

*Javob: Ushbu fikrlarni Navoiy inisiga Darveshaliga kutubxona yaratish maqsadida aytgan.*

3-topshiriq.- Inson uchun toj kiymoq shart emas, balki nomus ham vijdon ham sohibi bo'lmoq, jamiyat oldida o'z mas'uliyatini sezmoq shart!

*Javob: Shahzoda Badiuzamon otasiga qarshi isyon ko'taradi, Husayn Boyqaro nomidan Navoiy elchi bo'lib borib , unga shu gaplarni aytadi.*

5-shart. “Tavsifiy topishmoq” (O'qituvchi tomonidan “Navoiy” romanidagi obrazlarga qisqacha ta'rif beriladi, o'quvchilar bu ta'rif kimga tegishli ekanligini topadilar).

1-ta'rif. –“Egnida — ichidan odmi shohi to'n, ustidan yalang qo'ng'ir movut chakman... O'ttizdan oshmagan bo'lsa ham, yoshi ulug'roqdek ko'rindi...Qabariqroq qovoqlari ostidagi qiyg'och ko'zlarida go'yo tafakkur va xayol bilan birga qandaydir iroda kuchi ifodalananadi”. **Javob: Navoiy**

2-ta'rif.-”...Bu o'qimishli, tavozili odam bo'lsa ham, bir ko'p jihatlardan akasiga o'xshamasdi. Havoiy hayotga berilgan, beparvo, uquvsizroq edi. ... uning nimmast suzilgan ko'zlariga qaradi, kinoya bilan jilmaydi”. **Javob:Darveshali**

3-ta'rif." ... daftardorlik, hisob-kitob ishlariga juda mohir bo'lish bilan baravar, davlat ishlarida tadbirli, vijdonli bir mansabdar edi". **Javob:Xo'ja Afzal**

6-shart. Test sinovi. "Vijdon mashqi"(O'quvchilar test savollari javobini o'zлari tekshirishadi.)

1. "Navoiy" romanida "-Turk tilini she'rning sheri mudofaa qilar ekan, yana qaysi mard buni aksini isbot qila olur",- degan fikrlarni kim kim haqida aytadi?- *Husayn Bayqaro Navoiy haqida*

2. Navoiyning samarqandlik so'nggi ustozi kim edi?-Abulays Samarqandiy

3. Navoiy kimga "Siz endi dorug'aiy kutubxonaiy humoyundirsiz" deb aytadi?- Inisi Darveshaliga

4. «Navoiy» romanidagi Xo'ja Afzal Navoiyga kim edi? - Do'sti edi

5. "Shohruh"madrasasiga Navoiy kimni mudarris qilmoqchi bo'ladi?- Sultonalini

6. She'r va fikr o'chog'.. ,Olimlar, shoirlar, rassomlar...ilhom bulog'i...?- Unsiya

7. Kamolliddin Bekzodni Navoiyga kim tanishtiradi?-Mirak Naqqosh

7-shart. "Ma'naviyat sabog'i". O'quvchilar Oybekning "Navoiy" asaridan olgan taassurotlarini bayon qiladilar:

1-o'quvchi: Oybekning yuksak mohir iste'dod egasi ekanligini hamda so'z qudratini his qildim;

2- Sultonmurod, Kamoliddin Bekzod timsollari orqali hamisha intilganga tole yor ekanligini angladim;

3-o'quvchi: Faqat insonni sevish orqaligina insonparvar bo'lish mumkinligini his qildim;

4-o'quvchi: oliyjanoblik, insonparvarlik, xalq dardi bilan yashash eng oliv fazilat ekanligini angladim;

5- o'quvchi: Navoiy bobomizning avlodi ekanligimizdan faxrlanish va unga munosib bo'lish tuyg'usini tuydim;

6-o'quvchi: Mulla Shahobiddin, To'g'onbek timsollari orqali "Itga- it o'limi" ekanliginini ko'rib, undan saboq oldim;

7-o'quvchi: Yurtga sadoqat, Vatanga muhabbat, ona tilimizga ehtirom, buyuk ajdodlarimizdan faxrlanish, iftixor hislari qalbimda jo'sh urdi.

8-o'quvchi: Oybek ijodini yanada chuqur o'rganishga, uning ijodiy tafakkuridan olam-olam ma'naviyat durlarini terishga qaror qoldim.

O'qituvchi darsni umumlashtirib yakunlaydi. G'oliblarni aniqlaydi. O'quvchilar "Eng faol guruh" va "Eng faol o'quvchi" nominatsiyasi bo'yicha taqdirlanadi, rag'batlantiriladi va baholanadi.

Xullas, o'qitishning zamonaviy shakllaridan foydalanish o'quvchilarga axborotni tezroq, aniqroq va tushunarli qilib yetkazib berish imkon beradi. Bu usulda o'quvchilar o'zi faol ishtirok etgan holda, yakka juftlikda, guruhlarda muammo savollarga javob topishga harakat qiladi, fikrlaydi, baholaydi, yozadi , so'zga shiqadi, dalil hamda asoslar orqali qo'yilgan masalani yoritib berishga harakat qiladi. Bu esa o'quvchilarning xotirasida uzoq

saqlanadi. Zero, buyuk xitoy donishmandi Konfutsiy bundan 3500 yil avval shunday degan:

***“Eshitganimni esdan chiqaraman, ko’rganimni eslab qolaman,  
bajarganim o’zimniki bo’ladi”.***

## UCHTA QUVLOVCHI VA BITTA QOCHUVCHI BO`LGAN HOL UCHUN TUTISH MASALASINING GEOMETRIK TALQINI

***Sh.T. G`ayniddinov, H.Q.Uzoqboev, Z. Abdurahimova.  
Namangan davlat universiteti magistrantlari.***

### Annotation

Ushbu maqolada tekislikda harakatlanuvchi uchta quvlovchi va bitta qochnuvchi uchun geometrik usulda tutish masalasi o’rganiladi. Bu yerda quvlovchi va qochnuvchilarни tezliklari bir xil deb qaralgan. Qochnuvchining boshlang’ich holati quvlovchilarning boshlang’ich holatlarining ichki nuqtalarida joylashgan holda optimal tutish vaqt几何学的 usulda aniqlangan.

**Kalit so’zlar:** quvlovchi, qochnuvchi, tezlik, geometrik chegaralanish, optimal tutish vaqt.

### Annotation

In this paper, we have studied a pursuit problem by geometrical method for three pursuers and one evader moving in the plane. Here it is assumed that pursuers and evader move at the same speed. We have obtained an optimal capture time when an initial state of evader is at the inner points of initial states of pursuers.

**Key words:** pursuer, evader, velocity, geometrical constraint, optimal capture time.

### Kirish

$R^2$  tekislikda  $P_1, P_2, P_3$  quvlovchilar va  $E$  qochnuvchi berilgan bo’lsin. Ularning harakati quyidagi tenglamalar bilan ifodalanadi:

$$P_i : \dot{x}_i = u_i, \quad x_i(0) = x_{i0}, \quad i = 1, 2, 3 \quad (1)$$

$$E : \dot{y} = v, \quad y(0) = y_0. \quad (2)$$

$x_i - P_i$  quvlovchilarning tekislikdagi holatlari va  $x_i \in R^2$ ;  $y - E$  qochnuvchining tekislikdagi holati va  $y \in R^2$ .

$P$  quvlovchi  $u$  tezlik bilan harakat qiladi va bu parameter o’lchanuvchi funksiya sifatida tanlanib  $u(\cdot) : [0; \infty) \rightarrow R^2$  akslantirishni bajaradi va uning uchun quyidagicha chegaralanish bajarilsin

$$|u(t)| \leq \alpha \text{ deyarli barcha } t \geq 0. \quad (3)$$


Xuddi shunday  $E$  qochnuvchi  $v$  tezlik bilan harkatlanadi va quyidagi  $v(\cdot) : [0; \infty) \rightarrow R^2$  o’lchanuvchi funksiya sifatida tanlanadi va uning uchun quyidagi tengsizlikning bajarilishi talab etiladi

$$|v(t)| \leq \alpha \text{ deyarli barcha } t \geq 0 \quad (4)$$

$P_i$  obyektlarning maqsadi  $E$  obyekt avvaldan berilgan biror  $M$  to'plamga yetib borishidan oldin u bilan ustma-ust tushish, ya'ni  $x(t) = y(t)$  tenglikka erishish.  $E$  qochuvchining maqsadi esa  $M$  to'plamga yetib borguniga qadar  $P$  quvlovchi bilan to'qnashmaslik, ya'ni  $x(t) \neq y(t)$ ,  $0 \leq t \leq \bar{t}$  va  $y(\bar{t}) \in M$  munosabatlarga erishish. Bu yerda

$$x_i(t) = x_{i0} + \int_0^t u_i(s)ds, \quad y(t) = y_0 + \int_0^t v(s)ds, \quad i = 1, 2, 3$$

Endi bu obyektlarning boshlang`ich holatlari quyidagicha joylashgan deb



qaraymiz:

Biz dastlab tutish masalasini hal qilamiz. Buning uchun qochuvchining harakat yo`nalishiga ko`ra quyidagi hollarni ko`ramiz.

**1-hol:**  $E$  qochuvchi  $P_3$  quvlovchiga qarama – qarshi harakatlansin. Bunda  $E$  qochuvchi  $\Delta P_1 P_2 P_3$  uchburchakning og`irlik markazida joylashgan bo`lsin.

**2-hol:**  $E$  qochuvchi  $P_2$  quvlovchiga qarama – qarshi harakatlansin. Bunda  $E$  qochuvchi  $\Delta P_1 P_2 P_3$  uchburchakning og`irlik markazida joylashgan bo`lsin.

**3-hol:**  $E$  qochuvchi  $P_1$  quvlovchiga qarama – qarshi harakatlansin. Bunda  $E$  qochuvchi  $\Delta P_1 P_2 P_3$  uchburchakning og`irlik markazida joylashgan bo`lsin.


### Asosiy natijalar

Biz 1-hol uchun quyidagi teorema o`rinli ekanligini ko`rsatamiz.

**Teorema.** (1) – (2) differensial o`yinda  $E$  qochuvchi  $P_3$  quvlovchiga qarama-qarshi harakatlansa, u holda  $P_1$  va  $P_2$  obyektlarning birortasi chekli  $t \in [0; T]$  vaqtida

tutadi va tutish vaqtি  $T = \frac{|EP_1|}{\alpha}$ , bunda  $|EP_1| = \sqrt{(x_1 - x_0)^2 + (y_1 - y_0)^2}$ .

**Isbot:** Dastlab muntazam uchburchagimizni Dekart koordinatalar tekisligida



shunday joylaysizki, bunda uchburchak uchlari koordinata o`qlari ustida joylashsin

$d(OP_2) = d(OP_1)$  ekanligidan

$$(x - x_1)^2 + \frac{4y_1^2}{9} = x^2 + \frac{y_1^2}{9} \Rightarrow 2xx_1 = x_1^2 + \frac{y_1^2}{3} \Rightarrow x = \frac{x_1}{2} + \frac{y_1^2}{6x_1} \Rightarrow O\left(\frac{x_1}{2} + \frac{y_1^2}{6x_1}; \frac{2y_1}{3}\right)$$

$$d(OE) = \sqrt{\left(\frac{x_1}{2} + \frac{y_1^2}{6x_1}\right)^2 + \frac{y_1^2}{9}} \quad d(OP_1) = \sqrt{\left(\frac{x_1}{2} - \frac{y_1^2}{6x_1}\right)^2 + \frac{4y_1^2}{9}}$$


$$\sqrt{\left(\frac{x_1}{2} + \frac{y_1^2}{6x_1}\right)^2 + \frac{y_1^2}{9}} = \sqrt{\left(\frac{x_1}{2} - \frac{y_1^2}{6x_1}\right)^2 + \frac{4y_1^2}{9}}$$

$$\left(\frac{x_1}{2} + \frac{y_1^2}{6x_1}\right)^2 + \frac{y_1^2}{9} = \left(\frac{x_1}{2} - \frac{y_1^2}{6x_1}\right)^2 + \frac{4y_1^2}{9}$$

$$\frac{(3x^2 + y^2)^2 + 4x^2y^2}{36x_1^2} = \frac{(3x^2 - y^2)^2 + 16x^2y^2}{36x_1^2}$$

$$\frac{9x_1^4 + 10x^2y^2 + y_1^4}{36x_1^2} = \frac{9x_1^4 + 10x^2y^2 + y_1^4}{36x_1^2}$$

Demak  $|OE|$  va  $|OP_1|$  hamda  $|OP_2|$  kesmalar o`zaro teng.  $\square P_1EP_2 = 120^\circ$  ligidan  $\square P_1EO = 60^\circ$   $|O \neq |Q|$  dan esa  $\square EP_1O = 60^\circ$  Endi, yuqoridagilardan kelib chiqadiki,  $\Delta OEP_1$  muntazamdir. Bundan esa  $|OE|$  masofa  $|EP_1|$  masofaga teng. Bizda  $E$  nuqta  $\Delta P_1P_2P_3$  ning medianalar kesishish nuqtasi bo`lganligi uchun  $|OE| = |EP_1| = |EP_2| = |EP_3|$  tenglik o`rinli bo`ladi.



Biz yuqorida  $|OE| = |EP_1| = |EP_2| = |EP_3|$  ekanligini isbotladik. Shuning uchun optimal tutish vaqtida  $T = \frac{|EP_1|}{\alpha} = \frac{|EP_2|}{\alpha}$  ga teng. Bu yerda

$$|EP_1| = \sqrt{(x_1 - x_0)^2 + (y_1 - y_0)^2}, \quad |EP_2| = \sqrt{(x_2 - x_0)^2 + (y_2 - y_0)^2}.$$

Ikkinchi va uchinchi hollar uchun ham yuqoridagi kabi alohida teoremalarga ega bo'lamiz va undagi olingan natijalarni ham 1-hol uchun ko'rsatilgan usulda isbotlash mumkin va bu hollarda optimal tutish vaqtлari quyidagicha bo'ladi:

$$T = \frac{|EP_1|}{\alpha} = \frac{|EP_3|}{\alpha}, \quad T = \frac{|EP_2|}{\alpha} = \frac{|EP_3|}{\alpha}, \quad |EP_3| = \sqrt{(x_3 - x_0)^2 + (y_3 - y_0)^2}.$$

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. Azamov A.A. About the quality problem for the games of simple pursuit with the restriction, Serdika. Bulgarian math. spisanie, 12, 1986, - p. 38-43.
2. Azamov A.A., Samatov B.T. The  $\Pi$ -Strategy: Analogies and Applications, The Fourth International Conference Game Theory and Management, June 28-30, 2010, St. Petersburg, Russia, Collected papers. - p. 33-47.
3. Chikrii A.A. Conflict-controlled processes, Boston-London-Dordrecht: Kluwer Academ. Publ., 1997, – 424 p.
4. Petrosjan L.A. The Differential Games of pursuit, Leningrad, LSU, 1977, - 224 p.
5. Pshenichnyi B.N. Simple pursuit by several objects. Cybernetics and System Analysis. 1976. 12(3): - p. 484-485. DOI 10.1007/BF01070036.
6. Pshenichnyi B.N., Chikrii A.A., and Rapoport J.S. An efficient method of solving differential games with many pursuers, Dokl. Akad. Nauk SSSR, 1981. - p. 530-535 (in Russian).

## ХОРИЖИЙ ТИЛЛАРНИ ЎРГАТИШДА ТИЛ ВА МАДАНИЯТ МУНОСАБАТИ

*Камалова Нилуфар Дишиод қизи,  
Наманган давлат университети  
магистранти*

### Аннотация:

Ушбу мақолада тил ва маданиятнинг ўзаро муносабатига қаратилган замонавий ёндашувлар масалалари ёритилган. Тил ҳар бир халқ маданиятининг энг муҳим элементларидан бири эканлиги, унинг этник ўзига хосликни сақлашдаги энг муҳим омил эканлиги кўрсатилган.

**Калит сўзлар:** миллий, маданият, тил, феномен, матн, интерференция, ўзаро ҳамкорлик.

### Аннотация:

Статья посвящена освещению современных подходов на проблему взаимодействия языка и культуры. Показано, что язык является одним из

важнейших элементов культуры любого народа, что он является важнейшим фактором сохранения этнического самосознания.

**Ключевые слова:** национальный, культура, язык, феномен, текст, интерференция, взаимодействие.

**Annotation:**

The paper covers modern approaches to the problem of interaction between language and culture. It shows that language is one of the most important elements of the culture of any nation, that it is an important factor in the preservation of ethnic identity.

**Keywords:** national, culture, language, phenomenon, text, interferenz, interaction,.

Дунёдаги турли тилларда гаплашадиган халқлар ўзига хос турли хил маданий этник тарихга эга. Тил ва маданият бир-биридан ўзаро фарқ қиласидиган икки ўзгача соҳа бўлса-да, аммо улар бир-бири билан ўзаро муштаракдир. Тил ташқи оламни англаш ва уни тушуниб етиш ҳамда инсонлар ўртасидаги ўзаро мулоқотнинг асосий воситаси ҳисобланади. Шунингдек, бошқа миллатлар маданияти билан танишиш имконини беради.

Хар бир маҳаллий маданият ўзига хос тарихий ва табиий шароитларда шаклланиб, ўз дунё тасвирини, инсон қиёфасини ва мулоқот тилини яратади.

Хар бир маданиятда мавжуд тил тизимининг роли ҳамда вазифаси фақатгина ўзаро мулоқот воситасигина бўлиб қолмасдан тил маданиятнинг пойдевори, унинг ички асосини ташкил этади. Чунки тил ёрдамида инсонлар турли рамз(символ)лар, меъёрлар ва анъаналарни акс эттиради, маълумотларни узатади ҳамда одоб-ахлок, ишонч, янгиликка интилувчанлик, ҳис-туйғу, қадр-қиммат ва қатъийлик шаклларини ва бу ҳақдаги илмий билимларни ифодалайди. Тил ва маданият орасидаги боғлиқликни ўрганишни илк бор 1911 йилда америка маданият антропологи Ф.Боас ва британиялик ижтимоий антрополог Б. Малиновскийлар икки маданиятни уларнинг луғат таркибини қиёсий тасвирлаб бериш орқали бошлаб берган.

Тил ва маданият орасидаги муносабатни англаб етишда Сепир-Уорфнинг “Тил нафақат фикрларни ифодалаш воситаси, балки тил бизнинг фикрларимизни шакллантиради, бундан ташқари биз дунёни қандай сўз орқали ифодаласак шундай кўрамиз”, деб тасвирлаган лингвистик гипотезаси катта ҳисса қўшган. Ушбу фикрга келишда олимлар томонидан турли тиллар таркиби эмас, балки уларнинг тузилиши европа халқлари тиллари ва хопи тили (хинду қабилалари тили) мисолида таҳлил қилиб чиқилган.

Чет тил ва маданият яхлит тарзда ўргатилиши қоидалаштирилганлиги туфайли маданиятлар интерференцияси муаммоси пайдо бўлди. Бу маданиятлар диалоги назариясида муҳокама предметига айланди. Бинобарин, бегона ва ўз тили ва маданияти материалида маданиятлараро тафовутларга алоҳида эътибор қаратиш эҳтиёжи вужудга келди.

Маданиятлар номутаносиблигини бартараф қилиш мақсадида, лисоний (семантик) қиёслашдан ташқари, концептор (концептуал эмас) муқоясага зарурият туғилди, яъни муайян концепт лингвокультурологик мундарижаси таркибидаги сўз, сўз бирикмаси, гап (жумла) ва матн/дискурсларнинг маданий мазмун-моҳияти ҳар бир халқнинг *борлиқни тил воситасида тасаввур қилиши* (Ю.С.Степанов терминологиясида *языковая картина мира*: Константы: Словарь русской культуры. Опыт исследования. - Москва, 1997) хусусиятлари очиб берилиши мақсадга мувофиқдир. Шу маънода ўрганилмиш чет тил ва она тилида мавжуд *хос билимлар* (русча фоновые знания)ни фарқлаш керак бўлади.

Тил ва маданият муносабати мураккаб, жуда қийин ва кўп томонлама мухокама талаб қиласидиган масала ҳисобланади. Тил ва маданиятни тадқиқ этиш, эҳтиёткорлик билан ёндашишни талаб этади. Улар тадқиқига эътиборсизлик, бу икки турдаги семантик тизимни ягона қолипга тушуриб қўйиши мумкин. Бироқ, бу икки тизимнинг ўзаро ўхшаш, умумийлик томонлари мавжудлигини эсдан чиқармаслик керак. В.Н.Телия бундай умумийликни қуидагиларда кўради: 1) маданият, худди тил сингари, инсон дунёқарашини ўзида акс эттирувчи онг шаклидир; 2) тил ва маданият ўзаро муносабатда, мулоқотда бўлади; 3) тил ва маданиятнинг субъекти – бу доимо индивид ёки ижтимоий гуруҳ – жамоа шахс ёки жамият; 4) меъёрийлик (норма) тил ва маданият учун умумий хусусиятдир; 5) тарихийлик – тил ва маданиятнинг мухим хусусиятидир; 6) тил ва маданиятга “динамика ва статика” қарама-каршилиги бир хилда хосдир (Телия В.Н. Русская фразеология. –М.: 1996. – 226 с.).

Тил ва маданият ўртасидаги умумийлик, ўхшашлик қанчалик даражада бўлмасин, уларни фарқловчи хусусиятлар ҳам етарлидир.

Маданият ҳам белгилар тизимиdir, аммо ушбу система тил тизимидан фарқли тарзда, ўз-ўзидан тартиблашиш, тизимлашиш хусусиятига эга эмас.

Тил барча учун бир хил вазифа бажарувчи “жамоавий адресатли” ҳодиса бўлса, маданиятда эса кўпроқ элитарлик (сараглик) намоён бўлади (Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. “Сангзор” нашриёти. 2006.–Б. 62.).

Бизнинг фикримизча, тил ва маданият ўртасидаги муносабат айнанлик (изоморфлик)дан кўра кўпроқ ҳамоморфлик, яъни структуравий ўхшашликдан иборат дейиш тўғрироқ бўлади.

Тил ва маданият ўртасидаги ўзаро алоқа, муносабат кўплаб олимларнинг тадқиқот обьекти бўлиб келган (В.Гумбольдт, О.Есперсен, Е. М. Верещагин, В.Г.Костомаров, Т.Д.Томахин, В.А.Маслова, С.Г.Тер–Минасова, В.Н.Телия, Д.Г.Мальцова).

А.Кребер ва К.Клакхонларнинг 1952 йилдаги маълумотларига кўра маданият атамасига берилган таъриф учюзтага яқин бўлса, бугунга келиб бу рақамлар сони икки мингдан ошиб кетди.

Илмий адабиётлар таҳлили шуни кўрсатадики, немисча «Kultur» ва русча «культура» атамаси лотинча «culture» ва ўзбекча «маданият» атамалари бир хил

тушунчани, яъни маънавий ҳаётда эришилган ютуқ, халқнинг қўлга киритган тараққиёти маъноларини билдиради.

Олимлар маданият тушунчасини турлича талқин қиласалар, бу борада уларнинг фикрлари, қарашлари хилма-хилдир. Улардан бирида, маданият-генетик бўлмай, у ҳар бир ҳалқ томонидан барпо этилиши ва тарихий жараёнда ривожланиши, инсонлар ўз ҳаёти ва фаолияти жараёнида моддий ва маънавий маданиятларини ақл-заковатлари билан яратишлари айтиб ўтилади (Лихачев Д.С.). Баъзан маданиятга таълим-тарбия, хулқ-одоб нормаси сифатида қаралади (Сысоев П.В, Барышников Н.В, Борелли Ю.).

В.Панфилов ва Б.Малиновскийлар “маданият ва тил ўртасидаги боғлиқлик, алоқани маълум хулқ-одоб нормаларини билишда”- деб биладилар.

А.А.Леонтьев нутқ (тил)ни ижтимоий хулқ-одоб сифатида эмас, балки коммуникатив хулқ-одоб компоненти нуқтаи назардан ўрганилса тўғри бўлади деб ҳисоблайди. Психологнинг фикрича мулоқот жараёнида тил нутқнинг сўз иштирокисиз яъни нутқсиз воситаларнинг муқобили билан алмашиши мумкин (84:108.).

Бироқ, тил маданиятнинг бир шакли ҳам элементи ҳам эмас, “тил жамоатчилик фаолияти ҳосиласининг бир шакли эмас, тил тажриба ва билимлар асосида йиғилган фикри шакллантириш ва узатиш воситасидир. Усиз маданий ривожланиш бўлмайди”- деган фикрлар ҳам мавжуд [3:91].

Бу фикрга зид тарзда К.Клакхон, Б.Уорф, Б.Маликовский, А.Д.Швейцерлар “тил маданиятнинг бир элементидир” деган гояни илгари сурадилар. Олимларнинг фикрига қўшилган ҳолда шуни айтиш мумкинки, тил ва маданият, тарбия, ўқимишлиликгина инсонни ҳайвондан ажратиб туради.

Социолингвистлар турли халқлар ўртасидаги нутқий мулоқот жараёнига таъсир этадиган ижтимоий омилларни илмий томондан ўргар эканлар, тил ва маданият халқдан ажralmasligini agar, тил ва маданият халқдан ажralib қолса йўқолиб кетиши, таназулга юз тутиши мумкинлигини эътироф этадилар [5:120].

Лингвомамлакатшунослик учун тилнинг учтаси муҳим саналади. Биринчидан, тил муомала воситаси, фикрларни ифодалаш қуроли бўлганлиги боис жамиятда коммуникатив жараённи бошқаради [42:11].

Иккинчидан, тил сирларга бойдир. У ахборот етказиш билан бир вақтда уни ўзида сақлаб қолади. Тилдаги мавжуд сирлар бу, инсонларнинг, миллатларнинг, халқларнинг сиридир. Тил тилсимини очиш орқали кўплаб янги билимлар эгалланади [7:64].

Учинчидан, тил нафакат инсоннинг маънавий маданиятини ривожлантиришга, шу билан бирга ишлаб чиқаришни яхшилашга, меҳнат фаолиятини ўсишга ҳам таъсир этади. Тил инсонларни ижтимоий муносабатлари билан ҳам узвий боғлиқдир. Тил мулоқот воситаси ҳисобланади. Шу жиҳатларини оладиган бўлсак тил маънавий маданиятнинг асосидаги ҳодиса эканлиги кузатилади. Тил маданий мазмун касб этувчи, ахборотларни йиғувчи ва ўзида сақловчи (кумулятив) вазифани бажаради

[Райхштейн А.Д. Лингвистика и страноведческий аспект в преподавании иностранного языка // ИЯШ, 1982, –№6. –С.14-15]. Ўқувчилар тили ўрганилаётган мамлакатлар маданияти, санъати, тарихи, адабиёти, урф-одати, анъаналаринидан хабардор бўлиши, халқ маданияти хазинаси сифатида тилнинг кумулятив вазифасидан воқиф бўлиш имконини беради.

Тилда миллатнинг ўзига хос хусусиятлари, қадимги авлодларининг дунёқаралини, жамиятга ва ўзларига бўлган муносабати ўз аксини топади. Тилда мақоллар, фразеологик бирликлар неча асрлардан бери сақланиб келинади. Коллеж ўқувчиларига немис тилида сўзлашишни ўргатилар экан, уларнинг тил сирларидан воқиф бўлиши она тили қобиғидан чиқишилари, маънавий маданиятларини бойитишлари учун ҳизмат қиласди.

Хулоса қилиб шуни айтиш мумкни, лингвомамлактшунослик тилларни қиёслаш имконини беради ва унинг қўйидаги хусусиятлари чет тил ўқитиш учун муҳимдир саналади: (а) ўқувчиларни тили ўрганилаётган мамлакат(лар)нинг турмуш тарзи, миллий-маданияти билан танишириш; (б) тарихий ёдгорликлари, диққатга сазовар жойлари тўғрисида маълумот бериш; (в) тили ўрганилаётган мамлакат(лар)нинг нутқ маданияти, кундалик сўзлашув нутқи билан яқиндан танишиш.

#### **Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:**

1. Алефиренко Н. Ф. Поэтическая энергия слова: синергетика языка, сознания и культуры. – М.: Academica, 2002. – 391 с.
2. Воробьёв В. В. Лингвокультурология: теория и методы. – М.: Изд-во РУДН, 1997. – 331 с.
3. Красных В. В. Этнопсихолингвистика и лингвокультурология: курс лекций. – М.: ИТДГК «Гнозис», 2002. – 284 с.
4. Петров М. К. Язык, знак, культура. – М.: Наука. Главная редакция восточной литературы, 1991. – 328 с.
5. Попова Т. Г. Национально-культурная семантика языка и когнитивно-социокоммуникативные аспекты (на материале английского, немецкого и русского языков): монография. – М.: Изд-во МГОУ «Нар. учитель», 2003. – 145 с.

### III BO'LIM. MUSTAQILLIK

#### ABDULLA ORIPOV 80 YOSHDA

*Masharipova Gulmadina Odamboyevna  
Xorazm viloyati Urganch tumanidagi 4-sonli maktabning  
ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi,  
Kamalova Tamara Yusupovna, Baltayeva Shahsanam Rayimboyevna,  
Xorazm viloyati Urganch tumanidagi 4-sonli maktabning  
rus tili va adabiyoti fani o'qituvchilar.*

O'zbek adabiyotini serqirra ijodkor, tarjimon, dramaturg, shoir va jamoat arbobi Abdulla Oripovsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Shunday ekan, shoir tavalludining 80 yilligi munosabati bilan Abdulla Oripovning hayot va ijod yo'lini yana bir bor varaqlasak, nur ustiga a'lo nur bo'lar edi.

Abdulla Oripov 1941-yil 21-martda Qashqadaryo viloyati Koson tumani Neko'z qishlog'ida dunyoga kelgan. 1958-yilda o'rta maktabni oltin medal bilan tamomlagan A.Oripov Toshkent Milliy universitetining jurnalistika fakultetiga o'qishga kirib, uni ham 1963-yilda imtiyozli diplom bilan yakunlaydi va o'z mehnat faoliyatini 1963-yilda "Yosh gvardiya" nashriyotida muharrirlikdan boshladi.

Shoir va jamoat arbobi, O'zbekiston xalq shoiri Abdulla Oripovning "Tilla baliqcha", "Men nechun sevaman O'zbekistonni" singari dastlabki she'rlari talabalik yillarida yozilgan va o'zbek she'riyatiga yangi, iste'dodli, o'ziga xos ovozga ega shoirning kirib kelayotganidan darak bergen. Ko'p o'tmay "Mitti yulduz" (1965) ilk she'rlar to'plamining nashr etilishi she'riyat muhlislarida paydo bo'lgan shu dastlabki tasavvurning to'g'ri ekanligini tasdiqlagan. Shundan keyin shoirning "Ko'zlarim yo'lingda" (1966), "Onajon" (1969), "Ruhim", "O'zbekiston" (1971), "Xotiro", "Yurtim shamoli" (1974), "Yuzma-yuz", "Hayrat" (1979), "Najot qal'asi" (1981), "Yillar armoni" (1983), "Haj daftari", "Munojot" (1992), "Saylanma" (1996), "Dunyo" (1999), "Shoir yuragi" (2003) singari she'riy kitoblari nashr etilgan.

Oripov o'zbek she'riyatiga o'tgan asrning 60-yillarida sobiq sovet jamiyatida esa boshlagan yangi shabadaning elchisi sifatida kirib keldi. U dastlabki she'rlaridan boshlab milliy she'riyatda yangi poetik tafakkurning qaror topishi yo'lida ijod qildi. Turmushda paydo bo'la boshlagan yangicha qarashlar, kishilarning ruhiy olamidagi evrilishlar, fikr va xatti-harakat erkinligiga bo'lgan ehtiyoj Oripov she'rlarining g'oyaviy mundarijasini belgilab berdi.

Shoirning dastlabki she'rlaridagi romantik kayfiyat asta-sekin o'z o'rnini falsafiy mushohadalarga bo'shatib, shoirning hayotda ro'y berayotgan voqeal-

hodisalarga munosabati faol tus oldi. Shu ma'noda, "Tilla baliqcha", "Qo'riqxona", "Genetika", "Olomonga" kabi she'rlar A.Oripovning lirik she'riyat ufqlarini hayot muammolari tasviri hisobiga kengaytirib borayotganidan darak berdi.

Abdulla Oripov "Jannatga yo'l" (1978), "Hakim va ajal" (1980), "Ranjkom" (1988) kabi dostonlarida ma'naviyat masalalariga alohida e'tibor berib, kishilarning ruhiy olamidagi ayrim qusurlar bilan ilmiy-texnik taraqqiyot va tafakkurning parvozi o'rta sidagi ziddiyatni ochib tashladi. Umuman, Oripov she'r va dostonlarida olg'a surilgan ma'naviy muammolar mustaqillik davrida, ayniqsa, dolzarb ahamiyat kasb etib, shoirning xuddi shu masalalar tasvirida o'z davriga nisbatan ilg'orlab ketganini ko'rsatdi.

Shoir mustaqillik yillarda adabiyotning rang-barang tur va janrlarida ijod eta boshladi. Shu davrda tarixiy adolatning tiklanishi, o'tmishda yashagan sarkardalar va allomalar xotirasining e'zozlanishi A.Oripovni Amir Temuring O'rta Osiyo xalqlari tarixiy taqdirida o'ynagan buyuk rolini ko'rsatuvchi "Sohibqiron" she'riy dramasini (1998) yozishga ilhomlantirdi. Xalq shoiri bu asarida qariyb uch asr davomida hukm surgan qudratli Temuriylar sultanatining asoschisi va XV asr Sharq Uyg'onish davrining boshlanishiga ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy sharoit yaratgan Amir Temur obrazini yorqin gavdalantirib berdi.

Shu o'rinda, Abdulla Oripov O'zbekiston Respublikasi Davlat Madhiyasining matni muallifi ekanligini ham e'tirof etishimiz lozim.

Abdulla Oripov jahon adabiyoti durdona asarlarini o'zbek kitobxonlariga yetkazishda ham samarali mehnat qildi. U Dante "Ilohiy komediya"sining "Do'zax" qismini, A.S.Pushkin, N.A.Nekrasov, N.G.Shevchenko, L.Ukrainka, R.Hamzatov, Q.Quliyev va M.Bayjiyev asarlarini o'zbek tiliga mahorat bilan tarjima qildi. O'z navbatida, uning asarlari ham rus, ingliz, bolgar, turk, ukrain, turkman, ozarbayjon kabi ko'plab xorijiy tillarga tarjima qilingan.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, o'zbek zamonaviy she'riyatining "Navoiy"si sifatida e'tirof etiluvchi Abdulla Oripov she'rlari va asarlari yana uzoq yillar davomida adabiyot ixlosmandlari qalbini zabit etib, ma'naviy ozuqa ulashadi.

## **O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING ARXEOLOGIK TURIZMINI RIVOJLANTIRISHDA AXSIKENT YODGORLIGINING O'RNI**

*Tolibboyev Muxtorjon Qosimjon o'g'li,  
Namangan davlat universiteti  
Arxeologiya yo'nalishi magistranti*

### **Annotatsiya:**

Ushbu maqolada mamlakatimizda arxeologik turizm sohasini rivojlantirishda Namangan viloyatida joylashgan Axsikent yodgorligining o'rni hamda ahamiyati haqida yoritiladi.

**Kalit so`zlar:** turizm, Axsikent, O'zbekturizm, Ochiq osmon ostidagi muzey, Axsikent, quvur, arxeologik yodgorlik.

“Turizm-iqtisodiyotning muhim tarmoqlaridan biri mavjud imkoniyatlardan samarali foydalangan holda, ushbu tarmoqni yanada takomillashtirish zarur, buni davrning o'zi taqozo etmoqda”.

*Shavkat Mirziyoyev*

Bugungi kunda milliy iqtisodiyotimizni rivojlantirishning asosiy masalalaridan biri bu – shubhasiz, turizmni rivojlantirish masalasıdır. Shunga ko'ra, yurtimizda turizmni rivojlantirish uchun keng ko'lamlı ishlar olib borilmoqda. Albatta, ushbu sohada qilinayotgan jadal ishlar sohaga hukumatimiz tomonidan berilayotgan e'tibor hamda Prezidentimizning turizm sohasiga oid chiqarayotgan qaror va farmonlari samarası hisoblanadi. Chunonchi, Prezidentimizning “O'zbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida”gi farmoni, O'zbekiston Prezidentining “O'zbekiston Respublikasida o'rta istiqbolda turizmni rivojlantirish bo'yicha Konsepsiyasini hayotga tadbiq etish choralari to'g'risida”gi qarorini hamda Prezidentimizning 2017-yil 16-avgustdagi “2018-2019 yillarda turizm sohasini rivojlantirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida”gi qarori bu boradagi ishlarni yangi bosqichga ko'tardi. Qarorga ko'ra, 2018–2019 yillarda soha oldida turgan muhim masalalar yechimiga bag'ishlangan alohida dastur tasdiqlandi va uning to'liq ijrosini ta'minlash va sohada olib borilayotgan ishlarni idolarlararo muvofiqlashtirish maqsadida Turizmni rivojlantirish bo'yicha muvofiqlashtirish kengashi tuzildi. Uzoq istiqbolda O'zbekiston turizmi milliy iqtisodiyotdagi yutuqlar bilan cheklanib qolmasdan, mintqa va dunyo turistik xizmatlari bozoriga eng raqobatbardosh davlatlar qatorida kirib borishi mumkin. [1. 5]

Arxeologik yodgorliklarni ta'mirlash va ulardan foydalanish 1964-yilda qabul qilingan, Venetsiya Konvensiyasiga mos kelishi shart. Konvensiyada arxeologik obyektlarning tarixiy va estetik qiymati hamda saqlanishi kerakligi belgilab qo'yilgan. YUNESKO tomonidan “Umumjahon madaniy va tabiiy meroslarini muhofaza qilish to'g'risida”gi Konvensiyasi 1972-yilada qabul qilingan bo'lib, 1978-yildan buyon Jahon merosi ro'yxatiga yiliga yer yuzidagi 25-30 dona favqulodda ahamiyatga ega obyektlar kiritilib borilmoqda. Shuningdek, 1988 yildan YUNESKOning “Buyuk Ipak yo'li – muloqot yo'li” loyihasi ham amalga oshirib kelinmoqda. Mazkur loyihamdan ko'zlangan asosiy maqsad, sharq xalqlari o'rtasidagi madaniy aloqalarni rivojlantirish hisoblanadi. O'zbekiston, Qirg'iziston, Tojikiston, Qozog'iston, Turkmaniston, Ozarbayjon, Armaniston, Gruziya, Eron kabi davlatlardagi madaniy yodgorliklar loyiha doirasida YUNESKOning madaniy boyliklar ro'yxatiga kiritilgan. [2.175]

Yurtimizda turizmni rivojlantirish bo'yicha keyingi oylarda juda yuksak e'tiborga molik ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, ichki turizmni rivojlantirish, yurtdoshlarimizga mamlakatimizning qadimiy tarixidan so'zlovchi dargohlar bilan

yaqindan tanishish uchun bir qator yengilliklar va imtiyozlar yaratilayotganiga barchamiz guvoh bo‘lib turibmiz. Namangan viloyati To‘raqo‘rg‘on tumanida joylashgan ana shunday qadimiy maskanlardan biri – Aksi shahri. Ayni paytda ushbu maskanni qaytadan tiriltirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 16-oktyabrdagi “Namangan viloyatining To‘raqo‘rg‘on tumanida Axsikent arxeologiya merosi obyektini muhofaza qilish va tadqiq etish yodgorlik majmuasini tashkil etish to‘g‘risida” 831-sonli hamda Namangan viloyati hokimining 2017-yil 31-oktyabrdagi 761 qarorlari qabul qilindi . [3]

2019-yil 7-iyun kuni Namangan viloyati tarixidagi eng yirik xalqaro iqtisodiy tadbir – “Doing Business with Namangan – 2019” Namangan Xalqaro investitsion forumi o‘z ishini boshlaydi. “Doing Business with Namangan – 2019” investitsion forumida Rossiya, Turkiya, Xitoy, Koreya, Yaponiya, Eron, Germaniya, Buyuk Britaniya, Fransiya, Italiya, Gollandiya, Belgiya, Avstriya, Hindiston, Pokiston, Bangladesh, Misr, Quvayt, Isroil, Singapur, Ummon, BAA, Tayland, Malayziya, Ozarbayjon, Qozog‘iston, Polsha, Latviya, Lyuksemburg, Tojikiston, Belarus, Bolgariya, Gruziya, Indoneziya va Ukrainadan 228 xorijiy kompaniyalar vakillari qatnashadi. Shuningdek, forumda O‘zbekiston Respublikasining 29 xorijiy mamlakatdagi elchilari, 32 davlatning O‘zbekistondagi diplomatik missiyalari vakillari hamda 10 dan ortiq xorijiy OAV muxbirlari ishtirok etishadi. 8-iyun kuni Forum qatnashchilari Namangan viloyatining diqqatga sazovor bo‘lgan “Axsikent” arxeologik yodgorlik majmuasini borib ko‘rishdi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyevning tashabbusi bilan 2018 yilning oxiri – 2019 yilning boshlaridan boshlab Namangan viloyati To‘raqo‘rg‘on tumanidagi Axsikent yodgorligida O‘zbekistonda birinchi bo‘lib “Ochiq osmon ostida muzey” tashkil qilish boshlandi. Bizga ma’lumki, ushbu yodgorlik qadimgi Farg‘ona davlatining poytaxti Farg‘ona, rivojlangan o‘rtalarda Axsikat (Axsiket) deb, atalgan shaharning xarobalari hisoblanadi. Ushbu shahar so‘nggi o‘rtalarda yozma manbalarida Aksi, Axsikent nomlari tilga olinadi. Shahar xarobalarining mo‘g‘ullar bosqinigacha bo‘lgan davrga oid qismi mahalliy xalq orasida Axsikent yoki Eski Aksi, Temur va temuriylar davriga mansub qismi esa Yangi Aksi deb ataladi. Axsikent yodgorligi hududidagi mudofaa inshootlari, shahar darvozalari, temirchi usta va zargarlar mahallasi, turar-joylar va yerosti suv yo’llari-vodoprovodlar asta-sekinlik bilan bosqichma-bosqich ochilib, “Ochiq osmon ostidagi muzey”ga aylantirilmoqda. Chunki yodgorlik 10–15 metrli madaniy qatlama ega bo‘lib, o‘z bag‘rida 1,5 ming yillik tarixni saqlab kelmoqda. Shuning uchun tadqiqotlar birinchi navbatda, yodgorlikning tepe qatlamida olib borilib, dastlabki ko‘rgazma asosan, fanga ma’lum obyektlar asosida tashkil qilinadi. Bunday ob‘ektlar yodgorlik hududida 23 tani tashkil etadi. Birinchi navbatda, ushbu ob‘ektlar ustini yangi materiallar va zamонавиу texnologiyalar yordamida berkitilib, so‘ng ko‘rgazmaga tayyorlash ishlari olib borilmoqda. Har bir usti yopilgan ob‘ektning ma’lum bir qismi o‘rganilmagan holatda qoldiriladi. Keyinchalik, bu yerda arxeologik tadqiqotlar, arxeologiya bilan qiziquvchi turistlar ishtirokida yoki kuzatuvida, olib borilishi mumkin. Bu borada “O‘zbekturizm”

doirasida ish yurituvchi turoperatorlarning tegishli takliflari mavjud. Yaxshi saqlangan ob'ektlarning qadimgi 3D qiyofasi yaratiladi. [3. 4]

Arxeologik izlanishlar shuni ko'rsatdiki, ayniqsa, IX-XII asrlarda Axsikent vodiyning poytaxt shahri sifatida gullagan. Uning ichi zich uylar hamda do'konlar bilan band bo'lgan. Shunday holatda, qanday qilib bu yer osti inshooti qurilgan ekan. Ma'lum bo'lishicha, o'z zamonasining amaliy fanlariga tayangan quruvchi ustalar bu ajoyib inshootni hozirgi metro qurilishi usulida bunyod qilishgan. Avval pishiq g'ishtdan gumbazsimon uslubda o'ziga xos yer osti yo'li qurilib, uning tubiga katta diametrli sopol quvurlar yotqizilgan. Suv ana shu quvurlar orqali oqqan. Quvur yo'lining ma'lum joylarida pishiq g'ishtdan qurilgan yer osti kuzatish xonalari bo'lgan. Sopol quvurlarda oqayotgan suv kuzatish xonasidagi kichik hovuz orqali o'tadi. Bu quvur sistemasi shahar aholisiga kamida 300 yildan ortiq xizmat qilgan.

Bugungi kunda xarobalarning 60 gektarga yaqin qismi saqlanib qolgan bo'lib, Farg'ona vodiysidagi eng katta arxeologik yodgorlikdir. Arxeologlar tomonidan temirchilar ustaxonasi, X-XIII asrlarga oid hammom qoldiqlari, askarlar xonalari, jome' masjidi, mudofaa devorlari, yer osti irrigatsiya tarmoqlari, hunarmandlar mahallasi, hukmdor qarorgohi – Ark qazib o'rGANilgan. Prezidentimiz topshirig'iga muvofiq 2017 - yilda Axsikent tarixiy yodgorligini asrab-avaylash va tadqiq etish, uning haqqoniy tarixini yaratish bo'yicha ulkan ishlar boshlandi. "Axsikent" arxeologiya merosi obyektini muhofaza qilish va tadqiq etish direksiyasi» davlat unitar korxonasi tashkil etildi. Mazkur yodgorlik Namangan viloyatining sayyohlik salohiyatini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Yurtimiz va xorijdagи sayyohlik ko'rgazmalarida qadimi Axsikent haqida ham taqdimotlar o'tkazilmoqda. Buning samarasida mahalliy va xorijiy sayyohlar o'rtasida tarixiy yodgorlikka qiziqish ortmoqda. Hozirga qadar Belgiya, Avstriya, Yaponiya, Janubiy Koreya, Rossiya, Eron, Pokiston, Hindiston kabi davlatlardan sayyohlar tashrif buyurgan. Qadamjoni tadqiq etish, uning jozibadorligini va sayyohlar oqimini oshirish maqsadida maxsus konsepsiya ishlab chiqilgan. Ayni kunda shu asosda Farg'ona vodiysida ichki turizmni rivojlantirish choralar ko'rilmoxda. [6]

#### **Foydalaniлgan adabiyotlar ro'yhati:**

1. Mirziyoyev Sh. "O'zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida". PF-5611. Toshkent. 2019.
2. Isoqjonov F. O'zbekistonda arxeologik turizmni rivojlantirishning istiqbollari // Tamaddun silsilasi. (ilmiy jurnal) №1-son. 2020.
3. Namanganda Axsikent arxeologik yodgorligini tadqiq qilish ishlari// [www.yangiliklar.net](http://www.yangiliklar.net).
4. Anarbaev A. A. Farfona vodiyasi arxeologiyasi va etnologiyasi muammolari. Axsikent ёдгорлигига олиб борилаётган тадқиқотлар ва "очик осмон остидаги музей"ни ташкил қилинишига доир.// Farfona vodiyasi tarihinining dolzarb muammolari. Namangan. 2020.
- 5.<https://xs.uz/uz/post/qadimij-akhsikent-yodgorligi-turizm-manziliga-ajlantiriladi>

## TAMADDUN BESHIGI – SHARQ RENESANSI

Kozimjon OLIMOV,

*NamDU, Tarxi yo'nalishi talabasi*

Bugungi kunda dunyo zamonaviy taraqqiyotining intellektual-kommunikatsion tamoyillarga tayangan holda jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlarini oshirishga intilayotgan davlatlar barcha sohalar bo'yicha yuqori pog'onalarda turadi. Bu mamlakatlaning aksariyat qismi G'arbiy Yevropa va Shimoliy Amerika hududlarida joylashgan. Ammo bu rivojlanish zamirida nafaqat ushbu hududlar emas, balki butun dunyo uchun ilm-fan, madaniyatning ibtidosi, tamadduni Sharq hisoblanadi. Renessans<sup>\*</sup> atamasi Yevropa olimlari tomonidan fanga kiritilishiga qaramasdan, aslida uyg'onish davri Sharqda boshlanganligi manbalardan ma'lum. Yevropada Renessans XIV – XVI asrlarda yuzaga kelgan bo'lsa, Sharqda esa bu holat IX – XII asrlarda boshlangan. Sharqda yaratilgan asarlar, ixtiolar 300-500 hatto 1000 yildan keyingina G'arbiy Yevropada paydo bo'lgan [1]. Shu o'rinda barcha sohalar qatori ilm-fan ham yuqori darajada rivojlangan. Sharq mutafakkirlari Abu Nasr Farobi, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Abu Bakr ar-Roziy, al-Farg'oni, al-Xorazmiy, ibn Battuta va xuddi shunday maqomga munosib bo'lgan allomalar o'zlarining ilm-fan, madaniyat bobida G'arbning olimlari uchun asos bo'lgan g'oyalarni ilgari surishgan. Shu o'rinda albatta Bag'doddagi dastlabki akademiya hisoblangan "Bayt ul-hikma", shuningdek, Urganchdagi "Dor ul-hikma va maorif" ta'kidlab o'tish joizdir. Bu saroy akademiyalari Sharq ilmining markazlari bo'lganligi tarixdan ayondir. O'tmish tariximiz sahifalariga nazar tashlasak, buyuk ajododlarimiz nafaqat xalqimiz, balki butun dunyo mamlakatlari tamaddunini o'rgangan va ularning tarixi va madaniyatiga hurmat va ehtirom bilan o'z munosabatlarini yozib qoldirgan asarlari bizgacha yetib kelgan. Demak, ilm-fan va madaniyat rivoji xalq tanlamaydi, balki xalqlarning o'zaro hamjihatligini ta'minlashda muhim tarbiyaviy omil vazifasini o'taydi.

Buyuk sharq allomalarining ilmiy merosi mazmuni va ko'lami shundaki, bu meros bugun ham o'zining ilmiy-amaliy ahamiyatini yo'qotmasdan, yangi ilmiy tadqiqotlar uchun muhim manba bo'lib xizmat qilmoqda. Buyuk mutafakkir Abu Rayhon Beruniyning "Hindiston" nomli asari Hindiston to'g'risida barcha zamonlarda yozilgan eng mukammal asar sifatida hozir ham o'z qimmatini yo'qotmagan va bugungi kunda tadqiqotlar uchun manba bo'lib xizmat qilayotgani buning yaqqol isbotidir. Buyuk ajododlarimiz o'z ilmiy merosi bilan insoniyat sivilizatsiyasiga munosib hissa qo'shganlar. Sharq va G'arbning ilmiy dunyosi birlashgan va uyg'unlikda rivoj topgan. Allomalarimiz faqat Osiyoning ilm-fan

---

\* Renessans – fransuzcha, "uyg'onish" – ilm-fan va madaniyat sohasida yangi o'zgarishlar ro'y berishi.

yutuqlari bilan chegaralanib qolmasdan, xorijlik mutafakkirlarning ham ilmiy yutuqlaridan bahramand bo'lganlar va ularni yanada boyitishga alohida e'tibor qaratganlar. Buyuk allomalarimiz o'zlariga mansub bo'lgan fan sohalaridagi faoliyatlaridan tashqari, qadimgi yunon tilida yozilgan Aristotel, Ptolemy, Yevklid, Demokrit, Sokrat, Pifagor, Galen kabi qadimgi yunon va ellinizm davrida yashagan olimlarning matematika, falsafa, tibbiyot, geografiya, astronomiyaga oid bir necha yuzlab eng sara asarlarini arab va fors tillarga tarjima qilganlar. Mana shu tarjimalar va o'zlarining asarlari shu tariqa Qadimgi Sharq fanining shakllanishi va yuksak taraqqiyotida muhim o'rinn tutgan. Buyuk allomalarimiz yoshligidanoq haqiqiy ilm bir necha tillarni bilishni taqozo etishini juda erta anglab yetganlar va shu bois o'zining ona tilidan tashqari arab, fors, yunon, sanskrit tillarini chuqur o'rganganlar. Manbalarda Abu Nasr Farobiyning ko'plab tillarni bilganliklari qayd qilingan [2]. Shu bilan birga uning Aristotel asarlariga sharhlari mashhurdir. Beruniyning Aristotelga munosabati Abu Ali ibn Sino bilan yozishmasida o'z ifodasini topgan. Ularning yozishmalari asosan Aristotelning "Fazo haqida" va "Fizika" asarlari bo'yicha olib borilgan edi. Beruniy Aristotelni qadimgi dunyoning eng qomusiy yetuk olimi deb hurmat bilan tilga oladi. Ulug' vatandoshimiz Muhammad ibn Muso Xorazmiy algebra fanining asoschisi bo'lishi bilan birga, turli fanlar sohalarida samarali ijod qilib, nafaqat Markaziy Osiyo, balki dunyo fanlarining rivojiga beqiyos hissa qo'shgan. Muhammad Muso Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Ahmad al-Farg'oniy kabi olimlar hozirgi zamon hisoblash tizimini kashf etdilar. Manfiy va irriatsional sonlar bilan ishslash yo'lini, ildiz chiqarish, kvadrat tenglamalarni yechish usullarini topdilar va o'z kashfiyotlari bilan dunyo fanining cho'qqisiga chiqdilar. O'rta asrlarda o'lkamizda ko'plab ilm va ma'naviyat maskanlari faoliyat ko'rsatgan. Ushbu markazlarda juda ko'plab olim va ulamolar ijod qilgan, xalqning ma'rifatini ko'targan. Masalan, buxorolik olimlar soni haqida Narshaxiyning shunday gaplari bor: "Agar Buxoro olimlarining hammasini zikr qilsak, bir nechta daftarni tashkil etadi" [3]. Mazkur ma'lumot ushbu hududda ilmiy faoliyat tizimining o'sha davrda yaxshi yo'lga qo'yilganligini anglatadi. Abu Ali ibn Sino shunday deydi: "Buxoro amiri ibn Nuh Mas'uddan uning kutubxonasini ko'rishga ruhsat so'radim va shu kutubxonada bor kitoblarni ko'rib chiqdim.... Menga eng ta'sir qilgani shu bo'ldiki, hech qachon nomini odamlar eshitmagan kitoblar ham bor edi" [4]. Alloma ajdodlarimiz dunyo olimlarining asarlarini qunt bilan o'rganganlaridek, bugungi kungacha o'tgan uzoq tarixiy davr mobaynida yurtimiz hayoti, unda yashagan allomalar faoliyatini o'rganishga juda ko'plab chet el tarixchilari va tadqiqotchilari ham katta qiziqish bilan murojaat qilganlar. Shveysariyalik olim Adam Mets o'rta asrlarda Osiyo kutubxonalarining keng rivojlanganligi va Yevropadan ancha ilgarilab ketganini ta'riflaydi [5]. Yevropaning yirik sharqshunos olimlaridan Dalambr, Brokelman, X.Zuter, I.Krakhkovskiy, A.Yushkevich va B.Rozenfeldlar al-Farg'oniyning ijodini o'rgangan va bu olimning faoliyatiga yuqori baho bergenlar. Hozirda al-Farg'oniyning sakkizta asari ma'lum bo'lsada, ularning birortasi ham hozirgi zamon tillariga tarjima qilinmagan. "Samoviy harakatlar va umumiyl ilmi nujum

kitobi”, “Astronomiya asoslari haqida kitob” nomi bilan ham ataladi. “Usturlob yasash haqida kitob” – qo’lyozmalari Berlin, London, Mashhad, Parij va Tehron kutubxonalarida, “Usturlob bilan amal qilish haqida kitob”ning birgina qo’lyozmasi Rampurda (Hindiston), “Al-Farg’oniy jadvallari” – qo’lyozmasi Patnada (Hindiston), “Oyning Yer ostida va ustida bo’lish vaqtlarini aniqlash haqida risola” qo’lyozmalari Gota va Qohirada, “Quyosh soatini yasash haqida kitob” qo’lyozmalari Halab va Qohirada saqlanadi. Shunday qilib, buyuk ajdodimizning ijodi Yevropa Uyg’onish davridagi va undan ancha keyingi davrdagi fan va madaniyat rivojida sezilarli rol o’ynadi.

Mustaqillik yillardan boshlab mutafakkirlar ijodini tubdan o’rganish uchun qaror, farmon, farmoyishlar ishlab chiqildi. Xususan, O’zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti Islom Abdug’aniyevich Karimov o’z nutqlarida ham ajdodlar ruhini shod etish buyuk fazilat ekanligini bir necha bor ta’kidlab o’tganlar. Xususan, “Eng muhim vazifa shundan iboratki, o’zligimizni teran anglab, mutafakkir bobolarimiz, aziz–avliyolarimiz qoldirgan beba ho merosni asrab–avaylab, yanada boyitishimiz, ulug’ ajdodlarimiz ishining munosib davomchilari bo’lmog’imiz darkor” [6]. Shuningdek, O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning 2020-yil 29-dekabr’ kuni O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi va O’zbekiston xalqiga Murojaatnomasida ajdodlar merosini asrab–avaylash, ularga munosib farzand bo’lish, kelajak avlodlarga zarar-zahmatsiz yetkazish kabi ustuvor vazifalar belgilab berildi.

Xulosa qilib aytganda, bugun xalqlarning bir-biri bilan bo’lgan aloqalarini ularning madaniy qadriyatlarini, buyuk mutafakkirlari ma’naviy merosini o’rganishchalik tez yaqinlashtira olmaydi. O’zbekistonning dunyodagi davlatlar bilan madaniy, ma’naviy–ma’rifiy sohada hamkorlik istiqbollari ulkan. Zero, xalqlar bir-birining tarixi, madaniyati va ma’naviyatini yaxshi bilsa, davlatlar o’rtasida hamkorlik ham shuncha mustahkam bo’ladi. Xolbuki Sharq alloma va mutafakkirlarining ilmiy merosi faqat bir millat yoki xalqni emas, balki butun insoniyatning ma’naviy mulkidir.

#### **Foydalilanigan adabiyotlar ro’yhati:**

1. Farmonov R., Jo’rayev U., Ergashev Sh. Jahon tarixi. – T., 2014.
2. Muhammadjonov A. O’zbekiston tarixi. – T., 2017. – B. 95.
3. Абу Бакр Наршахий. Бухоро тарихи. – Т., 1991. – Б. 90.
4. Ибн Сино, Абу Али. Жизнеописание // Медицинские взгляды. – Т.: «Медицина», 1983. – С. 11.
5. Мец, А. Мусульманский Ренессанс. – М.: «Наука», 1973. – С. 150.
6. Каримов И. А. Ватан равнақи учун ҳар биримиз маъсулмиз. – Т., 2001. – Б. 100.

## КРАТКАЯ ИСТОРИЯ ВОЗНИКНОВЕНИЯ ФЕМИНИЗМА

*Махфират Султанова,  
магистр 2-курса кафедры  
история при НамГУ*

### **Аннотация:**

В данной статье автор освещает актуальность феминизма, так как на сегодняшний день женщины составляют половину нашего общества и без надлежащего образа исследования истоков развития данного движения, невозможно полностью осознать важность и нужность исследования данной темы. Целью данной статьи заключается в историческом изучении процессов возникновения феминизма, их этапы и цели.

### **Annotation:**

In this article, the author highlights the relevance of feminism, since today women make up half of our society, and without a proper way of researching the origins of this movement, it is impossible to fully realize the importance and necessity of researching this topic. The purpose of this article is to historically study the processes of the emergence of feminism, their stages and goals.

Термин феминизм (от лат. *femina*, «женщина») - общественно-политическое движение, целью которого является предоставление женщинам всей полноты гражданских прав. В широком смысле — стремление к равноправию женщин с мужчинами во всех сферах общества. В узком смысле - женское движение, целью которого является устранение дискриминации женщин и уравнение их в правах с мужчинами. Возникло в XVIII веке. Особенno активизировалось с конца 1960-х годов. Идеология феминизма сформировалась под влиянием жизненных ситуаций как социальная теория и политическое течение типичных для женщин. Сторонники феминизма подвергают критике сложившиеся общественные отношения, делая упор на анализ неравенства полов и защиту прав и интересов женщин. Феминистами называют тех, кто на основе теоретических обоснований осознает подчиненное положение женщин, их социальный статус, не равный статусу мужчин, и поддерживает идею женской эмансипации (лат. *emancipatio* – освобождение от зависимости). Они подвергают критике сложившиеся общественные отношения, делая упор на анализ неравенства полов и защиту прав и интересов женщин.

Согласно результату анализа источников, слово «*feminisme*» (от лат. *Femina* – женщина) ввел в научный оборот Шарль Фурье<sup>15</sup>, теоретик

---

<sup>15</sup> Фурье Ш. Теория четырех движений и всеобщих судеб. М., 1938.

французского социализма, еще в начале XIX века. Для него «феминистка» – «новая женщина», способная изменить общественную жизнь, и в то же время сама изменится в обществе. Фурье был убежден, что расширение прав женщин- это главный источник социального прогресса.<sup>16</sup>

Согласно истории феминистского движения выделяют три этапа, которые называют также три «волны», стремясь подчеркнуть сходство этапов с волнами океана, где «каждая последующая волна приходит за предшественницей и занимает её место, не умаляя значения предыдущей».<sup>17</sup>

Феминизм «первой волны» – охватывает XIX в. и первую половину XX века. Согласно источникам, во второй четверти XIX века требования феминисток в разных странах воплотились в единую общественную компанию и акцию. Поначалу приоритетным вопросом был доступ женщин к высшему образованию, а после и вопрос о законодательных реформах и праве голоса для женщин как средство для обеспечения законодательных реформ.

С середины XIX века образованные женщины стали активнее участвовать в общественной жизни, требуя политического равноправия. Основным центром борьбы была Англия, отчего и взяла название от английского термина «суфражизм» (от англ. Suffrage – право голоса), что означает избирательное право и вошла в историю политического направления в феминизме.<sup>18</sup>

В 1867 году в Манчестере было создано «Общество женского избирательного права» и члены начали издание «Женского суфражистского журнала». В 1868 общество было преобразовано в Национальную федерацию суфражистских обществ (НФСО), которая в течение года объединила более 5000 членов. Её основоположницей считалась Эммелин Пэнхёрст.<sup>19</sup> НФСО старалась распространить идеи суфражизма в Уэльсе, Ирландии и Шотландии.

Возникнув в Англии, суфражизм позднее получил распространение в США, Германии, Франции и других странах. Первыми избирательное право получили имущие женщины в Новой Зеландии, Австралии, Финляндии, Норвегии, в Дании и Исландии, в России.

В Новой Зеландии женщины получили активное избирательное право (но не могли быть избранными) в 1893 году, а в Австралии в 1902 году женщины получили и активное, и пассивное избирательные права.

Однако в Англии принятие закона о праве женщин участвовать не только в местных, но и в парламентских выборах все откладывалось.

---

<sup>16</sup> Айвазова С. Г. К истории феминизма // Общественные науки и современность. М.: Наука, 2002. № 6. С. 37 – 49.

<sup>17</sup> Теория и история феминизма: курс лекций / под ред. И. Жеребкиной. Харьков: Ф-Пресс, 1996.

<sup>18</sup> Харитонова О. Манифест феминистского движения России. Екатеринбург: Издательские решения, 2015. С. 36-37.

<sup>19</sup> История и теория феминизма [Электронный ресурс].

[http://www.gender.cawater-info.net/knowledge\\_base/rubricator/feminism.htm](http://www.gender.cawater-info.net/knowledge_base/rubricator/feminism.htm) (Дата обращения: 27.01.2020)

Англичанки получили избирательное право ограниченно (только для замужних женщин) в 1918 году, а в полном объеме – в 1928 году.

В 20-е годы XX века в Европе и США феминистское движение первой волны, добившись, наряду с избирательными правами, принятия законов, разрешающих женщинам учиться в университетах и работать вне дома, посчитало свои задачи выполненными, и активность женских организаций пошла на спад.

Феминизм «второй волны» – продолжался 60-80-е гг. XX века.

Родоначальницей феминизма «второй волны» стала Симона де Бовуар, хотя она не считала себя феминисткой. Но именно она рассеяла догму о естественности сексуального разделения труда, создала соотносящее «природное» (женское) с «культурным» (мужским). На данном этапе женщины выступили с протестом против патриархального общества (общества с доминированием мужчин). В этот период возникает неофеминизм – идеология, в основе которой лежит требование преодоления «традиционных представлений о том, что главное назначение женщин – продолжение рода».<sup>20</sup>

Феминизм «третьей волны» – начиная с 90-х гг. XX столетия – до сегодняшнего дня. Подъём «третьей волны» феминизма начался в начале 90-х годов XX века в США. Идеологические отличия феминизма третьей волны от второй касалось сексуальности: феминизм третьей волны отказывается от понимания женской гетеросексуальности как стандарта и нормы и высоко ценит сексуальность как инструмент раскрепощения женщин. На мой взгляд, «третью волну» можно назвать демократической. Так как, женщины выступают уже не только за политические свободы и права, но, и за возможность самореализации на политическом поприще, за свободу в отношении выбора партнёра, а также, против навязывания мужским обществом правил, которые, якобы, «соответствуют» тем или иным женским социальным ролям. Проходят различные митинги против запрета абортов, в поддержку женского образования и льгот, за экологию, и прочее.

Как показали результаты исследования термин «феминизм» не подразумевает единую идеологию, и внутри этого движения существует множество течений и групп. Это связано с различными историческими прецедентами, различиями в положении и общественном статусе женщин в разных странах, а также с другими факторами. Ниже приводится список некоторых течений феминизма. Например:

Анархо-феминизм; вуманизм (от англ. woman - женщина); духовный феминизм; либеральный феминизм; исламский феминизм; марксистский феминизм; мультикультурный феминизм; новый феминизм; постколониальный феминизм; радикальный феминизм; сепаратистский феминизм; социалистический феминизм; феминизм стран третьего мира и др.

---

<sup>20</sup> Гендерные аспекты политической социологии. Учебное пособие /Отв. ред. С.Г. Айвазова, О.А. Хасбулатова. - М., 2004. С. 33-34

В Узбекистане феминистическое движение появилось в начале XX века. Когда местные реформаторы джадиды активно рассуждали и писали статьи о равноправии женщин и мужчин, о защите прав женщин, о правах женщин перед своими супругами и т.п. Например, А.Фитрат был одним из сторонников гендерного равноправия, и помог своей сестре поступить в школу Машрика Афенди (Элбек) на улице Ватан, в городе Ташкент<sup>21</sup>. Один из видных джадидов М.Бехбути также в своих статьях и выступлениях критиковал патриархальную власть, и неравное отношение к женской половине<sup>22</sup>.

В заключении стоит отметить, что, к сожалению, тема феминизма и гендерной политики нуждается в комплексном сопоставительном изучении с Европой. Кроме некоторых исследований (Д. Алимова<sup>23</sup>, Г. Ганиева<sup>24</sup>, Д. Раджабова<sup>25</sup>) местных ученых, не существует отдельной, объемной и углубленной работы по данной тематике. Следовательно, история развития феминизма и его влияние на Восток, в том числе на жизнь женщин Узбекистана остается актуальным.

---

<sup>21</sup> Раджабова Д. Туркистон жадидларининг қарашларида ёшлар ва хотин-қизлар масаласи. Дисс. т.ф.н. Тошкент, 2003. Б. 104.

<sup>22</sup> Раджабова Д. Туркистон жадидларининг қарашларида ёшлар ва хотин-қизлар масаласи. Дисс. т.ф.н. Тошкент, 2003. Б. 105. См. еще: Махмудходжа Бехбути. // Наука и просвещение. 1922. №1. С. 24.

<sup>23</sup> Алимова Д. Существуют ли гендерные конструкции в историографии Центральной Азии (колониальной, советской и современной)? // O'zbekiston tarixi. 2008. №2. С. 59-69; Её же: A historian's vision of 'Khudjum' // Central Asian Survey, 1998. Vol. 17:1 – P. 147-155.

<sup>24</sup> Ганиева Г. Гендерные проблемы: история и современность // Фалсафа ва хукуқ. 2011. №1. С. 113-115; Её же: Гендерные исследования в гуманитарных науках // Фалсафа ва хукуқ. 2011. № 4. С. 31-34; Её же: Гендерные исследования в Центральной Азии // Шарқшунослик. 2013. №16. С.131-136.

<sup>25</sup> Раджабова Д. Туркистон жадидларининг қарашларида ёшлар ва хотин-қизлар масаласи. Дисс. т.ф.н. Тошкент, 2003. – 148 б.

## MUNDARIJA

<b>I BO'LIM. TARIX VA ARXEOLOGIYA</b>		
1	<i>Очилов А, Бахтиёрев Б. Қадимги Варахша шаҳри хусусида...</i>	4
2	<i>Юсупов И, Исраилова С, Абрарова Г. XIX-XX асрларга oid Хива ёғоч ўймакорлиги санъати.....</i>	7
3	<i>Султонова Н. Бухорода мато тайёрлаш ҳунар.....</i>	12
4	<i>Жўраев Ш, Шарипова З. Бухоро музейидаги миср фаянсидан тайёрланган аёллар тақинчоги.....</i>	17
5	<i>Tilanova Sh. Mahalliy manbalarda Rossiya imperiyasining Buxoro amirligiga bosqini masalalarining yoritilishi.....</i>	21
6	<i>Karimov A. Buyuk Pyotr I armonlari.....</i>	28
7	<i>Исматова Д, Ганиев А. Бухорога нур таратган “Зиё” ёхуд Шарифжон Махдум.....</i>	31
8	<i>Ирзаева М. Ҳожи Абдулазиз Абдурасулов.....</i>	35
9	<i>Алиева Н. Навоий ижодида мусиқа.....</i>	38
10	<i>Ражабов О. Қизбиби ва Ҳазрат Биби манзилгоҳлари муқаддас қадамжо сифатида .....</i>	42

## II BO'LIM. PEDAGOGIKA

11	<i>Arslanova M. How to improve English speaking</i>	46
12	<i>Karimova G. Chet tilini o'rgatish jarayonida samarali o'quv materiallari va ularning tasnifi.....</i>	48
13	<i>Rahmonova G. Chet tilini o'qitish jarayonida zamonaviy metodlar.....</i>	51
14	<i>Saidova M. Chet tilni o'rgatish jarayonida nazoratning ahamiyati .....</i>	55
15	<i>Tojimirzayeva M. Ernest Xeminguey va Chingiz Aytmatov asarlarida tabiat tasviri.....</i>	59
16	<i>Abdullayev O, Ergashev S. Karbomer: xossa va xususiyatlar.....</i>	62

17	<i>Irisov A. Jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanuvchilarda jismoniy harakat malaka va ko'nikmalarni shakllantirishning bosqich va talablari.....</i>	65
18	<i>Abdullaev K. Mahalliy xomashyo asosida olingan illitda suv adsorbsiyasi.....</i>	68
19	<i>Abduvoxidov G'. Matn tilshunosligida tarixiy–tadqiqiy rivojlanishlar.....</i>	70
20	<i>Tulanov D. Model va modellashtirish.....</i>	73
21	<i>Irisov A. O'quvchilarining jismoniy sifatlarini tarbiyalash va chiniqtirish usullari.....</i>	77
22	<i>Abduvoxidov G'. Nemis tilidagi matnlarda artikelning ahamiyati</i>	80
23	<i>Mavlonov Z, Turg'unov S, Mavlonova O. O'quvchi-yoshlarni voleybol sport turiga tanlab olishning metodik xususiyatlari .....</i>	85
24	<i>Abdurahimova A. O'rta maktab o'quvchilarining ingliz tili o'rghanishda duch keladigan qiyinchiliklari .....</i>	88
25	<i>Jo'raboyev I. Translational ambiguities of the proverbs in the first volume of «the Compendium of the Turkic dialects» by Salikh Mutallibov and their comparative analyses.....</i>	90
26	<i>Xatamova G. "Navoiy" romanini o'qitishda yangi pedagogik texnologiyalarning qo'llanishi.....</i>	97
27	<i>G`ayniddinov Sh.T, Uzoqboev H.Q, Abdurahimova Z. Uchta quvlovchi va bitta qochuvchi bo`lgan hol uchun tutish masalasining geometrik talqini.....</i>	101
28	<i>Камалова Н. Хорижий тилларни ўргатишда тил ва маданияи муносабати.....</i>	104
	<b><i>III BO'LIM. MUSTAQILLIK</i></b>	
29	<i>Masharipova G, Kamalova T, Baltayeva Sh. Abdulla Oripov 80 yoshda.....</i>	109
30	<i>Tolibboyev M. O'zbekiston Respublikasining arxeologik turizmini rivojlanishda Axsikent yodgorligining o'rni .....</i>	110
31	<i>Olimov K. Tamaddun beshigi – sharq Renesansi .....</i>	113
32	<i>Султанова М. Краткая история возникновения Феминизма...</i>	117

Илмий-оммабоп нашр

# ТАМАДДУН СИЛСИЛАСИ

(*Мақолалар тұплами*)

*Даврий тұплам*  
№ 3

Мұхаррир: Иброҳим Маҳкамов

Техник мұхаррир: Қодир Мамадалиев

Дизайнер: Миркомил Усмонов

«Истеъдод зиё пресс» нашриёти,  
Наманган шаҳри, 3-кичик туман, 2-уй.

Бичими: 60x84 1/16. «Cambria» гарнитурасида оғсет босма усулида оқ қоғозга босилди. Ҳажми 18 босма табоқ. Адади 150 нусха. Баҳоси келишилган нархда.

«Яшин саноат» хусусий корхонаси  
босмахонасида чоп этилди.  
Наманган шаҳри, Ҳамроҳ күчаси, 71а-уй.